



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK  
MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**O'ZBEK TILSHUNOSLIGINING  
NAZARIY  
VA AMALIY MUAMMOLARI**

**moduli uchun**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**



**ALISHER  
NAVOIY**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**Malaka oshirish kursi yo'naliishi:**

**O'zbek tili filologiyasi:  
o'zbek tilshunosligi**

**Toshkent – 2022**

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 7-dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchi:**

**B.Mengliyev** – filologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchi:**

**S. Muxammedova** – filologiya fanlari doktori, professor

**S. Normamatov** – filologiya fanlari doktori. ToshDO‘TAU

**E. Ushenmez** – filologiya fanlari doktori, Turkiya Istanbul universiteti professori

**Ushbu o‘quv-uslubiy majmua Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**

*(2020-yil 29-dekabrdagi 7-sonli qarori)*

## MUNDARIJA

T/r	Bo‘limlar	Sahifa
I.	<b>ISHCHI O‘QUV DASTUR</b>	<b>4</b>
II.	<b>MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI</b>	<b>14</b>
III.	<b>NAZARIY MASHG‘ULOT MAZMUNI</b>	<b>27</b>
IV.	<b>AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI</b>	<b>77</b>
V.	<b>KEYSLAR BANKI</b>	<b>104</b>
VI.	<b>GLOSSARIY</b>	<b>106</b>
VII.	<b>ADABIYOTLAR RO‘YXATI</b>	<b>111</b>
VIII.	<b>TAQRIZ</b>	<b>116</b>

## I. ISHCHI O‘QUV DASTUR



## KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 26-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 278-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-son, 2016-yil 13-maydagи “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4797-son, 2017-yil 7-fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 2909-son Qarori yo‘nalishlari mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamlı texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamlı texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Globallashuv jarayonida til funksiyalari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga munosib ravishda kengayib bormoqda. Tilning jamiyat rivojidagi ahamiyati yanada dolzarblik kasb etmoqda. Bugungi kunda til tafakkur rivojining muhim omili ekanligini ta’kidlash joiz.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni belgilovchi ma’naviy omil va millat mavjudligining dastlabki sharti bo‘lgan tilning tabiatni, tilni tashkil qiluvchi birliklar tizimi, til birliklari o‘rtasidagi munosabat, tilshunoslik nazariyasiga oid masalalar, nazariy qarashlar, lingvistik ta’limotlarning uzviy taraqqiyot tizimini anglash mutaxassislar nazariy qarashlari uchun muhimdir.

### **Modulning maqsad va vazifalari**

“O‘zbek tilshunosligining nazariy-metodologik muammolari” **modulining maqsadi** tilning yaxlit bir butun tizim sifatidagi xususiyatini, til birliklari tavsifi va tasnifi, til birliklari o‘rtasidagi munosabatlarni yoritish, nazariy tilshunoslik masalalarini hal qilishda qo‘llanadigan metodologiya va metodlar haqida mukammal bilim berishdan iborat.

“O‘zbek tilshunosligining nazariy-metodologik muammolari” **modulining vazifalari:**

- tinglovchilarning umumlingvistik bilimini nazariy jihatdan chuqurlashtirish;
- til qurilishini bir butun tizim sifatida tahlil qilish;
- tilning structural qiymatini, til-lison-nutq munosabatini yoritish;
- til birliklari tavsifi va tasnifini yondashuvlarni tahlil qilish;
- til birliklari o‘zaro bog‘liqlikda, tizim sifatida o‘rganish;
- til birliklari o‘rtasidagi paradigmatic, sintagmatik, perarxik munosabat turlari mohiyatini yoritish;
- tilning mantiqiy, psixik tabiatini izohlash, ijtimoiy-iqtisodiy, fiziologik, biologik jarayon sifatdagi murakkab strukturasini tahlil qilish;
- tilshunoslik nazariyasining asosiy masalalari, nazariy qarashlar, lingvistik

- ta’limotlarning mohiyatini yoritish;
- yangi nazariy va metodologik materiallar bilan tanishtirish;
  - lisoniy tahlil metodikasi va metodologiyasi bilan qurollantirishdan iborat.

### **Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va Kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

“O‘zbek tilshunosligining nazariy-metodologik muammolari” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida **tinglovchi**:

- o‘zbek an’naviy akademik grammatikasini;
- tilning tizim sifatidagi mohiyati va semiotik tabiatini;
- tilshunoslikning dolzarb nazariy masalalarini;
- tilshunoslik tadqiqotlari metodikasini.

O‘zbek tilshunosligida qo‘llanilayotgan zamonaviy metodlar va ularning metodologiyasini **bilishi** kerak;

- o‘zbek tilshunosligining nazariy bosqichlari, yutuqlari, muammolari va ularning
- yechimiga doir tavsiyalarni ishlab chiqish;
- tilshunoslikning dolzarb nazariy masalalarini aniqlay olish.

Tilshunoslikning nazariy masalalariga doir lingvistik metodlarni qo‘llash **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi kerak;

- o‘zbek tilini formal va substansial o‘rganish natijalari va oqibatlarini ilmiy-
- nazariy jihatdan tahlil qilish;
- tilning tizim sifatidagi va semiotik xususiyatlarini talqin qila olish;
- lisoniy sohalarning hamkorlik munosabatlarni tasniflash;
- tilshunoslikning nazariy masalalari yechimiga doir tavsiyalar berish **malakalarini** egallashi zarur.

Modulni to‘liq o‘zlashtirish natijasida tinglovchi professor-o‘qituvchilar o‘zbek an’naviy va formal tilshunosligi talqinidan chetda qolgan muammolarni tahlil qila oolishini bilishi **kompetentliligiga** ega bo‘ladilar.

**Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar:**

“O‘zbek tilshunosligining nazariy-metodologik muammolari” modulini o‘qitish jarayonida:

- zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida interfaol ma’ruzalarini tashkil etish;
- virtual amaliy mashg‘ulotlar jarayonida keys, loyiha va assisment texnologiyalarini qo‘llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o‘quv rejasidagi boshqa modular bilan bog‘liqligi va uzviyiligi**

“O‘zbek tilshunosligining nazariy-metodologik muammolari” modulini o‘qitish o‘quv rejasidagi filologik ta’limda ilg‘or xorijiy tajribalar, filologik tadqiqotlarda tizimli tahlil, antropotsentrik tilshunoslik yo‘nalishlari, zamonaviy o‘zbek leksikografiyasи va terminologiyasi modullari bilan bog‘liqlikda va uzviylikda olib boriladi.

### **Modulning androgogik ta’limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar tilshunoslik nazariyasi va metodikasiga doir kognitiv, kreativ, kommunikativ va metodik kompetentlikka ega bo‘ladilar.

## Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soati		
		Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		Jami	Jumladan:	
			Nazary	Amaliy
1	O‘zbek tilidan amaliy foydalanishning zaruriy masalalari, yo‘nalishlari, metodologiyasi va natijalari.	2	2	
2	Ona tili o‘qitish metodikasi va uni o‘qitishda grammatik ma’lumotlar mazmuni, ta’lim maqsadi, usuli, vositalari, yo‘llari.	2	2	
3	O‘zbek an’naviy akademik grammatikasi. Amaliy tilshunoslik muammolari.	2	2	
4	O‘zbek substansial tilshunosligi.	2		2
5	O‘zbek an’naviy va formal tilshunosligi talqinidan chetda qolgan muammolar.	2		2
6	O‘zbek tili va sun’iy intellekt. O‘zbek tilini modellashtirish muammolari.	2		2
7	Ta’limda lison, shaxs, nutq munosabati.	2		2
<b>Jami</b>		<b>14</b>	<b>6</b>	<b>8</b>

## NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

**1-mavzu: O‘zbek tilidan amaliy foydalanishning zaruriy masalalari, yo‘nalishlari, metodologiyasi va natijalari.** Ishdan maqsad: O‘zbek tilshunosligining nazariy bosqichlari, yutuqlari, muammolari va ularning yechimiga doir tavsiyalar. Tilshunoslik yo‘nalishlarida metodologiya ko‘rinishlari. O‘zbek tilshunosligining nazariy bosqichlari, yutuqlari, muammolari va ularning yechimiga doir tavsiyalarni o‘rganish, tahlil qilish, o‘zbek tilidan amaliy foydalanishning zaruriy masalalari, yo‘nalishlari, metodologiyasi va natijalarini o‘rganish, empirik

metodologiya, bilish bosqichi, fahmiy bilim, idrokiy bilim, tadqiq manbaiga yondashish, nominalistik va dialektik usul, tadqiqotchi nuqtai nazari, materialistik va idealistik dunyoqarash. Masalaning qo‘yilishi: Metodologiya, jumladan, tilshunoslik tadqiqotilari metodologiyasi falsafaning tarkibiy qismi bo‘lib, fanning gnoseologiya (bilish nazariyasi) bo‘limi bilan uzviy aloqador. Shuning uchun metodologiya deganda tadqiqotchida kamida uch omilning mujassamlanishi va uning ilmiy tadqiq mahsulida namoyon bo‘lishi tushuniladi.

**2-mavzu: Ona tili o‘qitish metodikasi va uni o‘qitishda grammatik ma’lumotlar mazmuni, ta’lim maqsadi, usuli, vositalari, yo‘llari.** Ishdan maqsad: O‘zbek tilini formal va substansial o‘rganish natijalari va oqibatlari. Ona tili o‘qitish metodikasi va uni o‘qitishda grammatik ma’lumotlar mazmuni, ta’lim maqsadi, usuli, vositalari, yo‘llarini aniqlash, o‘zbek tilini formal va substansial o‘rganish natijalari va oqibatlarini tahlil qilish, sistema, lisoniy sistema, nutqning geterogen sistema ekanligi, nutq sistemasining tarkibi, nutq sistemasida hamkorlik, nutq sistemasida munosabat, nutqiy sistemada pragmatik omillarni o‘rganish. Masalaning qo‘yilishi: lison sistema sifatida o‘rganib kelinayotganligi, nutqning sistemaviy xususiyatlari ochilmayotganligi, nutqiy sistema lison, nolisoniy omillar hamkorligi sifatida qaralishi. Nutqiy sistemaning ZD tahlili. Nutqda xas va tartib masalasi. Nutqiy sistemada shaxs va shaxsiy omillar.

**3-mavzu: O‘zbek an’naviy akademik grammatikasi. Amaliy tilshunoslik muammolari.** Ishdan maqsad: O‘zbek tili ilmiy talqinida o‘zga tillar qoliplariga tayanishning ijobjiy natijalari va salbiy oqibatlari. O‘zbek an’naviy akademik grammatikasi o‘zbek tili ilmiy talqinida o‘zga tillar qoliplariga tayanishning ijobjiy natijalari va salbiy oqibatlarini o‘rganish, ona tili o‘qitish metodikasi va uni o‘qitishda grammatik ma’lumotlar mazmuni, ta’lim maqsadi, usuli, vositalari, yo‘llarini aniqlashdan iborat. Masalaning qo‘yilishi: til dalillarini ilg‘or metodlar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yig‘ish va ishlov berish, samarali metodika va meyorlar asosida turli xildagi matnlarni yaratish, korxona tashkilot va muassasalarda rasmiy idora hujjatlari bilan ishlash, turli shakl va tipdagi

matnlarni qayta ishslash va ularga ishlov berish, sharhlar tayyorlash, ensiklopediya va lug‘atlar tuzish, lisoniy va adabiy ma’lumotnomalarni yaratish, davriy nashrlarni tayyorlash, adabiy-tanqidiy jarayonga doir arxiv materiallarini tavsiflash va ularga ishlov berishda qatnashish, turli tipdagi matn va hujjatlarni chet tillardan va chet tillarga tarjima qilish, hujjatlar, ilmiy va badiiy materiallarning chet tillardagi referat va annotatsiyalarini tuzish, ommaviy va shaxslararo og‘zaki, yozma va virtual muloqotni, shu jumladan, madaniyatlararo, millatlararo va xalqaro lingvomadaniy aloqalarni amalga oshirish.

### **AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

**1-mashg‘ulot: O‘zbek substansial tilshunosligi.** Ishdan maqsad: Lison va nutqning farqlanishi. Lison sistema sifatida. Nutqqa sistema sifatida qaralmaganligi. Sistemaning xususiyatlarini tavsiflash. Mavhum sistemaning aniq sistemadan farqli xususiyatlari. Sistemaning noto‘liqligi, nomukammalligi. Sistemada barqarorlikning shartliligi va o‘zgaruvchanlikning subyektiv va obyektiv omillari. Sistemaning ochiq/yopiqligi tushunchasining nisbiylici. Sistemaning faoliyatsizligi. Masalaning qo‘yilishi: Tinglovchi variantda keltirilgan topshiriqlarni bajarishi va natija olishi lozim.Ushbu amaliy ish davomida quyidagilarni bajarish lozim:Sistema bo‘yicha savol-javob. Mavhum sistema tabiatini bo‘yicha bahs.Mavhum sistemaning nomukammalligi bo‘yicha debat.Sistemada barqarorlikning shartliligi muhokamasi.Sistemaning ochiq/yopiqligini tavsiflash.

**2-mashg‘ulot: O‘zbek an’anaviy va formal tilshunosligi talqinidan chetda qolgan muammolar.** Ishdan maqsad: O‘zbek amaliy tilshunosligi. Maqsadi, vazifalari, yo‘nalishlari. O‘zbek an’anaviy va formal tilshunosligi talqinidan chetda qolgan muammolarni tahlil qilish, o‘zbek amaliy tilshunosligining maqsadi, vazifalari, yo‘nalishlarini aniqlash va tahlilga tortish.Til taraqqiyotidagi til hodisalarining o‘zgaruvchanligi haqida ko‘nikma shakllantirish.Til taraqqiyotidagi tashqi omillar, jamiyat va til, tilning ekstralengvistik omillari, differensiya, integratsiya hodisalarini sharxlay olish, tillarning o‘zaro ta’siri, tillarning chatishuvi, til va jamiyatning o‘zaro mushtarak ekanligi haqida ko‘nikmalarga ega bo‘lish. Masalaning qo‘yilishi: Tinglovchi berilgan savollarga javob berishi va natija olishi

lozim.

Ushbu amaliy ish davomida quyidagilarni bajarish lozim:

- Til taraqqiyotining ichki qonuniyatlarini tavsiflash;
- Obyektivlik va takrorlanuvchanlik. Tejam. Pleonazm (ehtiyot, ta’kid) masalalari yuzasidan mashq;
- Lisoniy ramzda asimmetrik dualizm qonuni. Tilda atash va ifodalash ziddiyati qonuni. O‘xshatish (analogiya) qonunini sharhlab tushuntirish;
- Barqarorlik va erkinlik (yuklanganlik va saltlik) qonuni;
- Jamiyat tushunchasi masalalarini tavsiflash;
- Til va jamiyat. Til – ijtimoiy hodisa sifatida. Til va madaniyatning o‘zaro uyg‘unlikda rivojlanishi. Til va tarixiy muhit. Milliy mafkura va milliy til. Milliy tilshunoslik va til ta’limi munosabati haqida fikrlarni muhokama qilish.

**3-mashg‘ulot: O‘zbek tili va sun’iy intellekt. O‘zbek tilini modellashtirish muammolari.** Ishdan maqsad: Ona tili ta’limi mazmuni o‘zbek amaliy tilshunosligi obyekti sifatida. O‘zbek tili va sun’iy intellekt masalalariga e’tibor, o‘zbek tilini modellashtirish muammolari yechimlari va tahlili, ona tili ta’limi mazmuni o‘zbek amaliy tilshunosligi obyekti ekanligining amaliy natijalarini ko‘ra bilish, tilning serqirraligi uning ko‘p qirraligi va ko‘p vazifaliligi masalalarini tahlil qila olish va ushbu masalalar yuzasidan mustaqil ilmiy xulosa qila olish. Masalaning qo‘yilishi: Tinglovchi variantda keltirilgan topshiriqlarni bajarishi va natija olishi lozim.Ushbu amaliy ish davomida quyidagilarni bajarish lozim:

- Borliq hodisalarining serqirra va ko‘p vazifaliligi masalasi bo‘yicha savol-javob;
- Xususiyat va vazifaning dialektik yaxlitligi bo‘yicha mashq;
- Serqirralik va imkoniyat tushunchalari munosabati masalasi yuzasidan debat ;
- Tilning serqirraligi va tilshunoslik bosqichlari hamda yo‘nalishlarini tavsiflash.

**4-mashg‘ulot: Ta’limda lison, shaxs, nutq munosabati.** Ishdan maqsad: Ta’limda grammatick minimum va maksimum.Tilning ijtimoiy hodisalardan farqlash, til va tafakkur munosabati sharhlash, tilning biologik, irqiy, sinfiy hodisa

emasligi haqida ko‘nikmalariga ega bo‘lish.Masalaning qo‘yilishi: Tinglovchi berilgan savollarga javob berishi va natija olishi lozim.Ushbu amaliy ish davomida quyidagilarni bajarish lozim:

Til va tafakkur munosabati masalasi bo‘yicha munozara. Til va tafakkur dialektikasiga milliy yondashuv asoslari muammosi bo‘yicha mashq. Alisher Navoiy qarashlarida til va tafakkur munosabati masalasi bo‘yicha debat. Konsept, tushuncha, so‘z. Hukm va gap tushunchalarining yoritishini tavsiflash.

### **O‘QITISH SHAKLLARI**

Ushbu modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalilanildi:

- masofadan o‘qitish;
- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ta’lim texnologiyalarini anglab olish, nazariy bilimlarni amaliyatga qo‘llash);
- suhbatlar orqali tinglovchida muayyan muammoga munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirish, unda adabiy ta’limga doir masalani eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish xususiyatini qaror topdirish;
- tinglovchilarni bahs-munozaralar paytida muammolar echimi bo‘yicha dalil va asosli argumentlar taqdim qilishga, o‘z fikrini asoslashga o‘rgatish;
- yangicha yondashuv metodlari ustida izlanishlar olib borish;
- aniq bir badiiy asar talqiniga olingan nazariy bilimlarni tatbiq etish.

## **II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI**



## “SWOT-tahlil” metodi

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

<b>S (strength)</b>	- kuchli tomonlari
<b>W (weakness)</b>	- zaif, kuchsiz tomonlari
<b>O (opportunity)</b>	- imkoniyatlari
<b>T (threat)</b>	- to‘siqlar

**Namuna:** Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlil imkoniyatlarini jadvalga tushiring.

<b>S</b>	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlilning kuchli tomonlari.	Maksimal aniqlik bilan har tomonlama xolis xulosa chiqarishi.
<b>W</b>	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlilning kuchsiz tomonlari.	Badiiy matndagi tuyg‘ular tahlilini to‘la amalga oshirib bo‘lmaydi.
<b>O</b>	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlil (ichki) imkoniyatlari.	Shakl va mundarijaning har bir komponentlarini jiddiy mikrotahlildan o‘tkaziladi.
<b>T</b>	To‘siqlar (tashqi).	Struktural poetika bo‘yicha tinglovchilarning nazariy bilimlari yetishmasligi.

## “Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### ***Metodni amalga oshirish tartibi:***



**trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;**



**trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi;**



**har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini yozma bayon qiladi;**



**navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi.**

Badiiy tahlil tizimlari					
Germenevtik tahlil (talqin)		Struktural (tarkibiy) tahlil		Lisoniy tahlil	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
<b>Xulosa:</b>					

### “Keys-studi” metodi

“Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

### “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish.	<ul style="list-style-type: none"> <li>– yakka tartibdagи audiovizual harakat;</li> <li>– keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>– axborotni umumlashtirish;</li> <li>– axborot tahlili;</li> <li>– muammolarni aniqlash.</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni	<ul style="list-style-type: none"> <li>– individual va guruhda ishslash;</li> </ul>

aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash.	<ul style="list-style-type: none"> <li>– muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>– asosiy muammoli vaziyatni belgilash.</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish.	<ul style="list-style-type: none"> <li>– individual va guruhda ishlash;</li> <li>– muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>– har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>– muqobil yechimlarni tanlash.</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>– yakka va guruhda ishlash;</li> <li>– muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>– ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>– yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish.</li> </ul>

**Keys. Kichikroq badiiy (she'riy) matnni tahlil qilish uchun** ko'rsatkich ishlab chiqiladi, mazkur metodning ijobiy va salbiy tomonlari qiyoslanadi va xulosa chiqariladi.

### ***Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:***

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

### **“FSMU” metodi**

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiyl fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsya etiladi.

### Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

F	- <b>fikringizni bayon eting</b>
S	- <b>fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating</b>
M	- <b>ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring</b>
U	- <b>fikringizni umumlashtiring</b>

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

**Namuna:Fikr:** “Struktural tahlil asosida mavjud matnni mantiqan qismlarga ajratish va uni yig‘ish yotadi”.

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

### “Assesment” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:** “Assesment” lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda

esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘sishimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

**Namuna:** Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



#### “Struktura” deganda nimani tushunasiz?

- A. Yunoncha so‘z bo‘lib, tarkib ma’nosini anglatadi.
- B. Inglizcha so‘z bo‘lib, tahlil ma’nosini anglatadi.
- C. Yunoncha so‘z bo‘lib, talqin degan ma’noni anglatadi.
- D. Lotincha so‘z bo‘lib, badiiy asar matnini anglatadi



#### “Struktural tahlil” qanday tahlil turi?

- A. “Struktural tahlil” badiiy tahlil turi.
- B. “Struktural tahlil” ilmiy tahlil turi.
- C. “Struktural tahlil” tanqidiy tahlil turi.
- D. “Struktural tahlil” badiiy asarni tarkilash orqali tahlil qilishdir.



#### “Struktural metod”ning lug‘aviy ma’nosini bilasizmi?

- A. “Struktura – tarkib”, “metod – fan yo‘nalishi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi.
- B. “Struktura - tarkib”, “metod – ijod turi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi
- C. “Struktura – tahlil”, “metod – fan yo‘nalishi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi.
- D. “Struktura - talqin”, “metod – ilmiy izlanish” kabi lug‘aviy ma`no beradi.



#### Badiiy matn ilmiy matndan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?

- A. Badiiy matn obraz yaratish orqali shakllantiriladi, ilmiy matnda tushuncha va atamalar asosida fikr yuritiladi.
- B. Badiiy matn roman va hikoyalar matni, ilmiy matn esa dissertatsiyadir.
- C. Badiiy matn ijodiy tasavvur orqali yaratiladi, ilmiy matn ilmiy tafakkur asosiga quriladi.
- D. Badiiy matn vazn va qofiyaga asoslanadi, ilmimatnda vazn va qofiya bo‘lmaydi.

### “Tushunchalar tahlili” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;

- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘gri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqlaslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”.

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘srimcha ma’lumot
Badiiy matn	Nobadiiy matndan hissiy-impressiv va nutqning bo‘yoq dorligi va obrazli tafakkur bilan farq qiladi.	
Struktura	Tarkib. Badiiy matn tarkibi (qurilishi), uning qismlarga ajratib tahlil qilish.	
Badiiy timsol (obraz)	Aniq va shu bilan birga umumlashtirish xarakteriga ega bo‘lgan badiiy manzara yoki siymo yaratish.	
Adabiy tur	Matnni ifoda xususiyatiga ko‘ra farqlash.	
Adabiy janr	O‘z ifoda shakliga, vazn birliklariga va qofiyalanish tizimiga ega bo‘lgan mustaqil shakliy ifodalanish.	
Ritm, Ritmika	Bir maromda takrorlanib turuvchi nutqiy harakat va uni o‘rganuvchi soha.	
Uslub	Muallif ijodining yoki badiiy matnning bektakror o‘ziga xosligi.	

**Izoh:** Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘srimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.


## “Venn diagrammasi” metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiyligi va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiyligi jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

### **Ifoda shakllari bo‘yicha (she’riy va nasriy nutq).**



## “Blits-o‘yin” metodi

**Metodning maqsadi:** tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalahtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

### **Metodni amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan

topshiriq, ya'ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. Shundan so'ng, ishtirokchilarga to'g'ri javoblar tarqatmadagi "yakka baho" kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarini "guruh bahosi" bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlар o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-ketligi trener-o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi, va o'quvchilardan bu javoblarni "to'g'ri javob" bo'limiga yozish so'raladi.

4. "To'g'ri javob" bo'limida berilgan raqamlardan "yakka baho" bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo'lsa "0", mos kelsa "1" ball qo'yish so'raladi. Shundan so'ng "yakka xato" bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda "to'g'ri javob" va "guruh bahosi" o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar "guruh xatosi" bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.


6. Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

### **Struktural tahvil ketma–ketligini aniqlash. O'zingizni tekshirib ko'ring!**


<b>Harakatlar mazmuni</b>	<b>Yakka baho</b>	<b>Yakka xato</b>	<b>To'g'ri javob</b>	<b>Guruh bahosi</b>	<b>Guruh xatosi</b>
Matnning tashqi strukturasi					
Matnning ichki qurilishi					
Matnni o'z yozuvida o'qish tajribasi					

Matnni o‘z tilida o‘qib tushunish (lug‘at va izoh)				
Matn qismlarining dastlabki talqini				
Qismlarga ajratilib tahlil qilingan matnning mantiqiy butunligi				



Grafik organayzer talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yich yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Uni qo‘llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

- 
- 1 • Talabalar ikki guruhga bo‘linadi
  - 2 • Yozuv taxtasiga topshiriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi
  - 3 • Har bir guruhga o‘zlashtirilayotgan mavzu (bo‘lim, bob) yuzasidan alohida topshiriq beriladi
  - 4 • Topshiriqlar bajarilgach, guruh a'zolari orasidan liderlar tanlanadi
  - 5 • Liderlar guruh a'zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, yozuv taxtasida aks etgan diagrammani to‘ldiradi

### III. NAZARIY MASHG’ULOT MAZMUNI



**1-MAVZU:**

**O‘ZBEK TILIDAN AMALIY FOYDALANISHNING  
ZARURIY MASALALARI, YO‘NALISHLARI,  
METODOLOGIYASI VA NATIJALARI**

**REJA:**

- 1. Insoniy faoliyat strukturasi*
- 2. Metodologiya – lingvistik faoliyat asosi*
- 3. Formal mantiq metodologiyasi*
- 4. Dialektik metodologiya*

**Tayanch so‘z va iboralar:** *empirik metodologiya, bilish bosqichi, fahmiy bilim, idrokiy bilim, tadqiq manbaiga yondashish, nominalistik va dialektik usul, tadqiqotchi nuqtai nazari, materialistik va idealistik dunyoqarash.*

**Insoniy faoliyat strukturasi.** O‘zbek tilshunosligining nazariy bosqichlari, yutuqlari, muammolari va ularning yechimiga doir tavsiyalarda **metodologiya** yunoncha metodos - "**tadqiqot**", "**o‘rganish**" va logos - "**ta’limot**", "**so‘z**" kabi ikki so‘zdan tuzilgan bo‘lib, uning lug‘aviy ma’nosi "**metod haqida ta’limot**". Shuning uchun, odatda, lug‘atlarda **metodologiya** tushunchasi "*ilmiy tadqiq metodlari haqida ta’limot, ma’lum bir fanda qo‘llaniladigan metodlar majmuasi*"<sup>1</sup> sifatida tushuniladi. Lekin **metodologiya, ilmiy tadqiq metodologiyasi** deganda, hozirgi kunda, ma’lum bir fanda qo‘llaniladigan xilma-xil metodlar, tahlil usulari haqidagi ta’limot emas, balki **tadqiqotchining tadqiq manbaini qanday tushunishi va unga qanday yondashishi, tadqiqotdan qanday maqsadni ko‘zlashi**, boshqacha qilib aytganda, **tadqiqotchining dunyoqarashi** nazarda tutiladi.

Metodologiya, jumladan, tilshunoslik tadqiqotilarini metodologiyasi falsafaning tarkibiy qismi bo‘lib, fanning gnoseologiya (bilish nazariyasi) bo‘limi bilan uzviy

<sup>1</sup>Кар.: Словарь иностранных слов. -М.: Изд. СЭ. 1967. -С. 403; Философический словарь. -М.: Изд. ПЛ, 1968. -С. 215.

aloqador. Shuning uchun metodologiya deganda tadqiqotchida kamida uch omilning mujassamlanishi va uning ilmiy tadqiq mahsulida namoyon bo‘lishi tushuniladi. Bular:

*Birinchidan*, tadqiqotchining o‘z tadqiq manbai haqida qay turdag'i bilimlarni hosil qilishga intilishi, bilishning qaysi turi bilan shug‘ulanishi. Ma’lumki, falsafada narsa/o‘rganish ob’ekti haqida tadqiqotchi ikki turdag'i bilimlar hosil qilishi mumkin:

- a) fahmiy (hissiy, empirik) bilimlar;
- b) idrokiy (aqliy, mantiqiy, nazariy, teoretik) bilimlar.

Har bir turdag'i bilimni hosil qilish yo‘l, vosita va usullari ham, maqsadlari ham boshqa-boshqa.

*Ikkinchidan*, tadqiqotchining tadqiq manbai/narsaga qanday usul bilan yondashishi. Falsafada narsaga yondashishning ikki usuli bor. Ular:

- a) nominalistik yondashish;
- b) dialektik yondashish.

Nominalistik yondashishning ham, dialektik yondashishning ham (narsani nominalistik yoki dialektik tushunish va talqin etishning) o‘z tamoyillari bor. Tadqiqotchi ilmiy tadqiq jarayonida shu tamoyillarga tayanib tadqiqot olib boradi.

*Uchinchidan*, tadqiqotchining materialistik yoki idealistik (ruhoniy) nuqtai nazarda turishi va shu nuqtai nazardan turib ilmiy tadqiqni olib borishi.

Tadqiqotchi dunyoqarashi, tadqiqotchining metodologiyasi deganda tadqiqot va tadqiqotchida mana shu omillardan qay birlariga tayanib ish ko‘rishi nazarda tutiladi. Shunga ko‘ra metodologiya:

- 1) empirik-nominalistik-materialistik;
- 2) empirik - nominalistik –idealistik;
- 3) empirik -dialektik-materialistik;
- 4) empirik -dialektik-idealistik;
- 5) idrokiy-nominalistik-idealistik;
- 6) idrokiy - nominalistik –materialistik;
- 7) idrokiy -dialektik-idealistik;
- 8) idrokiy -dialektik-materialistik

kabi 8 umumiy ko'rinishda bo'lishi mumkin. Bular sof mantiqiy-riyoziy turlar. Haqiqatda esa, ular behad ko'p.

Har bir ilmiy tadqiqot ham o'ziga xos metodologik asoslarda quriladi. Tadqiqotchilar va ularning metodologik asoslari qancha rang-barang bo'lmasin, u metodologik asoslar baribir, ongli/ongsiz ravishda shu uch omilning u yoki bu turiga, ularning u yoki bu darajada birikuviga borib taqaladi. Buni ko'l yoki dengizdan turli tomonlarga chiqarilgan kanallar yoki hovuzdan turli odamlarning turli tomonlarga suv olib ketishi bilan qiyoslasa bo'ladi. Bu odamlar suvni bir manbadan olishadi, shuning uchun idishlari, yo'llari har xil bo'lishiga qaramay, suvlarning tarkibi va manbasi bir.

Demak, ilmiy tadqiqot boshlamoqchi bo'lgan har bir kishi metodologiyaning

- a) bilim turi / bilish bosqichi;
- b) tadqiq manbaiga yondashishi;
- v) nuqtai nazari;

binar (ikki turli) ko'rinishlarining har birining eng asosiy tamoyillari (mezonlari, o'lchov birliklari) bilan tanishishi zarur, zeroki, tadqiqotchi mana shu tamoyillar bilan narsani (o'rganish manbai va uning xususiyatlarini) o'lchaydi, baholaydi, tavsiflaydi. Shuning uchun bu bo'limning navbatdagi ma'ruzalari mana shu tamoyillar tavsifiga bag'ishlanadi. Lekin bu ishga kirishishdan oldin bir masala ustida alohida to'xtalishimiz lozim. U ham bo'lsa, tadqiqotchining metodologiyaga munosabati masalasi. Zero, juda ko'p hollarda tadqiqotchi uqilgan, izchillik bilan tatbiq etiladigan, ongli metodologik asosga ega emas va ko'r-ko'rona ish tutadi. Ba'zi hollarda, hatto, metodologiyani rad etadi. Ularning fikricha, metodologiya, metodologik asoslar tadqiqotchiga o'z tadqiq manbaini u borliqda qanday bo'lsa, shunday tavsiflashga, uni ob'ektiv baholashga xalaqit beradi. Shuning uchun tadqiqotchida narsada nimalarni va qanday ko'rish haqida hech qanday g'oya va ko'rsatmalar bo'lmasligi lozim. Agar shunday g'oya va ko'rsatmalar bo'lsa, tadqiqot haqqoniy, ob'ektiv bo'lmaydi. Metodologiyaga bunday salbiy (to'la rad etuvchi) munosabat oldinlar ham bor edi, hozir ham mavjud. Bu haqda: 1. Философия. Наука. Методология. -М.:Наука. 1972. 2. И.В.Копнин. Диалектика как логика и теория познания. -М.:Наука. 1978. 3. Б.М.Кедров. Единство

диалектики, логики и теории познания. -М.:1963. 4.Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. -Т.:Фан. 1997. 5.Иванов С.Н. Родословное древно-тюрок Абул-Гази-Хана. Грамматический очерк. -Т.:Фан. 1969. 6. Диалектика-теория познания. Под общей редакцией Б.М.Кедрова. И книга. Проблемы научного метода. –Наука. 1964. 7. Диалектика и логика. Законы мышления. -М.:Наука. 1962. 8.Диалектика и логика. Формы мышления. -М.:Наука. 1962 . Kabi tadqiqotlardan mukammal ma’lumot olishingiz mumkin. Falsafa bo‘yicha nashr ətilgan istagan darslikda tadqiqotchining metodologiyani to‘liq rad etishi qattiq qoralanadi. Rad etishlar islom mafkurasi sharoitida tasavvuf namoyandalari qarashlarida ham uchraydi. Masalan, hazrat Navoiy “Lisonut tayr” masnaviysining bir o‘rnida

*“Kufru iymon rohravg‘a kesh emas,  
Asl yo‘lda bandi rohi besh emas”*

(Lisonut-tayr, 191-bet)

(Mazmuni: kufr yoki iymon bu yo‘lga kirgan kishi uchun maslak emas. Bular asl yo‘ldagi to‘siqdan boshqa narsa emasdir), desa, yana bir o‘rinda

*“Chun suluk ichra ko‘p erdi ixtilof,  
Ko‘pragi durd erdi, lekin ozi sof.*

*Kim ravishda sofi erdi mashrabi,  
Bor edi ul tobe ‘i shar‘i nabi”*

(Lisonut-tayr, 201-bet)

(Mazmuni: Suluk (yo‘l) chira ixtilof ko‘p bo‘lib, ulardan ko‘pi quyqali, sofi esa oz. Bu sof tabiat egalari sirasiga payg‘ambar shariati qonun-qoidalariga tobe bo‘lganlar kiradi) deb, islomni boshqa dinlardan ustun qo‘yadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, faylasuflar metodologiyani to‘la-to‘kis rad etuvchilarni umuman tadqiqotchi deb sanamaydilar, chunki metodologiyasiz tadqiqotchi va tadqiqot bo‘lolmaydi. Shuning uchun ular o‘z metodologiyasining mohiyatini uqmagan tadqiqotchining qayoqqa borayotganligini bilmagan yo‘lovchiga o‘xshatib, uni johil, ongsiz taqlidchi va ergashuvchi deb sanaydilar. Lekin metodologiyani ongli ravishda rad etuvchi olimlarni (jumladan, tilshunoslarni

ham) johil va nodon deb sanash insofdan emas. Zeroki, metodologiya, juda ko‘p hollarda, narsada unda bo‘lmagan xususiyatlarni "qidirib topish"ga, uni noto‘g‘ri talqin va tavsif qilishga, zo‘rma-zo‘rakilik bilan unda yo‘q xislatlarni unga nisbat berish va haqqoniyligini buzishga olib kelishi mumkin. Bu, asosan, metodologik tamoyillarga ongsizlarcha yondashish, bu tamoyillarni mutlaqlashtirish (fetishizm), o‘zaro bog‘langan tomonlarni bir-biridan uzish, ma’lum bir dunyoqarash yoki fikrni zo‘rlab "asoslash" va o‘tkazishga intilish kabi hollarda bo‘ladi. Tarixda bunga juda ko‘p misollar mavjud. Chunonchi, Yevropada XIV-XVIII asrlarda nasroniy (xristian) inkvizitsiyasi hukmronligi davrida metodologik asos tamoyillari vazifasini Tavrot va Injilda (Bibliyada) bayon qilingan fikr va ma’lumotlar tashkil qilar edi. Shuning uchun, masalan, Quyoshning Yer atrofida aylanishini "isbotlovchi" tadqiqotlar qo‘llab-quvvatlanar (chunki Tavrotda shunday talqin etiladi), aks fikrni isbotlovchi ishlar shakkoklik va kufr deb sanalar edi. Shuning uchun Jordano Bruno, Galileo Galiley kabi yuzlab siymolar jazolangan, xo‘rlangan, ta’qib etilgan.

Shunday holat Sharqda ham (jumladan, O‘zbekistonda ham) XV-XIX (hatto XX asr boshlarigacha) asrlarda islomiy teokratik davlatlarning mustabit hukmronligi davlatlarida sodir bo‘ldi. Qur’oniy dunyoqarash (metodologiya) ning mustabidlashishi (mutlaqlashtirilishi) IX-XIV va, hatto, XVI asrgacha gullab yashnagan ilmiy-ishlab chiqarish taraqqiyotini tamoman so‘ndirdi, taraqqiyotni bo‘g‘di, xalq, davlat, fan, madaniyatni XIV-XV asr bosqichida zo‘rlik bilan tutib keldi.

Shunga o‘xshash holat sobiq Sho‘roda 30-80 yillarda nazariya va sotsialistik rejorashtirish metodologiyasini mutlaqlashtirish natijasida ro‘y berdi. Iqtisodiyot qonunlari zo‘rlab buzildi, bozor va tovar ishlab chiqarishning haqqoniyligini o‘rnini sun’iy qonunlar egalladi, milliy qadriyatlar toptaldi. Natijada, iqtisodiyot, madaniyat va ma’naviyat izdan chiqdi. Mana, 20 yildan ko‘proq vaqt o‘tdiki, MDHning 300 mln. dan ortiq aholisi zo‘rlik bilan o‘tkazilgan metodologik tamoyillar asoratlarini tugatish, bozor, tovar ishlab chiqarish qonuniyatlarini, ma’naviyat va qadriyatlarini tiklash azobini tortib kelmoqda.

30-50-yillarda sho‘ro tilshunosligi marksistik tilshunoslik deb yangi nom olgan ta’limot- N.E.Marr ta’limoti metodologik tamoyillari iskanjasida qoldi.

Tarixiy, qiyosiy va sistemaviy tilshunoslikning barcha yo'nalishlari namoyondalari quvg'inga uchradi. Jahonning 1/6 qismini egallagan ulkan davlatda tilshunoslikning fan sifatida yo'qolishiga, uning o'rnnini xayoliy uydirmalar egallahiga sal qoldi<sup>2</sup>.

Falsafiy adabiyotlarda **fahm**, **fahmiy** tushunchasi juda ko'p hollarda turlituman atamalar bilan beriladi. Chunonchi, **empirik**, **sensual**, **empiriokritik**, **praktik**, **eksperimental** kabi baynalminal, **chustvennoe**, **опытное**, **vneshnoe** kabi ruscha, **hissiy**, **fahmiy**, **zohiri**, **tashqi**, **tajribaviy** kabi o'zbekcha atamalar shular jumlasidan. O'zbek va rus tillaridagi ilmiy (xoh falsafiy, xoh lingvistik) adabiyotlarda baynalminal atamalar ham keng va erkin qo'llaniladi. Bu atamalarning barchasi bir turdag'i bilish va uning mahsuli – bilimni ifodalaydi. Atamalarning har biri fahmiy o'rganishning ma'lum bir qirrasiga alohida e'tibor beradi. (Chunonchi, biz ayni bir shaxsni «Karim akaning o'g'li» deb ham, «Rahimjonning akasi» deb ham atay olganimizdek. Shuning uchun bu atamalar lingvistik sinonim, aniqrog'i, dubletlar deb qaralishi lozim.) O'quv monografiyada **fahm**, **fahmiy** atamasidan ko'proq foydalaniladi. Buning sababi shundaki, mumtoz adib va oriflarimiz (jumladan, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Fariduddin Attor va b.) tasavvufda (islomiy dialektik falsafada) bilish va bilimning ikki turini:

- a) *fahm va fahmiy*;
- b) *idrok va idrokiy* kabi

maxsus atamalar bilan nomlaydilar.

Chunonchi, Alisher Navoiy «Lisonut-tayr» ning birinchi bo'limida yozadi:

*Aylagach doir to 'quz aflokni,  
Qosir etdi fahmidin idrokni.*

(Mazmuni: *U to 'qqiz falakni aylanuvchi qilib yaratdi va fahm sababli uni idrok qilishni qusurli, kamchilikli qildi, ya'ni hodisalarни idrokiy bilish uchun fahmiy bilish to 'siq bo 'ldi*).

Shuning uchun bu atamalardan kengroq foydalaniladi, vaholanki, amalda bo'lgan falsafiy adabiyotlarda (jumladan, J.Tulenov, Z.G'afurov. Falsafa. –

<sup>2</sup>Marrchilarning talqinlaridan bir misol: o'zbekcha *qishloq*, o'tloq so'zlaridagi -*loq* qo'shimchasi tarixan yunoncha "joy, o'rin" ma'noli *lok* so'zi bilan aynan emish. Bu "nazariya" haqida qarang: Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. -T.:O'qituvchi, 1972. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. -T.:Sharq, 2002.

T.:O‘qituvchi. 1991. B.263-270), o‘quv qo‘llanmalarida **fahmiy** atamasi ma’nosida rus tilidan kalkalashtirilgan *hissiy* atamasi qo‘llanilgan. Mumtoz mutafakkirlar ishlatgan atamani qo‘llash qadriyatlarga hurmat va e’tibor ramzi.

Fahmiy bilish va fahmiy bilimlarning umumiy mohiyati o‘zbek fanida falsafa bo‘yicha yuqorida eslatilgan o‘quv qo‘llanmalarida, shuningdek, 1.Манилов А, Хасанов М. Описание и объяснение. -Т.: Узбекистан. 1969. 2. Методологические проблемы науки. -М.: Наука. 1982. 3.Ойзерман Т.И. Эмпирическое и теоретическое: различие, противоположность, единство // Вопросы философии. 1985, -№4. 49-61-б. va tilshunoslik bo‘yicha fahmiy bilish va uning natijalari mohiyati 1. Иванов С. Родословное древо тюрок. Грамматический очерк. -Т.:Fan. 1969. 2. Bozorov O. O‘zbek tilida darajalanish. -T. :Fan. 1995. 3.Ne’matov H, Bozorov O. Til va nutq. -T. : O‘qituvchi. 1993. 4.

Солнсев В. М. Язык как системно-структурное образование. -М.: IVL, 1970. , 1972. 5. Jabborov N, Ne’matov H. Nazariy bilim metodologiyasi // O‘qituvchilar gazetasi, 1989, 1-сон, 2 yanvar. kabi tadqiqotlarda izohlangan.

### **Metodologiya – lingvistik faoliyat asosi.**

Tadqiq manbai bo‘yicha fahmiy bilimlar insonning sezgi organlari vositasida hosil qilinadi. Unli va undoshlarning artikulyatsion va fiziologik xususiyatlari (qaerda va qanday usullar bilan hosil bo‘lishi, tovushlarning cho‘ziq-qisqaligi, kuchsiz-kuchliligi, jarangli-jarangsizligi, aniq-noaniqligi, tovushlarning bir-biriga ta’siri asosida o‘zgarishlari, urg‘u, ohangning xususiyatlari, gap va matnning fonetik bo‘linishi va h.), so‘z va qo‘sishchalarining konkret (muayyan, nutqiy) ma’nolari, so‘z birikmalari va gaplarning konkret ma’nolari, nutqning u yoki bu turi va uslubning muayyan o‘ziga xosliklari, alohida yozma yodgorliklarning tanqidiy-tahliliy nashrlari, asosan, fahmiy bilish usulida hosil qilingan bilimlar mahsuli. Bundan tashqari:

- yozma yodgorliklar, lahja va shevalarda tovushlar, qo‘sishchalar, so‘zlar, so‘z birikmalari, gaplarning qo‘llanilishidagi o‘ziga xosliklarni qayd etish va tavsiflash;
- nutqiy hodisalarini, voqelanishlarni to‘plash, saralash, turli guruhlarga ajratish va birlashtirish, sistemalashtirish;

- turli-tuman: izohli, ko‘p tilli lug‘atlar tuzish;
- adabiy til me’yorlarini o‘z ichiga olgan mukammal grammatikalar yaratish;
- til birliklarining qo‘llanilish me’yorlarini belgilovchi tavsif va tavsiyalarni ishlab chiqish kabi juda ko‘p turli lingvistik tadqiq va izlanishlar ham fahmiy bilish mahsuli.

Ma’lumki, insonning sezgi organlari juda ojiz. Shuning uchun u o‘z sezgi organlarini xilma-xil asbob-uskunalar (mikroskop, teleskop, rentgenograf, otsillograf, spektroskop, sinxronoskop, sinxofizotrop, sinxosiklotrop, usilitel, EHM v. h.) vositasida kuchaytiradi, fahmiy bilish qudratini oshirib, uni tobora aniqlashtiradi. Xilma-xil hisoblagichlar vositasida hodisalarning qo‘llanilish chastotasini muayyanlashtiradi, ularni qayd qiladi. Fahmiy usul bilan tilshunos til birliklarining tashqi (ochiq, zohiriyl) belgi-xususiyatlari haqida bilim hosil qiladi. Bunday bilimlar hosil qilishda nutqda voqelangan, bevosita kuzatishda berilgan nutqiy birliklar (tovush, bo‘g‘in, qo‘srimcha, so‘z, so‘z birikmasi, gap, matn) alohida-alohida olinib, tashqi - fizik belgilari aniqlanadi va tavsiflanib, sistemalashtiriladi.

Fahmiy bilish, asosan, nutq birliklarini yakkalik, hodisa, voqeа va oqibat (qisq. YaHVO) sifatida tahlil va tavsif etgani sababli bunday tadqiq usuli fanda *atomistik* tahlil deb ham yuritiladi.

Fahmiy bilimlar istagan fanda, jumladan, tilshunoslikda beqiyos ahamiyatga ega. Ular barcha turdagи nazariy ishlar uchun zamin, moddiy asos. Shuning uchun XX asr sistem-struktur tilshunoslik asoschilaridan biri (qar. Akta lingvistika. Valum i. Facs. Ch. I. Kopengagen. 1932<sup>3</sup>) I.A.Boduen de Kurtene tilshunoslikni:

- I. tavsiflovchi (описательное);
- II. moslashtiruvchi (резонирующее);
- III. haqiqiy ilmiy (подлинно научное)

sifatida uchgа ajratib, fahmiy - til birliklarini haqida zaruriy moddiy ma’lumotlarni beruvchi tavsifiy tilshunoslik haqida shunday yozadi:

---

<sup>3</sup>Daniyalik tilshunos V. Brendal (1887-1942) shunday yozadi: «эта новая лингвистическая концепция, которой мы обязаны не только Соссюру, но и другим ученым, среди которых почетное место занимает Бодуэн де Куртенэ, обнаруживает значительное и очевидное преимущество (курсив бизники - X.Н., Б.М.)» (Звегинцев В.А. История языкознания XIX-XX вв. в очерках и извлечениях. Часть II. -М., 1965. -С. 97.)

“Tom ma'noda empirik bo'lgan *tavsify yo'nalish* mutlaqo zohiriy dalillarni to'plash va umumlashtirish bilan band bo'lib, ular orasidagi sababiy bog'lanishlarni, genetik va qarindoshlik aloqalarini tushuntirib berishni maqsad qilib qo'yaydi. Bu yo'nalish tarafdlari faniy zakovat deganda tasviriy grammatikalar yaratish, lug'atlar tartib berish, yodgorliklarni nashr etish kabilarni tushunadilar. Lingvistik ma'lumotlarni aynan, hech qanday xulosalarsiz beradilar. Xulosalarni berishni hali barvaqt yoki uni katta jur'at talab qiluvchi ish deb biladilar.

Bu, bir tomondan, ular aqlining o'ta tanqidiy ruhliligi va ishonmovchiligidan, aniqrog'i, haqiqiy fanni inkor qilish va vaqt kelgach, asossiz bo'lib qolishidan cho'chib, xulosa va gipotezalar berishda xato qilib qo'yishdan tiyilishdan, boshqa tomondan, aqliy yalqovlik, material to'plash maqsadi va foydasi haqida o'z-o'ziga vijdonan hisob berishdan qochish, fanni quyi, empirik mashg'ulotlar darajasida, qandaydir maqsadsiz o'yinchoq sifatida tutib turish istagi ustuvorligidan kelib chiqadi. Bunday tadqiqotchilar dalillarni tushuntirib berishni *ad acta, ad meliora tempora* (bo'lg'usi qulay vaqtlar) ga qoldiradilar. Lekin uning ibtidoiy, sof zohiriy tushuntirishdan iborat bo'lgan pirovard maqsadi (balki, umuman, foydalidir,) bevosita o'zi uchun, fan uchun sariq chaqaga ham arzimasligini, faqat boshqa olimlar uchun halol vijdon ila ishonchli materiallar to'plab berayotganligini unutib qo'yadilar. Biroq fan sari ilk qadam, tayyorgarlik sifatida tasviriy operasiyalar juda muhim, buning ustiga, fan uchun birinchi shart aniq va halol kuzatish bo'lib, u mukammal holda ayrim kishilargagina xos. Zero, hamma qaraydi, lekin har kim ham ko'ravermaydi. Yaxshi tasviriy grammatikalar yozish, yodgorliklar nashr etish va lug'atlar tuzish har doim ham fanning birinchi ehtiyoji bo'lib qolaveradi, chunki ularsiz hatto ulkan nazariyalar ham asossiz deb baholanadi.”<sup>4</sup>

Tilshunoslikda fahmiy bilimlar majmulariga hech kim I.A.Boduen do' Kurtenedan aniqroq baho bermagan va biz bu dahoning bahosini to'la-to'kis qabul qilish bilan cheklanamiz.

Falsafiy-metodologik adabiyotlarda narsani fahmiy o'rganish usullari *empirizm, nominalizm, sensualizm, atomizm, fenomenologizm* kabi atamalar bilan ham nomlanadi. Aytib o'tganimizdek, bu atamalar narsaning va tadqiq usulining

<sup>4</sup> Zveginsev V.A. Mazkur asar. 1-t. -M.: Uchpedgiz, 1964. -S. 264-265.

turli qirralariga ishora qilib turadi.

Ma’ruza yakunida shuni ta’kidlaymizki, barcha fanlarda bo‘lgani kabi o‘zbek tilshunosligida ham hozirgi kunda fahmiy bilimlar beradigan tadqiqotlar salmog‘i juda yuksak, lekin baribir hali ham yetarli emas va davr yangi-yangi tavsifiy ishlar uchun zaruriyatlar tug‘dirmoqda. Buning sabablari haqida navbatdagi ma’ruzalarimizda bahs boradi.

Falsafiy-metodologik adabiyotlarda narsani fahmiy o‘rganishga zid turgan bilish usuli **rasional, teoretik, kauzal, logik, sintetik, fenomenologik** kabi baynalminal, umozritelnoe, umstvennoe, obobshayushchoe kabi ruscha va **aqliy, idrokiy, mantiqiy, nazariy, ichki, botiniy** kabi o‘zbekcha atamalar bilan nomlanadi. Ruscha va o‘zbekcha adabiyotlarda baynalminal atamalarning barchasini uchratish mumkin. Biz oldingi ma’ruzalarimizda sharhlangan sabablarga ko‘ra, **idrokiy** atamasidan foydalanamiz. Eslatib o‘tilgan falsafa o‘quv qo‘llanmalarida bu o‘rinda **mantiqiy** va **aqliy** atamalari ishlatilgan.

Idrokiy bilim va uning mahsulining umumiyligi mohiyati oldingi ma’ruzalarimizda berilgan ilmiy-falsafiy va lingvistik-metodologik tadqiqotlarda sharhlangan. Shuning uchun biz tilshunoslik sohasidagi idrokiy bilimlarning xususiyatlari haqida bahs yuritamiz.

### **Formal mantiq metodologiyasi.**

Tilshunoslikda idrokiy bilimlar YaHVOlarni fahmiy o‘rganish asosida aniqlangan va tavsiflangan hodisalar rang-barangligining sabablari va qonuniyatlarini ochib beradi va tushuntiradi. Shuning uchun umumiylig, mohiyat, imkoniyat va sabab (UMIS) tabiatiga ega bo‘lgan idrokiy bilimlar fahmiy bilimlarga tayanadi va ular bilan asoslanadi.

Idrokiy bilimlar fahmiy usulda tavsiflangan YaHVOlarning xususiyatlarini aqliy(idrokiy) usul bilan umumlashtirish, o‘zaro aloqador YaHVOlar orasida bevosita kuzatishda berilmagan (Ya’ni, sezgi a’zolari bilan aniqlab bo‘lmaydigan) munosabatlarni ( o‘xshashlik va farqlarni, aynanlik va ziddiyatlarni), shakl va ma’no bog‘lanishlarini ochish, YaHVOlarni UMIS tabiatli sistemalar ichida ko‘rish usuli bilan hosil qilinadi. Idrokiy bilimlarni hosil qilishning hozirgacha yagona vositasi metodologiya va rang-barang umumlashtirish, munosabatlarni ochish va tavsiflash

metodlari bilan qurollanmagan inson miyasi (ongi) . Hech qanday asbob-uskuna, kuchaytirgich, "fikrolvchi mashina" bu turdag'i bilim hosil qila olmaydi - bunday vositalar inson ongi, miyasi uchun idrokiy bilim (qonuniyat, hukm, xulosa) ishlab chiqishga faqat aniqroq material berishi mumkin, xolos.

Idrokiy bilimlar fahmiy usul bilan aniqlangan, tavsiflangan va sistemalashtirilgan hodisalar rang-barangligining sabablarini olib beradi, deyildi. Bu quyida muayyan lingvistik misollar asosida ko'rib o'tiladi.

1. Butun dunyo tillarida assimilyatsiya (yonma-yon kelgan ikki tovushdan birining ikkinchisini o'ziga moslashtirishi) hodisasi keng tarqalgan. Buning sababi, tovushlarning artikulyatsiya o'rni va usuli xususiyatlari. Chunonchi, jarangsiz portlovchidan keyin bir havo oqimi bilan bir-biridan uzmay jarangli portlovchini talaffuz etib bo'lmaydi: Masalan, *ket* va *di* ni *ketdi* deb bo'g'lnarni bir-biridan uzmay talaffuz etish mumkin emas, shuning uchun u yo *keddi* (regressiv assimilyatsiya) yoki *ketti* (progressiv assimilyatsiya) talaffuziga ega bo'la oladi. Til o'z ichki xususiyatlari asosida u yoki bu ko'rinishni tanlaydi va uning ham sabablari bo'ladi.

2. Yana bir misol. O'zbek tilida so'z oxirida *[d]* va *[t]*, *[b]* va *[p]* tovushlari talaffuzi farqlanmaydi. Buning sababi shundaki, bu ikki juft tovush o'zaro privativ munosabatda turadi<sup>5</sup> va bu oppozitsiya so'z oxirida neytrallashadi. Shuning uchun faqat oxirgi *[b]*, *[d]* va *[p]*, *[t]* tovushlari bilan farqlanuvchi biror juft sof turkiy so'zni uchratish mumkin emas.<sup>6</sup> Lekin bu qonuniyat *[z]-[s]* uchun (shu vaqtgacha sun'iy va noto'g'ri talqin etib kelinganiga qaramay) xos emas. O'zbek tilida *[z]* so'z oxirida jaranglilagini zaiflashtiradi, lekin yo'qotmaydi. Chunki *[z]* va *[s]* fonemalari so'z oxirida ham ma'no farqlash vazifasini saqlab qoladi. Chunonchi, *qiz-qis; suz-sus* («jim tur» ma'nosidagi turkiy so'z); *kez-kes; iz-is; tiz-tis; oz-os; toz (kal)-tos* (dastlab, toshni o'yib yasalgan chuqur idish); *ko'z-ko's; o'z-o's;*

Shu sababli o'zbek tilida so'z oxirida *[b]* va *[p]*, *[d]* va *[t]* orasida farq yo'qoladi, chunki bu fonemalarda so'z oxirida ma'no farqlash xos emas. Lekin *[z]*

<sup>5</sup> Qar.: Abduazizov A. O'zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. -T.:O'qituvchi, 1989.

<sup>6</sup> sanad- sanat, bob- bop kabi juftliklardan bittasi (yoki ularning har ikkalasi) noturkiydir.

va [s] fonemalari orasidagi farq so‘z oxirida ham saqlanadi.

3. O‘zbek nutqida *gapishtiga qo‘rqdi* - *gapishtidan qo‘rqdi*; *nonga to‘ymadi* - *nondan to‘ymadi* kabi sinonimik qurilmalar anchagina. Bu yerda odatda, bir-biriga zid bo‘lgan (Qiyoslang: *maktabga keldi* - *maktabdan keldi*) –ga va –dan qo‘shimchalari bir xil ma’no va vazifalarda kelgan. Buning sababini o‘zbek tilida kelishik shakllarining paradigmatic munosabatlarigina tushuntira oladi.

Sh.Shahobiddinova<sup>7</sup>, Z.Qodirov<sup>8</sup> ko‘rsatganlaridek, o‘zbek tili kelishiklar paradigmasing bir bo‘g‘ini

[-da]

[-ga]/[-dan]

|

[-ni]

|

qurilishiga - oppozitsiyalar tizimiga ega va bunda **[ga]-[dan]** bir bo‘g‘inni egallaydi, ya’ni bir xil mohiyatga ega. Shuning uchun ayrim holatlarda ularning o‘zaro ma’no va vazifadoshligi tasodifiy emas, balki qonuniy.

I. XX asrning 30- yillaridan beri o‘zbek gapining minimal (eng kichik) qurilish qolipi “**ega+kesim**” sifatida talqin qilinib kelinar edi. Bunday qolip haqiqatan ham g‘arbiy Yevropa va, qisman, slavyan tillari uchun xos. Turkiy tillarda kesimning morfologik strukturasi g‘arbiy Yevropa va rus tillaridagidan tubdan farq qiladi. M.Abuzalova, S.Nazarova, M.Qurbanovalar aniqlashganidek, kesim tarkibida shaxs/son ma’nolarining hamisha ifodalanganligi<sup>9</sup> gap tarkibida eganing ifodalinishini ortiqcha yoki qo‘shimcha qiladi. Bu esa, rus (yoki nemis) tilidan farqli ravishda, o‘zbek gapida, xususan, og‘zaki nutqda eganing eksplitsit (moddiy ifodalangan) emasligi sababini ochib beradi. Bu sabab eganing o‘zida emas, balki kesimning morfologik tuzilishi xususiyatlarida yashiringan. Shuning uchun narsa haqidagi idrokiy bilim, fahmiy bilimlar kabi narsaning o‘zidan emas, aksincha, **o‘zga – shu narsa bilan munosabatlarda bo‘lgan narsalararo bog‘lanishlar chizmalaridan** hosil qilinadi. Shu bois idrokiy bilimlar hosil qilish jarayonida

<sup>7</sup>Qar.: Sh.Shahobiddinova. Umumiylit va xususiylik dialektikasi hamda uning o‘zbek tili morfologiyasida aks etishi. DDA. -T., 2001.

<sup>8</sup>Qar.: Qodirov Z. O‘zbek tili grammatik kategoriyalarini sistem tadqiq etish. (Kelishik kategoriysi). NDA. - Samarqand, 1993.

<sup>9</sup>Qurbanova M. Xozirgi zamon o‘zbek tili. Sodda gap sintaksisi uchun materiallar. -T.:Universitet, 2002. Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek tili. Morfologiya. -Buxoro:NS, 2003.

fahmiy bilimlar uchun beqiyos katta ahamiyatga ega bo'lgan narsaning zohiriyligi, tashqi, shakliy belgilari orqaga chekinadi, narsaning aloqadorliklari bilan munosabatlari sistemasi, shu bilan bog'liq ravishda uning mazmun va vazifa (funksiya) jihatlari hal qiluvchi omilga aylanadi.

Demak, fahmiy o'rganishda narsaning shakl, moddiylik, zohiriyligi farqli belgixususiyatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lsa, idrokiy tahlilda asosiy e'tibor mazmun, vazifa, munosabat tomonlariga ko'chiriladi. Narsaning zohiriyligi belgilari sezgi organlari uchun aniq bo'lganligi bois ular har narsaning, ochiq, **bevosita kuzatishda berilgan xususiyatlari - tomonlari** deb aytildi. Idrokiy o'rganish uchun asos bo'ladigan tomonlar - narsaning munosabatlar tizimi, butun ichida bo'lakning o'rni, qator oqibatlarni beruvchi sabablar - yopiq, **bevosita kuzatishda berilmagandir**, ular idrokiy tahlil asosida ochilishi mumkin. Bu usul bilan hosil qilinadigan bilimlarning aqliy, idrokiy yoki botiniy deb atalishiga ham sabab shu omil. Fahmiy (zohiriyligi) va idrokiy (botiniy) bilimlar narsaning (tadqiq manbayining) turli tomonlari asosida hosil qilinishi sababli ko'p hollarda zohiriyligi, bevosita kuzatishda berilgan belgilar narsaning mohiyatini ochib beruvchi idrokiy tahlil uchun to'siq bo'lishi mumkin<sup>10</sup>. Mutafakkir Shayx Aziziddin Nasafiy bu haqda shunday yozadi: "Mulk va uning sifatlari ehsos (his) etiluvchidir va hislar ularni qabul qila oladi. Binobarin, soliklar xilvatda o'tirganda nurni ko'rdik, deganda, aslida nurni emas, balki nurga o'xhash sarobni ko'radilar va nur deb tasavvur etadilar. Biron narsani uzoq kutgan odam har bir narsada o'zi sitaganni ko'rmoqchi bo'ladi, hammadan o'shani eshitmoqchi bo'ladi yoki istagan narsasini tushida ko'rib, o'zini uyg'oq deb xayol qiladi, zero, solih darveshlarning uyqusi juda yengil. Ularga haj qilish va avliyolar qabri, muqaddas joylarni ziyorat etish paytida ko'ringan yorug'lik – sarob va yolg'on. Ikki ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan nur – olov yoki yulduzlar nuri.<sup>11</sup>" "Lisonut-tayr"da Alisher Navoiy:

*qosir etdi fahmidin idrokni*

deb yozganida xuddi shuni nazarda tutgan. Masalan, *-t* va *-dir* istagan o'zbek uchun zohiran xilma-xil narsa. Lekin orttirma nisbat shaklini yasovchi vosita sifatida u bir

<sup>10</sup>Bu kundalik hayotda a1 d a n i sh deb ataladi. Sarob, surat, tasvir, haykallarrni haqiqiy deb bilish, o'xhash narsa-hodisalarini aralashtirish kabilari shuning oqibatidir.

<sup>11</sup>Nasafiy Shayx Aziziddin. Zubdat ul haqoyiq // Tafakkur, 1995, № 3-4. –B.55.

morfemaning varianti: *qizdirmoq* – *qizitmoq*. Lekin [-t] va [-dir] kabi shaklan xilma-xil narsani bir mohiyatning ikki ko‘rinishi sifatida qabul qilish «sog‘lom aql» uchun ancha murakkab. Shuning uchun idrokiy bilim hosil qilish usullari **rasionalizm**, **pozitivizm**, **funktionalizm**, **strukturalizm**, **semantizm**, **sistemalogiya** deb narsaning munosabatlari, butun ichida tutgan o‘rni, vazifasi yoki bilimning hosil qilish vositasi asosida turlicha nomlanadi.

Tilshunoslikda fahmiy va idrokiy bilimlarni izchil farqlash sistemaviy tilshunoslikning (strukturalizmning) eng asosiy tamoyili – lison-nutq dixotomiyasida o‘z aksini topadi va bu masala Sizga “Tilshunoslik nazariyasi” “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kursidan atroflicha ma’lum.<sup>12</sup> Bu dixotomiyada *lison* (*til*) va *lisoniy* atamasi bilan ko‘rsatilgan hodisa (UMIS)lar bevosita kuzatishda berilmagan, idrokiy bilish asosida tavsiflanadigan umumiyliliklar, munosabat va qonuniyatlar bo‘lsa, *nutq*, *nutqiy* atamalari, asosan, fahmiy usul bilan o‘rganiladigan, bevosita kuzatishda berilgan xususiylik va voqeliklar - YaHVOlar.

Fahmiy bilimlar alohida olingan narsaning o‘zi, uning shakliy-moddiy xususiyatlari, yashash va voqelanishi haqida ma’lumot bersa, idrokiy bilimlar shu narsaning o‘zga aloqadorlari bilan munosabatlari, uning butun tarkibida tutgan o‘rni, u yoki bu ko‘rinish va vazifada voqelanish sabablarini ochib beradi. Idrokiy bilimlar hamisha fahmiy bilimlarga tayanadi va fahmiy bilimlar bilan isbotlanadi. Fahmiy bilimlardan uzilgan idrokiy talqinlar xayolparastlik, sun’iylik va zo‘rma-zo‘rakilik bo‘lib, fan uchun ham, jamiyat uchun ham ziyon. Bunday xayolparastlikni Boduen do‘ Kurtene "moslashtirish, muvofiqlashtirish va xayoliy" (*rezoniruyuüqe*, aprioristicheskoe) deb ataydi va uni shunday tavsiflaydi:

Bu o‘ta kamtarin va qat’iy yo‘nalishga *xayoliy*, aprioristik, bachkana yo‘nalish qarama-qarshi turadi. Bu yo‘nalish vakillari hodisalarini tushuntirishga ehtiyoj sezadilar, ammo unga haqiqat taqozo qilgandek munosabatda bo‘lmaydilar. Ular umumiy hollar uchun ham, xususiy hollar uchun ham mashhur ibtidolar, aprior tamoyillarni o‘ylab topadilar va bu tamoyillarga dalillarni behad andishasizlarcha

<sup>12</sup>Ne’matov H., Bozorov O. Til va nutq. –T.:O‘qituvchi, 1993. Rahmatullaev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. - T.:Universitet. 2002; Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi. -B. 7-36; Nurmonov A., Shahobiddinova Sh. v. b. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. –T.:Yangi asr avlod, 2001. -B.28. Общее языкоznания. Отв. ред. Б.А.Серебренников. Формы существования, функции, история языка. -M.: Hayka, 1970.

tiqishtiradilar. Turli-tuman uydirma grammatik nazariyalarni tilga, lingvistik xulosalarni ilmning boshqa sohalari bo'lgan tarix, qadimshunoslik, etnografiya va b.larga qo'llashlar buning manbai. Bu behisob o'ylab topilgan va induksiyaga asoslanmagan har xil tushuntirish va xulosalarning, ba'zan ularda sog'lom fikr mavjud emasligi haqidagi shubhali fikrlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bu ishi uchun janob etimologlarning o'zini ham jinnixonaga tashlaging keladigan bekorchi etimologiyalarni kim bilmaydi deysiz? Alkimyogarlar boshqalari undan urchigan ibtidoiy tanani yoki sirli buyuk yaratuvchi kuchni topishga uringanliklari kabi aprioristik yo'naliшning ayrim vakillari tilshunoslikda ham bir yoki bir necha tovushdoshlikdan insoniyat tilining butun boyligini keltirib chiqarmoqchi bo'ldilar. Bu zamonda hech kim alkimyo bilan shug'ullanmaydi, biroq tilshunoslik olami uydirmachilik hukmronligidan hali-veri qutulishiga ham umid yo'q.

Endi bu aprioristik yo'naliш tilshunoslikda go'yoki ayrim uzuq-yuluq dalillarni bilishi bilanoq grammatik sistemalar quradigan, lisoniy hodisalarni mantiqiy ramkalarga, mantiqiy sxemalarga soladigan falsafiy maktab yaratishibdi. To'g'ri, bunday sistemalar olimlarning muvaffaqiyatli aqliy izlanishlarini, uyg'unlik va rasolik kasb etgan mantiqiy san'at yarata olishlarini ko'rsatadi; ammo ularning zo'rma-zo'raki, faktlarni buzib talqin qilishga asoslangan tor nazariyalari bamisolli sog'lom fikrlovchi kishilarning talablarini qoniqtirmaydigan havoyi qasrlarga o'xshaydi.

Agar tavsifiy, tom ma'noda empirik bo'lgan yo'naliш fan taraqqiyotiga g'ov bo'lsa, mazkur aprioristik, xayoliy va bachkana yo'naliш uni noto'g'ri yo'lga boshlaydi va shuning uchun o'ta zararli."<sup>13</sup>

Ma'lum bir g'oyalarni hodisalarga zo'r lab nisbat berish tadqiq manbaiga nominalistik yondashish va fetishizm (fetishizasiya) - ma'lum bir narsa-hodisani mutlaqlashtirish fan va jamiyat uchun zararli. Sovet tuzumida fanda (jumladan, tilshunoslikda) va siyosatda (jumladan, milliy tillar va ularning tadqiq va ta'limida) fetishizm, ularning oqibatlari ustida keyinroq fikr yuritiladi. Hozir faktlarni (jumladan, til hodisalarini) oldindan qabul qilingan bir g'oya bo'ysundirib tahlil etish, tadqiq manbaini g'oya yoki nazariyaga muvofiqlashtirib izohlash fan uchun,

<sup>13</sup>Zveginsev V.A. Ko'rsatilgan asar. -B. 265-266.

buyuk tilshunos ta’kidlaganidek, "o‘ta zararli" ekanligini qayd etish bilan cheklanamiz; hodisalar, faktlar talqini g‘oya-yu nazariyalarga emas, aksincha, g‘oya-yu nazariyalar hodisalar, faktlarga tayanishi, asoslsnishi lozim, Bu fanning istagan taraqqiyot bosqichida tadqiqotchi oldiga qo‘yadigan b i r i n chi va b o sh talabi. Shu sababli tilshunoslik bo‘yicha har bir *idrokiy* hukm va talqin h a m i sh a mustahkam *fahmiy* zaminga ega bo‘lmog‘i shart.

Ilmiy tadqiqotda idrokiy hukm va xulosa fahmiy bilim, jumladan, tajriba va amaliyot bilan tasdiqlangan, isbotlangandan keyingina nazariya mavqeini egallaydi. Bunday tasdiq, isbot asosiga ega bo‘lmagan hukmlar faraz (gipoteza), taxmin, gumon yoki xayol (fantaziya) bo‘ladi, xolos.

Idrokiy bilimlar fan va jamiyat taraqqiyotida behad katta ahamiyatga ega. Tom ma’noda fanning ijtimoiy-amaliy ahamiyati ham mana shunday bilimda. Zeroki, idrokiy bilim YaHVOning sabab va qoniniyatlarini ochib berib, bu qonuniyatlardan jamiyat manfaati uchun, **jamiyatni o‘zgartirishda ongli va izchil foydalanishga imkoniyat yaratadi, kishilik jamiyatining rivojlanishini ta’minlaydi**. Quyidagi dalillarga murojaat qilaylik.

Qumg‘ondagi suv qaynaganda, qumg‘on og‘zining ochilib, yopilish hodisasi fahmiy usul bilan aniqlangan va tavsiflangan edi. Buni Forobiy ham, Beruniy ham tavsiflagan. Shu asosda bug‘ning vazni suvdan yengil, zichligi undan kam ekanligi haqida idrokiy xulosa chiqarilgan. Lekin bu qonuniyatdan amaliy foydalanishga mustabitlashgan islomiy shariatning texnika taraqqiyotiga qat’iy man‘i yengib bo‘lmas g‘ov bo‘lgan<sup>14</sup>.

Yevropa fani va texnikasi nasroniylik inkvizitsiyasi qarshilagini yengib, Forobiy va Beruniyga ma’lum bo‘lgan qumg‘on qopqog‘ining ko‘tarilib-tushishi sababidan amaliy foydalanib, 1763-yilda I.I.Polzunov, 1774-yilda J.Uaytt bug‘ mashinasini yaratdilar. Bu Yeeropada texnik revolyusianing, fan, texnika, iqtisodning ko‘z ko‘rmagan, quloq eshitmagan tezlikda rivojlanishiga, bug‘ mashinasi, parovoz, paroxod, avtomobildan 100 yil davomida kosmik kemalarga o‘tishga, Sharqdan uzilib, ilgarilab ketishiga asos bo‘ldi. Sharq esa idrokiy bilim mahsulidan amaliy foydalana olmaganligi sababli Yevropadan keskin orqada qoldi.

<sup>14</sup>S.Ayniying «Esdaliklar» asarining II-III jildlarini o‘qisangiz, buning guvohi bo‘lasiz.

Vaholanki, IV-XIV (va hatto, XVI asrgacha) fan, texnika, madaniyat, san'at sohasida Sharq G'arbdan ancha ilg'or va ustun, ularni o'z ta'sirida saqlayotgan, Yevropaning qator davlatlariga mustamlaka sifatida tazyiq o'tkazayotgan edi. Akademik shoir G'afur G'ulom "Men yahudiy" she'rining juda ko'p misralarida xuddi mana shu holatga ishora qiladi.

XIII asrda kalom va tasavvuf birlashib, bu Sharq tafakkuri taraqqiyotida ulkan yutuqlarning qo'lga kiritilishiga sabab bo'ldi. Bunda Najmiddin Kubro, Farididdin Attor, Muhiyiddin ibn Al-Arabi, Jaloliddin Rumiy va Aziziddin ibn Muhammad an-Nasafiy kabi mutafakkirlarning xizmatlari behad katta bo'ldi.

Sharq falfasafasi nomi bilan mashhur tasavvuf ta'limotiga yondashuvlar har xil mafkuraviy asoslarda turli tomondan turlicha talqin qilinib keldi. Xususan, sobiq kommafcura hukmronligi sharoitida ateizm aqidalari asosidagi yondashuvda u ortodoksal islomning mistik oqimi sifatida qayd etilgan bo'lsa, respublikamizda istiqlol mafkurasi tarkib topishi va takomillashuvi natijasi o'laroq, ruhiy taklomillashuvga erishish dasturi sifatida tan olinmoqda. Chunki mazkur shaxslarni "komil inson tadqiqotchilari deyish mumkin. Ularning fikricha, inson kolnotning kichraytirilgan nusxasi, insonda barcha ilohiy va moddiy olamlarning xislati jamuljam. Inson shuni anglashi va o'z ruhi – ilohiy javharni poklab, asl maqomiga qaytishi lozim".<sup>15</sup> Biroq Sharq falsafiy tafakkurining mag'zi bo'lgan dialektika taraqqiyoti va xususiyatlari nuqtai nazaridan u falsafiy tadqiqotlarning maxsus o'rganish manbai bo'lmagan. Holbuki, bugungi kunda butun dunyo zamonaviy falsafasining "asosi" hisoblanayotgan g'arb dialektik ta'limotining asl qaymog'i sharq tasavvuf falsafasida mujassamlashgan. Bunga komillik tariqatiga o'zining munosib hissasini qo'shgan yurtdoshimiz Shayx Aziziddin Nasafiyning "Zubdatul haqoyiq" [qisq. ZH] asarining metodologik qatlamini kuzatish asosida amin bo'lish mumkin.

Aytilganidek, metodologiya falsafaning tarkibiy qismi bo'lib, u fanning gnoseologiya (bilish nazariyasi) bo'limi bilan uzviy aloqador. Shuning uchun [ZH] da bilish asosi deganda tadqiqotchida kamida uch omilning mujassamlanishi va uning o'rganish mahsulida namoyon bo'lishi tushuniladi. Bular:

<sup>15</sup> Komilov N. Nasaflik buyuk mutafakkir // Tafakkur, 1995. -№ 3-4. B.44.

*Birinchidan*, solikning o‘z talab manbai haqida qay turdag'i bilimlarni hosil qilishga intilishi, bilishning qaysi turi bilan shug‘ulanishi. Ma’lumki, falsafada narsa/o‘rganish ob’ekti haqida tadqiqotchi ikki turdag'i bilimlar hosil qilishi mumkin:

- a) fahmiy (hissiy, empirik) bilimlar;
- b) idrokiy (aqliy, mantiqiy, nazariy, teoretik) bilimlar.

Har bir turdag'i bilimni hosil qilish yo‘l, vosita va usullari ham, maqsadlari ham boshqa-boshqa. Shu boisdan [ZH] “olami kubro” va “olami sug‘ro”ni bilish usul va vositalari farqlanadi, butunni o‘rganish qismlarni tekshirish asosida bo‘lishi haqidagi hozirgi zamon dialektik tamoyili “olami kubro” va “olami sug‘ro” munosabati asosida talqin qilinadi. Fahmiy bilim idrokiy bilim asosi ekanligi ta’kidlanadi: “Olam o‘zining avvalida ikki qismdan iborat: birinchi qism olami g‘ayb (yashirin olam), ikkinchisi olami shuhud (ko‘rinadigan olam ) deb ataladi. Bu har ikki olamni miqdoriy va kulliy (umumiyl, yaxlit) ma’nolarda turli nomlar bilan tilga oladilar. Masalan, xoliqiyat olami va amr olami; mulk olami va malakut olami; badan olami va ruh (jon) olami; hislar olami va shuur olami; nur olami va soya (zulmat) olami va shu kabilar. Bu nomlar har ikki olam – olami –ayb va olami shuhudga ishora.”<sup>16</sup> Demak, ko‘rinadiki, mutafakir qarashlarida hozirgi zamon gnoseologik ta’limotining asosiy tushunchalari - *empirik* va *nazariy bilish* hamda ularning ob’ektlari qat’iy farqlangan.

Ikkinchidan, tadqiqotchingi tadqiq manbai/narsaga qanday usul bilan yondashishi. Bunda ikki usul borligi aytildi:

- a) nominalistik yondashish;
- b) dialektik yondashish.

Nominalistik va dialektik yondashuv, nominalistalar va dialektiklar [ZH] da ahli shariat va ahli hikmat munosabatlari ko‘rinishida talqin etiladi. Ahli shariat fikricha, “bu dunyoga kelgan har bir ruh muayyan chegaraga ega bo‘ladi va avvalgi yeb-ichishi, qancha so‘zlashi, nimalarni o‘rganish va o‘ylashi va hokazolar oldindan belgilangan bo‘ladi. Haqning irodasi va ilmidan tashqari daraxt yaprog‘i qimirlamaydi yoki odam biron narsani niyat qilmaydi.

<sup>16</sup> Nasafiy Shayx Aziziddin. Zubdatul haqoyiq // Tafakkur, 1995. -№ 3-4. B.45.

Ey darvesh, ammo bu fikr ishtibohli. Ahli hikmat (ya’ni faylasuflar) fikriga ko‘ra esa ilm ma’lumga (bilib olganga) bo‘ysunadi.”<sup>17</sup>

*Uchinchidan*, hozirgi zamon dialektikasi uqtirishicha, tadqiqotchining materialistik yoki idealistik (ruhoniy) nuqtai nazarda turishi va shu nuqtai nazardan turib ilmiy tadqiqni olib borishi. Aziziddin Nasafiy qarashlarida **zot va tajalli** olami - xoliqiyat olami va amr olami, mulk olami va malakut olami, badan olami va ruh (jon) olami, hislar olami va shuur olami, nur olami va soya (zulmat) olami kabilar asosida materialistik va idealistik yondashuvlar farqlanadi. Bunda faqat ruhoniy bilim materialistik bilim asosida ekanligi ta’kidlanadi: “Ey darvesh, sen kichik olamsen, butun olamning o‘zi esa ulug‘ olam. Sen har ikki olamning kichraytirilgan nusxasi va timsol – belgisisan. Ulug‘ olamda bor narsalar kichik olamda mavjud. Ey darvesh, ulug‘ olamning avvalu oxiri, zohiru botini, mohiyat va shakllarini idrok etish uchun o‘zingning mohiyating, zohir va botiningni anglab yetgin. Bundan boshqa yo‘l yo‘q. Ey darvesh, narsa-hodisalarning qandayligini bilmoxchi bo‘lsang, o‘zingning qandayligingni bilib olishing kerak.”<sup>18</sup>

Bilish usullari va turlarining xilma-xilligi Aziziddin Nasafiy talqinida quyidagi ko‘rinishga ega: “Dunyoning barcha kishilari bu nurni (haqiqatni – mualliflar) izlab talpinadi, ammo ular bu nurni o‘zlaridan tashqarida izlaydilar va qancha izlasalar, undan shuncha uzoqlashadilar.”<sup>19</sup>

Idrokiy bilimlarni amaliyotda qo‘llash jamiyatdan ma’lum bir shart-sharoitlarni, ma’naviy va moddiy zaminni talab qiladi. Idrokiy bilimlar ochilgan paytda juda ko‘p hollarda jamiyatda bunday zamin tayyor bo‘lmaydi. Shuning uchun Albert Eynshteyn 1905-yilda ochgan nisbiylik gipotezasi oradan qariyb 40 yil o‘tgach, nazariya sifatida qabul qilindi.

### **Sinergetik metodologiya.**

Bugungi tilshunosligimizda ham milliy istiqlol natijasi o‘laroq, ona tilimizning ichki qurilish qonuniyatları asosida ona tili ta’limini tubdan yangilashga, tilimiz grammatik qurilishini (grammatikasini) tafakkurimizga mos shaklda yangicha talqin etishga zamin paydo bo‘ldi. Shuningdek, ona tili ta’limi asosida

<sup>17</sup> O‘sha manba -B.48-49.

<sup>18</sup> O‘sha manba -B.45.

<sup>19</sup> Nasafiy Shayx Aziziddin. Zubdatul haqoyiq // Tafakkur, 1995. -№ 3-4. B.53.

bolalarimizda ijodiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirishga, milliy ongning gullab-yashnashi, milliy mafkuraning gurkirashi uchun mustahkam poydevor qurildi. Afsuski, idrokiy bilimlarning amaliyatga tatbiqi bo‘lgan ishning keng rivojlanishida va ommalashib, moddiy kuchga aylanishida jiddiy ma’naviy va moddiy to‘silalar mavjud. Ma’naviy to‘sil sifatida yangi grammatik va metodik talqinlarning, talab qilinadigan ish uslublarining o‘qituvchilar ongiga singmaganini, ta’lim tizimida o‘qitiladigan boshqa (xorijiy) tillar ta’limi tamoyillari bilan ona tili ta’limining muvofiq emasligini va uzliksiz ta’lim tizimining turli bosqichlari orasida ona tili ta’limida uzviylik va davomiylikning zaifligini ko‘rsatish mumkin.

Moddiy to‘sil sifatida esa, o‘quvchi va o‘qituvchilar tasarrufida ona tilimiz imkoniyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan axborot banklarining (lug‘at va qomuslarning), ulardan mustaqil va kompyuterlar yordamida foydalanish algoritmlarining yo‘qligini sanab o‘tish mumkin.<sup>20</sup>

Idrokiy bilimlar hamisha o‘z davri shart-sharoitlaridan ancha oldinda bo‘ladi. Shuning uchun ulardan ko‘pchiligi o‘z davri kishilari tomonidan g‘ayrioddiy, “aql bovar qilmas”dek qabul qilinib, ko‘p hollarda, inkor qilinadi. Lekin bu bilimlar ob’ektiv (haqqoniy). Davrlar o‘tishi bilan ular o‘z amaliy tatbiqi uchun zamin hozirlaydi va tug‘ilgan joyidami, undan behad uzoqdamni, baribir amaliyatga o‘tib, jamiyat taraqqiyotiga halol xizmat qiladi. Buni IX-XX asrda qilingan barcha buyuk kashfiyotlar va ochilgan ulkan qonuniyatlar tasdiqlaydi.

Bizning fanimizda ham bunga misollar talaygina. Chunonchi, XX asrning boshlarida (1925-yilda) Abdurauf Fitrat o‘zbek gapining markazi kesim ekanligi g‘oyasini ilgari surdi. Lekin 30-80-yillarda sovet fetishizmi ta’siri ostida bu talqin (millatchilik, o‘zbeklarni ruslardan uzoqlashtirishga qaratilgan faoliyat sifatida) nafaqat rad etildi, balki aksilinqilobiy harakat sifatida ta’qib qilindi. Istiqlol sharofati bilan bu talqin rivojlantirilmoxda. Grammatik talqinning millat tafakkuri xususiyatlariga hamohangligi esa ona tili vositasida ijodiy fikrlash ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishga xizmat qilib, o‘z navbatida millat tafakkurining (milliy ong va o‘zlikni anglashning) yalpi o‘sishini ta’minlaydi va ilmiy-texnikaviy

<sup>20</sup>Bu va bu kabi murakkabliklar, ularni bartaraf etish choralar 2003 yilning oktabrida Qo‘qon shahrida o‘tkazilgan ilmiy konferensiyada atroflicha muhokama etildi. Qur.: «O‘zbek tili bo‘yicha DTSlarni joriy etish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. -Qo‘qon: Qo‘qon DPI nashri. 2003.

inqilobga zamin hozirlaydi.


Istagan millat yoki xalq vakillari tomonidan ochilgan, kashf etilgan idrokiy bilimlar (munosabatlar, qonuniyatlar, bog‘lanishlar, tizimlar) umumbashariyat, butun insoniyat mulki. Mana shuning uchung yunonistonlik Arastu va osiyolik Forobiyni, angliyalik Nyuton va osiyolik Beruniyni, Aflatun va Ibn Sinoni, Kopernik va Ulug‘beklarni butun insoniyat bir xil hurmat qiladi; Sharqu G‘arbda “Muallimi avval” Arastu (Aristotel, Aristotilus) sanalsa, “Muallimi soniy” vatandoshimiz Abu Nasr Forobi. Bir millat vakili qo‘lga kiritgan fahmiy bilimlar asosida juda ko‘p hollarda ikkinchi millat vakili idrokiy xulosalar chiqaradi, uchinchi biri esa bu idrokiy qonuniyat asosida yangi tajriba-sinov ishlarini yo‘lga qo‘yadi. Chunki fan ham, fahmiy va idrokiy o‘rganish samaralari ham chegara bilmaydi.

Fahmiy va idrokiy bilimlar orasida keskin chegara qo‘yish mumkin emas. Zero, ular o‘zaro bog‘liq va hamisha biri ikkinchisi asosida rivojlanib boradi. Xususan, tilshunoslikda ham shunday. Istagan tilshunos (boshqa fanlar tadqiqotchilari kabi) xoh fahmiy, xoh idrokiy turdag'i tadqiqotni amalga oshirar ekan, shu fan sohasida, xususan, o‘rganish manbai doirasida qo‘lga kiritgan ilmiy yutuqlar – narsani fahmiy va idrokiy o‘rganish natijalari bilan chuqur tanish bo‘lmog‘i, ularga tayangan holda tadqiqni davom ettirishi lozim. Ikkinchidan, barcha turdag'i idrokiy bilimlar narsaning moddiy, fahmiy belgi-xususiyatlari haqidagi bilimlarga tayanadi. Boshqa tomondan, barcha turdag'i idrokiy hukmlar amaliyotga tatbiq bilangina tasdiqlanadi. Shuning uchun Immanuil Kant (1724-1804) “Naqiqat mezoni amaliyotdir” shiorini o‘rtaga tashladi.<sup>21</sup>

Bilimlar zamini tajribadan hosil bo‘ladi, inson ongida qayta ishlanadi, qonuniyatlar ochiladi va yana amaliyotga tatbiq etilib, sinovdan o‘tkaziladi, tasdiqlanadi. Idrokiy tahlil va umumlashtirishlar asosida ochilgan qonuniyatlar yangi turdag'i tajribalarga, ular asosida yangi bosqichdagi fahmiy bilimlarga, keyingilari yangi bosqichdagi idrokiy bilimlar – yangi, yana mukammalroq, chuqurroq qonuniyatlarni, tizimlarni, oldin tasavvur ham etib bo‘lmas aloqa va munosabatlarni ochishga asos bo‘laveradi. Shuning uchun fahmiy va idrokiy bilim

<sup>21</sup> Кап.: Асмус Б.Ф. Иммануил Кант. -М.: Наука, -С. 42-52.

hamisha bir-biriga tayanib, bir-birini aniqlab, narsani bilishning cheksiz jarayonida uni o'rghanishda turli bosqichlar sifatida almashinib ketaveradi. Buni shartli ravishda quyidagi chizmada berish mumkin.



Mana shu usul bilan inson ongi narsaning ma'lum bir bosqichdagি mohiyatidan undan chuqurrog'i (yuqorirog'i)ga ko'tarilib boraveradi.

Idrokiy va fahmiy bilimlarning bir-birini to'ldirishini hozirgi kunda kompyuter texnikasining taraqqiyoti, yutuqlari, fan-madaniyatdagi ahamiyati misolda ko'rish mumkin. Tilshunoslik, fizika (elektronika) va matematika fanlari kesishuvida kompyuter texnologiyasi shakllandi va rivojlanib bormoqda. Ma'lumki, kompyuter **til** bilan ishlaydi: u tilning ramziy tizim – shartli belgilar (simvollar) sistemasi ekanligiga tayanadi.<sup>22</sup> Faqat kompyuter tili (tillari) tilimizdan ko'ra ancha sodda, unda insoniy tilga xos bo'lgan o'nlab antinomiyalar (dialektik ziddiyat va zidlanishlar, chunonchi: shakl-mazmun, mazmun-vazifa, turg'unlik-o'zgaruvchanlik, taraqqiyot-tanazzul, yaratish-yo'qotish, yangi-eski, faoliyat-mahsul, sabab-oqibat, umumiylilik-yakkalik va h. zidligi va birligi asimmetriyasi<sup>23</sup>) xos emas. Kompyuterning tili juda sodda, so'zlari bir ma'noli, aniq, miqdori tilmizdagidek son-sanoqsiz emas. Kompyuter tilining imkoniyatlari ham

<sup>22</sup> Журавлёв А., Павлик Н. Язык и компьютер. -М.: Просвещение, 1989. -С.160.

<sup>23</sup> Qar. Mahmudov N. Til. -T.: Yozuvchi, 1998. -40 b. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh. va boshq. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. -T.:Yangi asr avlod, 2001. -164 b.; Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. -T.:O'qituvchi, 1995. -232 b.; Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. -T.:O'qituvchi, 1995. 128 b.; Карцевский С. Об ассимметрическом дуализме лингвистического знака // Звегинцев В.А. Мазкур асар. 2-т. -Б. 85-90. Скаличка В. Ассиметрический дуализм языковых единиц // Пражский лингвистический кружок. -М.: Прогресс, 1967.

cheklangan. Nutqi hozircha faqat yozma,<sup>24</sup> o‘z-o‘zidan rivojlanish qobiliyatiga ega emas. Shuning uchun kompyuter tili mutaxassislar tomonidan yildan-yilga mukammallashtirilib boriladi. Agar ilk kompyuter tillarini (jumladan, “beysik”) hozirgi tillari bilan solishtirsak, buning guvohi bo‘lamiz. Yaqin-yaqin vaqtlargacha kompyuterning “ko‘zi” faqat (bugun eskilikka aylangan) perfokartalarnigina o‘qiy olar edi. Bugun u ma’lumotlarni displaydan oladi. Erta-indin kompyuter tovush va harflarni bemalol og‘zaki/yozma matndan tushunadigan (o‘qiy oladigan va eshitadigan) bo‘ladi –“savodi chiqadi”. Kompyuter tilining soddaligini, masalan, tabiiy va sun’iy mato (charm, gazlama va h.) sodda/murakkabligi bilan qiyoslash mumkin. Shuning uchun kompyuter tili ***sun’iy til*** deb ataladi. Uning ham o‘z birliklari, grammatikasi, hatto, stilistikasi bor.

Idrokiy bilimlar amaliyotga tatbiq etilmasa, quruq yog‘och, bemeva daraxt, u hech qanday samara bermaydi.<sup>25</sup> Forobi va Beruniylarga ma’lum bo‘lgan bug‘ning suvdan ko‘ra yengil va siyrakligi kashfiyotiday asrlar davomida “bekor”, quruq gap bo‘lib qolaveradi. Shu 700 yil “bekor” yotgan oddiy qonuniyat – idrokiy bilimning amaliyotga tatbiqi esa bug‘ mashinasidan 200 yil davomida kosmik kemalar-u kompyuterlarga olib keldi. Axir, XVIII – XIX asr dvigatellarisiz atom energetikasi va kvant mexanikasi rivojlnana olmas edi.<sup>26</sup> Bularsiz esa elektronikani, elektronikasiz kibernetikani, kibernetikasiz kompyuterlarni, kompyutersiz hozirgi zamonni tasavvur etib bo‘lmaydi. Bilimning qiymati amaliy tatbiqda ekanligini shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroyi “Ilmini (ya’ni idrokiy bilimlarini) amalda qo‘llay olmaydigan olimdan ustiga kitob ortilgan eshak yaxshi”, - degan so‘zları bilan alohida ta’kidlagan ekanlar, chunki eshak ustidagi kitoblarni kimdir o‘qib, bilimlar asosida yangi tajribalar o‘tkazishi va yangi bosqichdagi bilimlarni qo‘lga kiritishi mumkin.

Idrokiy va fahmiy bilish va bilimlarning o‘zaro birligi va bog‘liqligi Sharqning mashhur “ilmu amal” iborasida ham o‘z aksini topgan. Siz olim-u olimalar oldida ham ilmu amal birilagini ta’minlash vazifasi turadi. Bu Vatanimiz,

<sup>24</sup>Tilimizda esa nutqning asosiy shakli og‘zaki. Undan tashqari imo-ishora va b. nutq shakllari ham mavjud.

<sup>25</sup>Qar.: Zikrillaev G‘. Nazariya - quruq og‘och // Istiqlol va ona tili qurilishi, talqini hamda ta’limi. -T.: Fan, 2000. -B. 15-26.

<sup>26</sup>Кар.: Кузнецов Б.Г. Эйнштейн. -М.:Изд. АН, 1962. –С.468.

xalqimiz ravnaqining asosiy shartlaridan biri.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. O‘zbek tilshunosligining nazariy bosqichi haqida so‘zlab bering.
2. O‘zbek tilshunosligi nazariy bosqichi yutuqlari nimalardan iborat?
3. O‘zbek tilshunosligi nazariy bosqichi muammolari nimalarda ko‘rinadi?
4. O‘zbek tilshunosligi nazariy bosqichi muammolari yechimiga doir qanday tavsiyalar berasiz?
5. O‘zbek tilidan amaliy foydalanishning qanday zaruriy masalalari bor?
6. O‘zbek tilidan amaliy foydalanishning yo‘nalishlari va metodologiyasi haqida ma’lumot bering.
7. O‘zbek tilidan amaliy foydalanish tadqiqi qanday natijalarni beradi?

### **FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mahmudov N. Til. -T.: Yozuvchi, 1998. -40 b. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh. va boshq. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. -T.:Yangi asr avlodi, 2001. -164 b.;
2. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. -T.:O‘qituvchi, 1995. -232 b.; Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. -T.:O‘qituvchi, 1995. 128 b.;
3. Карцевский С. Об ассимметрическом дуализме лингвистического знака Звегинцев В.А. Мазкур асар. 2-т. -Б. 85-90. Скаличка В. Ассиметрический дуализм языковых единиц // Пражский лингвистический кружок. -М.: Прогресс, 1967.
4. Tilimizda esa nutqning asosiy shakli og‘zaki. Undan tashqari imo-ishora va b. nutq shakllari ham mavjud.
5. Zikrillaev G‘. Nazariya - quruq og‘och // Istiqlol va ona tili qurilishi, talqini hamda ta’limi. -T.: Fan, 2000. -B. 15-26.
6. Кузнецов Б.Г. Эйнштейн. -М.:Изд. АН, 1962. –C.468.

**2-MAVZU:**

**ONA TILI O‘QITISH METODIKASI VA UNI O‘QITISHDA  
GRAMMATIK MA’LUMOTLAR MAZMUNI, TA’LIM  
MAQSADI, USULI, VOSITALARI, YO‘LLARI**

**REJA:**

- 1. Talab va ehtiyoj*
- 2. Substansial-pragmatik tadqiq mohiyati*
- 3. Tadqiq metodologiyasi*
- 4. Kutilayotgan natijalar*

**Talab va ehtiyoj.** O‘tgan asrning 80-yillarida faoliyatini boshlagan o‘zbek substansial tilshunosligi fanning ustuvor sohasi sifatida o‘zbek tilida lison(til imkoniyati) va nutq(til imkoniyatining voqelanishi)ni izchil farqlash asosida lisonga umumiylit, mohiyat, imkoniyat, sabab (UMIS), nutqqa alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat (AHVO) sifatida munosabatda bo‘lib, asosiy e’tiborini UMISlarni ochishga qaratdi. Fonema, morfema, leksema va qoliplar lisoniy birlik (ya’ni UMIS) lar sifatida olinib, nutqiy birlik (tovush, qo‘srimcha, so‘z, so‘z birikmasi, gap (ya’ni AHVO)lar uchun imkoniyat (substansiya) sifatida baholandi. Bir tipdagи lisoniy birliklar sistemasi bo‘lgan lisoniy paradigmalar hamda lisoniy birliklarni ma’lum bir paradigmada saqlab turuvchi lisoniy munosabatlar o‘rganildi. Bu borada ellikka yaqin nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari yoqlandi, monografiyalar yozildi. Qo‘lga kiritilgan nazariy xulosalar oliy va o‘rtta ta’limning joriy dastur, darsliklariga kiritildi.

Bugungi kunda taraqqiyot o‘zbek tilshunosligi fanidan aniqlangan lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishini tekshirishga, ona tili imkoniyatlaridan amaliy foydalanish samaradorligini ta’minalash muammosi bilan shug‘ullanishga jiddiy kirishishni taqozo etmoqda. Yangi asr fani zimmasiga yuklatilayotgan bu ijtimoiy buyurtma tilni yangi – substansial-pragmatik (“imkoniyatdan voqelikka”) tamoyillar

asosida tadqiq qilish asosida amalga oshiriladi.

Tilshunoslikning yangi yo‘nalishini ifodalovchi *substansial-pragmatik* terminining tarkibiga kirgan *pragmatika* so‘zi yunoncha *pragma*, *pragmatos* so‘zidan olingan va “ish”, “harakat” ma’nolarini bildiradi, tilshunoslikda til birliklarining qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganishni anglatadi. Substansial-pragmatik yo‘nalish muayyan til imkoniyatlarini egallab undan amalda foydalanuvchilarning ushbu birliklar sistemasiga ongli, amaliy munosabatini tekshiradi. Pragmatika haqidagi g‘oya dastlab amerikalik olim Charlz Pirs tomonidan fanga kiritilgan. Boshqa bir amerikalik olim Charlz Morris uning g‘oyalarini rivojlantirgan. O‘zbek tilshunosligidagina til birliklaridan foydalanish masalasi lisoniy imkoniyatlar bilan uzviy bog‘langan holda tadqiq qilinadi, shu boisdan yo‘nalish mazkur nom bilan yuritilmoqda.

Ko‘rinadiki, substansial-pragmatik yondashuv o‘zbek fanida shakllanayotgan tilshunoslikning yangi empirik yo‘nalishi sifatida lisoniy imkoniyatlarni so‘zlovchi, tinglovchi, ularning muloqot jarayonidagi o‘zaro munosabati, muloqot vaziyati singari nolisoniy hodisalar bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Shaxsning lisoniy imkoniyatlardan amaliy foydalanishi so‘zlovchi hamda tinglovchining shaxsiy sifatlari, nutq maqsadi, uning turlari (oshkora yoki yashirin), shakllari (xabar, so‘roq, buyruq, iltimos, maslahat, va’da berish, salomlashish, so‘rashish, xayrlashuv, uzr, tabrik, shikoyat kabilar), nutq strategiyasi va taktikasi, nutq odobi, muloqot madaniyati, so‘zlovchi yoki tinglovchining dunyoqarashi, bilim darajasi, qiziqishlari kabi qator nolisoniy omillar bilan mushtarak holda yuzaga chiqadi.

Yangi asr o‘zbek tilshunosligining asosiy vazifalari Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida quyidagicha umumiylar tarzda belgilab berilgan:

1. Ona tilini avaylab-asrash.
2. Tilimizni boyitish ustida tinimsiz ishlash.
3. Ona tilidan amaliy foydalanish samaradorligiga erishish.
4. O‘zbek tilining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida qo‘llanishini kengaytirish.

Bu vazifalar markazida ona tilidan amaliy foydalanish samaradorligiga erishish

muammozi turadi.

Demak, shakllanajak o‘zbek substansial-pragmatik tilshunoslige oldida turgan o‘zbek tilining XX asrda ochilgan lisoniy imkoniyatlaridan amaliy foydalanish samaradorligini tadqiq qilish vazifasi ijtimoiy ehtiyoj, davr talabidir, bu vazifaning bajarilishi esa o‘zbek milliy tilshunoslige fani hamda ona tili ta’limini amaliy jihatdan samarador bo‘lgan yangi sifat bosqichiga ko‘taradi.

**Substansial-pragmatik tadqiq mohiyati.** Til murakkab yaxlitlik sifatida lisoniy imkoniyat va nutqiy voqelik hamda sathlari hamda ularni bog‘lovchi me’yor(lisoniy imkoniyatlardan foydalanish qoidalari)dan iborat. Lison va nutq dixotomiysi bilan shug‘ullangan tilshunoslarning ta’kidlashicha, lisoniy imkoniyat nutqda me’yor asosida voqelanadi, shu bilan birga, nutqqa nisbatan “obrazsiz” hamda “jonsiz”dir. Nutqning obrazliligi esa pragmatik omillar asosida vujudga keladi, lisoniy imkoniyatni “jonlantiruvchi” hodisalar majmui sifatida qaraladi.

Ma’lumki, tilshunoslikda til sistemasini ilmiy tadqiq qilish uch ko‘rinishda kechadi:

- 1) lisoniy imkoniyat va nutqiy voqelikni ajratmagan holda tilni adabiy til me’yorlarini ishlab chiqish maqsadida yaxlit o‘rganish;
- 2) lisoniy imkoniyat va nutqiy voqelikni izchil farqlash asosida faqat lisoniy imkoniyatlarni tadqiq qilish;
- 3) lisoniy imkoniyat va nutqiy voqelikni izchil farqlamasdan nutqni yaxlit tekshirish.

Ta’kidlash lozimki, nutqiy voqelikni lisoniy imkoniyatdan uzilgan holda tadqiq qilish tavsifiy xarakterga ega; u fanning amaliy samaradorligini ta’minlamaydi. Shu boisdan o‘zbek tilshunoslida nutqiy voqelikni lisoniy imkoniyat asosida tadqiq qilish, ona tili darslarida o‘quvchilarning muloqot ko‘nikma va malakalarini, nutq madaniyatini o‘stirishga xizmat qiladigan lingvistik ta’minotni yaratishni substansial-pragmatik yo‘nalish o‘z zimmasiga oladi.

Shaxs ongida til jamiyatidan o‘zlashtirilgan lisoniy birliklar o‘zaro assotsiativ bog‘langan holda mavjud bo‘ladi. Masalan, ongda fonemalar bir-birini eslatib turgani kabi, morfemalar ham maxsus tizim sifatida mavjuddir. Ongda fonema, morfema va leksemalar alohida-alohida guruh sifatida mavjudligi sababli bu

sistemalar tilshunoslikda gomogen (bir xil tabiatli) sistema deyiladi. Ularning gomogenligi shundaki, birinchidan, barchasi lisoniy tabiatga ega, ikkinchidan, biror guruhga kiruvchi lisoniy birliklar boshqalaridan nisbiy mustaqil holda mavjud bo‘ladi. Nutqda esa lisoniy birliklar “aralash-quralash” voqelanish bilan birga (masalan, unli tovush bilan undosh tovush, so‘z bilan qo‘s Shimcha, so‘z birikmasi, gap ketma-ket yoki ichma-ich kelaveradi), bevosita tilga xos bo‘lmagan tashqi omillar bilan ham qorishadi. Yuqorida bu pragmatik omillar deb atalgan edi. Lisoniy imkoniyatlar nutqiy voqelikka aylanganda, o‘z lisoniy “sof”ligidan mahrum bo‘ladi.

Lisoniy birliklar bamisol Mendeleev davriy sistemasidagi kimyoviy elementlar majmuidir. Borliqda kimyoviy elementlar sof holda uchramaganligi singari, lisoniy birliklar ham nutqda o‘z-o‘zicha mavjud bo‘la olmaydi. Lisoniy birliklar nutqda shunchaki ketma–ketlik munosabati asosida bog‘lanib qolmay, balki pragmatik unsurlar bilan ham o‘ziga xos ravishda munosabatga kirishadi. Boshqacha aytganda, nutq vaziyati, muhiti, so‘zlovchi va tinglovchining xususiyati, holati lisoniy birliklarni nutqqa xoslovchi, moslashtiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Har qanday lisoniy birlik nutqda voqelanar ekan, avvalo, uning umumiylisi mohiyati u bilan birgalikda ishtirot etayotgan boshqa lisoniy birliklar yordamida muayyanlashadi. Xususan, ko‘p ma’noli so‘zlarning alohida ma’nolari grammatik qo‘s Shimchalar va birikayotgan so‘zlar ta’sirida farqlanadi – nutqqa chiqish uchun “shaylanadi”. Nutqiy vaziyat esa unga qo‘s Shimcha xususiyatlari beradi, ba’zan grammatik vositalar, birikayotgan so‘zlar “ojizlik” qilgan hollarda ularning vazifasini pragmatik omillar o‘z zimmasiga oladi – lisoniy omillarga “ko‘maklashadi”. Masalan, [a] unlisi “quyi keng” lisoniy belgisiga ega, biroq *muallim* so‘zi tarkibida kelganda [u] unlisi ta’sirida “yuqori tor” unlisiga yaqinlashadi. Bu o‘zgarish lisoniy omil ta’sirida ro‘y beradi. Ayrim shevalarda so‘zlovchining etnik xususiyatlari bilan bog‘liq ravishda [u] unlisi [a] unlisiga moslashadi. Bunda etnik (pragmatik) va lisoniy omillar hamkorligi kuzatiladi. Nutqiy vaziyat ham lisoniy birliklarning ma’nolarini butunlay o‘zgartirib yuborishi mumkin. Masalan, salomlashuvda qo‘llanadigan *assalomu alaykum* ifodasi turli

nutqiy vaziyatlarda har xil ma’no va vazifaga ega bo‘ladi. Auditoriyaga kirgan o‘qituvchi tomonidan aytilganda, darsni boshlashga ishora vazifasiga ega bo‘lsa, o‘quvchi yoki talabalar tomonidan jo‘r bo‘lib aytilganda, ularning darsning boshlanishiga tayyorgarligi haqidagi axborot sifatida qabul qilinadi. Diniy diskursda pragmatik vaziyat taqozosiga ko‘ra bu so‘z va *rahmatullo* lisoniy ifodasi bilan birga “Sizga tinchlik va sog‘liq tilayman” mazmunida qo‘llanadi. Diskursiv vaziyat uni shu ma’noda qabul qilishni talab etadi. Buning uchun so‘zlovchining maqsadi, bilim darajasi, o‘ziga xos nutqiy vaziyat kabi omillar ko‘magiga ehtiyoj seziladi. Bunday holatlardan ko‘plab misollar keltirish mumkin. Izohli lug‘atlarimizda esa bu so‘zning “tinchlik”, “sog‘liq”, “salom yo‘llov, qutlov shakli” ma’nolaridan boshqasi izohlanmagan. Vaholanki, bu uning ko‘plab ma’nolaridan ayrimlari, xolos. Mazkur pragmatik ma’nolarning barchasi “muloqotni boshlashni bildiradigan odat ifodasi” substansial ma’nosining ko‘rinishlaridir.

Grammatik shakllarning ma’nolari voqelanishida ham lisoniy va pragmatik omillar hamkorligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, *O‘qituvchimizning kitoblarini maroq bilan o‘qidim gapidagi kitoblari* so‘zi tarkibidagi [-lari] qo‘sishchasi “ko‘plik” yoki “hurmat” ma’nosini ifodalayotganligini, boshqacha aytganda, gap bitta kitob haqidami yoki birdan ortiq kitob haqida ketayotganligini aytish qiyin. Buning uchun gapni kengroq qurshovda kuzatish, pragmatik omillarga tayanish lozim. Bundan lisoniy mohiyatli [-lari] qo‘sishchasi pragmatik omillarsiz o‘z mohiyatini namoyon qila olmasligi ma’lum bo‘ladi.

Lisoniy birliklar nutqiy xususiyatlarini pragmatik omilsiz yuzaga chiqara olmaydi, biroq bu omillar teng huquqli emas, birining ahamiyati ortishi bilan boshqasi susayadi. Ya’ni har bir lisoniy birlikning nutqiy voqelanishida uch omil (lisoniy, shaxsiy, pragmatik) mavjud, ular yaxlitligini uchburchakka, har bir omilni esa uning bir burchagiga qiyoslash mumkin. Bir burchakning kengayishi boshqasining torayishi asosida bo‘lganligi singari bu omillardan birini kuchayishi boshqalarining zaiflashuvi asosida yuz beradi. Lisoniy birliklar nutqda ba’zan pragmatik omil bilan ko‘proq bog‘ansa, gohida unga kamroq ehtiyoj sezadi.

Ko‘rinadiki, lisoniy imkoniyatning nutqdagi roli va o‘rnini pragmatik omillardan ayri holda tasavvur, tafakkur va talqin qilib bo‘lmaydi. Aniqlangan

lisoniy birliklar va ular orasidagi lisoniy munosabatlarning tadqiq darajasi ularning nutqiy voqelanishini shu yo‘sinda tekshirishni taqozo qiladi.

**Maqsad.** Ona tili ta’limining bosh maqsadi o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini yuksaltirish, tafakkur mahsulini og‘zaki, yozma shakllarda nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri, raxon ifodalash, o‘zgalar fikrini to‘g‘ri anglash ko‘nikmasini shakllantirish hamda malakasini oshirishdan iborat. O‘zbek tilshunosligining substansial-pragmatik yo‘nalishi esa ona tilidan amalda foydalanish samaradorligini ta’minlashga to‘laqonli xizmat qiladigan lingvistik ta’minotni, ma’lumotlar bankini vujudga keltirish, buning uchun tilshunoslikning barcha bo‘limlarini yaxlit holda qamrab oladigan fundamental, innovatsion, amaliy ahamiyatga ega tadqiqotlarni amalga oshirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

**Tadqiq metodologiyasi.** Har bir davr ijtimoiy talablardan kelib chiqqan holda fanlarning taraqqiyot yo‘nalishlarini, unga mos metodologik asoslarni belgilaydi. Til hodisalariga substansial yondashuv yo‘nalishi, uning metodologik asoslari haqida ham shunday fikrni aytish mumkin.

O‘zbek substansial tilshunosligi oldida lisoniy sistemalarni tashkil etuvchi sistemaviy munosabatlarni ochish, shu asosda lisoniy birliklar tabiatini va imkoniyatlarini tushuntirish vazifasi turar edi. Bu esa maxsus nazariy bilish metodologiyasi – dialektik mantiq tadqiq tamoyillari asosida amalga oshirildi. Lisoniy birliklar tabiatini, ularni birlashtiruvchi sistemaviy munosabatlar – lisoniy ziddiyatlar atroflicha tadqiq etilar ekan, bunda ko‘proq dialektikaning nisbatli kategoriyalari bilan birga, inkorni inkor, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunlariga tayanish ustuvorlik qildi. Mazkur qonunlar ko‘proq ijtimoiy hayotda hukmronlik qilgan antagonizm, sinfiylik tamoyillariga muvofiq edi. Qonunlarning uchinchisi – miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tish qonuni esa o‘zida borliq hodisalaridagi ziddiyatlarni emas, balki qutbiy “murosa”ni aks etirganligi uchun murosasizlikka asoslangan ijtimoiy hayotda o‘z metodologik maqomidan har doim “mahrum” bo‘lib keldi.

Davr talabiga ko‘ra, o‘zbek tilshunosligida lisoniy ziddiyatlarni tadqiq qilishdan, qarama-qarshi qutblarni zid qo‘yishdan ko‘ra, ularni bog‘lovchi, ziddiyatlar so‘nuvchi nuqtalarga e’tibor qaratish ustuvorlashdi. Bu ijtimoiy hayotda

dialektik miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tish qonuniga metodologik asos sifatida tayanish zarurati kuchayganligi bilan belgilanadi. Zero, masalan, mamlakatimizda ijtimoiy qatlamlar orasida hamjihatlik va hamkorlikka erishish, yangi iqtisodiy munosabatlarga bosqichma-bosqich o‘tish taraqqiyotimizning asosiy tamoyillaridan biridir.

**Falsafiy metodologiya.** Bugungi kunda ochiq sistemalarni tadqiq qilishda dialektik metodologiyaga sinergetik yondashuv falsafiy metodologiyasi hamkorlik kilmoqda. Lisonning voqelanishi sifatidagi nutq o‘zida tartib va xaosni aks ettiradi.

Nutq, avvalo, fikr mahsulidir. Tafakkur qabul qilingan tashqi axborotni qayta ishslash, nutq uchun fikr tayyorlash vazifasini bajaradi. Bu jarayon maqsadli yoki maqsadsiz kechishi mumkin. Biror mo‘ljal asosidagi fikr maqsadli, shunchaki xayol ko‘rinishidagi tafakkur maqsadsiz faoliyat hisoblanadi. Ularning muloqot jarayonidagi ko‘rinishi bo‘lgan nutq ham shunday ko‘rinishlarga ega bo‘ladi. Fikrlash jarayoni kamdan-kam holarda chiziqli kechadi, ko‘p hollarda nochiziqli tus oladi. Nihoyasi ma’lum bo‘lgan fikrlash jarayoni chiziqli va natijasi noma’lum bo‘lgan fikrlash jarayoni esa nochiziqli jarayondir. O‘y-fikrni tashkil etuvchi tushunchalarning oldindan mavjudligi, ularning imkoniy bog‘lanishlarga egaligi, biri ikkinchisini taqozo qilishi ma’lum bir qonuniyatlar asosida kechishi fikr va uning ifodasi bo‘lgan nutqning chiziqlilik xususiyatiga egaligini ko‘rsatadi.

Nutq o‘zini tashki etuvchi lisoniy qonuniyatlar asosida namoyon bo‘lishi tartibning yaqqol ifodasidir. Semantik mos bo‘lmagan leksema va morfemalarning birika olmasligi, sintaktik qolipga har qanday lisoniy birlikning tusha olmasligi lisoniy qonuniyatlar asosida tartibning namoyon bo‘lishiga dalildir. Ammo nutq har doim ham ana shu tartibning ro‘yobi emas, albatta. Leksemalarning ko‘chma ma’nolarda qo‘llanishi, okkazional ma’no, vazifalarning muqarrarligi, sintaktik qoliplarning inversiya (tartib o‘zgarishi) asosida “buzilish” jarayonlarini boshidan kechirishi, nutq vaziyati, sharoiti ta’sirida ifoda jarayonining kutilmagan tus olishi kabilar xoasnning yuz berishiga misol bo‘la oladi.

Har qanday xususiylikning vaziyat, sharoit bilan moslashuvi uchun o‘z umumiyligidan ma’lum darajada uzilishi, boshqa xususiyliklar bilan “murosa qilishi” natijasida o‘zi bilan umumiyligi orasida muayyan to‘siq vujudga kelgandek

tasavvur paydo bo‘lishi tabiiy. Bu go‘yoki tartib (umumiylilik) ning inqirozi, uning o‘rnini xaosning yuz berishi sifatida baholanishi mumkin. Biroq har qanday jonli sistemaning tashqi muhit hamda “sistemadoshlari” bilan munosabati shunday kutilmagan oqibatlarga olib kelishi shubhasiz. Mazkur holat barcha fanlarning tadqiq manbalarini real voqelanishda kuzatish jarayonida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa dialektik metodologiya bilan birga, tadqiq manbaidagi ana shunday tartib va “tartibsizlik” munosabatini o‘rganadigan sinergetik metodologiyaga ham tayanish lozimligini ko‘rsatadi.

**Umumfan tabiatli metodologiya.** Nutq – ochiq va o‘zini tashkil etuvchi sistema. Sistemalarning fandagi tadqiqi sistem yondashuv, sistemaning turli maxsus nazariyalari, sistem tahlil usullari asosida amalga oshiriladi. Qanday bo‘lishidan qat’i nazar, umumiyligi (mavhum) sistema ong bilan aloqador, ma’lum ma’noda “ong mahsuli”. Bu borliqda umumiyligi narsa yoki hodisa yo‘qligi, borliq hodisalari har doim yakkalik, qaytarilmaslik, takrorlanmaslik belgisiga egaligi bilan ham izohlanadi. Shunday bo‘lsa-da, umumiyligi va xususiy sistema mavjudligi e’tirof etilib, biri inson omili bilan bog‘liq ravishda, ikkinchisi undan tashqarida yashashi e’tirozga sabab bo‘lmaydi. Umumiyligi sistema insoniy kognitsiya mahsuli, u tafakkur bag‘rida vujudga keladi, taraqqiy etadi – “rivojlanadi”.

Sistemaviy yondashuv ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan, tilshunoslikda asosiy diqqatini mavhum sistema – umumiyligi tizimlarning mavjudlik, yashash qonuniyatlarini tadqiq qilishga qaratib keldi. Ammo umumiyligi va xususiy sistemaning dixotomik munosabati, o‘zaro ziddiylik aloqasi kabi masalalar ko‘p hollarda nazardan chetda qoldi. Masalan, tilshunoslikda tilning jonli voqelanishi bo‘lgan nutqni sistema sifatida olish, uning sistemaviy tabiatini, sistema sifatida yashash qonuniyatlarini ochish urf bo‘lgan emas. Holbuki, lisoniy sistema, uning unsurlari nutq jarayonida o‘zining sistemaviy “mohiyati”ni ayrim hollarda yo‘qotadi. Har qanday nutqiy hosila muvaqqat, ochiq sistema bo‘lib, uning tashkil etuvchilari bo‘lgan lisoniy va nolisoniy unsurlar o‘zlarining mavhum sistemalaridan ajraladi – jonli sistemani tashkil qiladi.

Boshqa dinamik tizimlar kabi nutq ham ochiq sistema, ularni tashkil etuvchi unsurlar geterogen tabiatli. Ochiq sistemalar rivojlanuvchi va o‘zini o‘zi tashkil

etuvchi tizimlar bo‘lganligi tufayli bunday sistemalarni ilmiy tadqiq etishda umumiy sistema nazariyasining tarkibiy qismi bo‘lgan ochiq sistemalar nazariyasi umumfan mohiyatli metodologik asos vazifasini o‘taydi.

**Lingvistik metodologiya.** Zid qutblarni birlashtiruvchi nuqtalarga e’tibor qaratish ehtiyoji o‘zbek substansial tilshunosligini yangi sifat bosqichiga ko‘tardi. Natijada miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tish qonuniga tayanuvchi lingvistik xarakterdagi graduonimik (graduonimiya – “darajalanish” ma’nosida) metodologiya shakllana boshladi. Bu muammo bo‘yicha o‘zbek tilshunosligida doktorlik, nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi va o‘zbek fanida ochilgan bu qonuniyat zamonaviy g‘arb lug‘atchilik amaliyotiga muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda.

Lisoniy birliklar orasidagi uzlucksizlik (graudonimik) munosabati ijtimoiy hayotdagi rivojlanishning bosqichma-bosqichli ko‘rinishiga mos keladi. Zero, yangi sifat o‘zgarishlariga bosqichma-bosqich o‘tish, jamiyat hayotidagi izchil islohotlarni shu asosda tashkil etish davlat va fuqarolarning manfaatlariga mos tushadi, taraqqiyotning ilg‘or yo‘li hisoblanadi. Masalan, bu tilshunoslikda [a] unlisidan birdan [o] unlisiga o‘tish rivojlanishning inqilobiy turiga mos bo‘lsa, [a] unlisidan bosqichma-bosqich [o] unlisiga o‘tish taraqqiyotning tadrijiy yo‘liga uyg‘un. Astasekin miqdor o‘zgarishlari yo‘li bilan sodir bo‘ladigan sakrashlar eskini bir yo‘la tugatish emas, balqi uzoq davom etgan eski sifatni yangi sifatga aylantirish demakdir. Bir ma’no va vazifaga xoslangan turli til birliklarini darajalanish qonuniyati asosida farqlash, bu farqlardan nutqda pragmatik yo‘sinda foydalanish nutq sifatiga jiddiy ta’sir qiladi.

Demak, dialektikaning ushbu qonunining mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglash, amaliyotga ham to‘g‘ri tatbiq qilish asosida shakllangan lingvistik graduonimik metodologiya nutqiy sistemalarni tadqiq qilishda katta amaliy va nazariy ahamiyatga ega.

Substansial-pragmatik aspektda olib borilayotgan tadqiqotlar bevosita amaliy tatbiqqa ega bo‘ladi. O‘zbek tilidan muloqot jarayonida amaliy foydalanishning nazariy asoslari yaratiladi, innovatsion asoslari ishlab chiqiladi, amaliy tavsiyalar beriladi. Shu asosda ona tili ta’limi uchun nutqiy faoliyat samadorligini oshirishni

ta’minlaydigan ilmiy mexanizm ishlab chiqiladi. Pirovardida o‘zbek tilshunosligida nutq samaradorligiga erishishning amaliy masalalari bilan shug‘ullanuvchi fan yo‘nalishlarining nazariy asoslari vujudga keladi.

### ***NAZORAT SAVOLLARI:***

1. Ona tili o‘qitish metodikasi va uni o‘qitishda grammatik ma’lumotlar mazmuni haqida so‘zlang.
2. Ona tili ta’lim maqsadi haqida gapiring.
3. Ona tili ta’lim usulini bayon qiling.
4. Ona tili ta’lim vositalarini sanang va sharhlang
5. Oliy ta’limda o‘zbek tilini formal o‘qitish natijalari qanday?
6. Oliy ta’limda o‘zbek tilini substansial o‘rganish natijalari haqida gapiring.
7. O‘zbek tili o‘qitish muammolari haqida bayon qiling.

### ***FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:***

1. Степанов Ю.С. Методы и принципы современной лингвистики. – М., 2001.
2. Rasulov R. Umumiyl tilshunoslik. – Toshkent, 2011.
2. Нурмонов А. Лингвистик белги назарияси. – Тошкент: Фан, 2008.
3. Абдуазизов А.А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси.- Тошкент: Университет, 2010.
4. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г. Нозирги ўзбек адабий тили: Дарслик. – Тошкент, 2004.
5. Намид Неъматов, Бахтиёр Менглиев. Тилшуносликнинг фалсафий масалалари. – Тошкент, 2015.
6. Ножиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010.

**3-MAVZU:**

**O‘ZBEK AN’NAVIY AKADEMIK GRAMMATIKASI. AMALIY  
TILSHUNOSLIK MUAMMOLARI**

**REJA:**

- 1. O‘zbek tilidan amaliy foydalanish samaradorligi vazifalari*
- 2. Filologiya va uning turlari*
- 3. Amaliy filologiya bakalavri*
- 4. Amaliy filologiya magistri*

**Tayanch so‘z va iboralar::** *bashkir, boshqir, “Matn tahriri”, “Kommunikatsiya asoslari”, “Lingvistik ekspertiza”, “Kalligrafiyashunoslik asoslari”, “Matn ustida ishlashning filologik asoslari”, “Kasbiy faoliyatning axborot texnologiyalari”, “Kasbiy kommunikatsiyaning filologik ta’minoti”, “Amaliy leksikografiya”, “Til korpusi”, “Informatika”.*

Milliy o‘zlikni anglashdagi qutlug‘ qadamlarimizdan biri bo‘lgan va qabul qilinganining 26 yilligi nishonlanayotgan “Davlat tili to‘g‘risidagi”gi Qonunning o‘tgan davrda bergen ulkan natijalari va samarasi beqiyos. Bu davrda o‘zbek tili o‘z tarixida misli ko‘rilmagan yutuqlarga erishdi. Qonuning tarixiy ahamiyati shundaki, u o‘choqboshi va ko‘cha-ko‘y tili darajasiga tushib borayotgan ona tilimizning barcha jabhalarda keng amalda bo‘lish, ilmiy, rasmiy, badiiy, ijtimoiy, sohaviy uslubiyati va terminologiyasini rivojlantirish, davr bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini keskin oshirdi, tilimizga mutlaqo yangi ruhbag‘ishladi; ichki imkoniyatlarining to‘la voqelanishi va uzlusiz taraqqiyoti uchun ijtimoiy shart-sharoit yaratdi. Hozirgi kunda o‘zbektili fan va madaniyatning barcha – qonunchilikdan boshlab, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nutqigacha bo‘lgan ehtiyojlarini to‘la-to‘kis qondirish darajasiga intilmoqda. Qonun sharofati bilan o‘zbek tili tashqi funksional imkoniyatlari doirasining kengayishi respublikamizda ona tili ta’limi mazmuni, maqsadi va usulini tubdan yangilash zaruratini tug‘dirdi. Pirovardida “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” ning hayotga tatbiqi samarasi o‘laroq qabul qilingan DTSlarida ona

tilini umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’limda o‘qitish mana shu yo‘nalishda tubdan isloh qilindi va bu davom etmoqda.

**O‘zbek tilidan amaliy foydalanish samaradorligi vazifalari.** Jamiyat taraqqiyotining ma’lum bir pallasida har bir fan bo‘yicha ta’limning qaysi bosqichida nimani, nima maqsadda va qay yo‘sinda o‘qitish masalasi umummilliy muammo darajasiga ko‘tariladi. Natijada muammo yechimiga jamoatchilik diqqat-e’tibori qaratiladi, tegishli soha ilmiy salohiyati bu muammo yechimiga yo‘naltiriladi. Ta’lim maqsadi belgilanib, ta’lim mazmuni tayyorlanadi, shunga muvofiq ta’lim usuli ishlab chiqiladi.

O‘tgan asrning 90-yillariga kelib mavjud ona tili ta’limining yaroqsiz holga kelib qolganligi, uni tubdan isloh qilish lozimligi, ta’lim maqsadi, mazmuni va usulini yangilash zarurati ayon bo‘lib qolgan edi. Chunki O‘zbekiston taraqqiyotning ijtimoiy himoyaga asoslangan bozor iqtisodiyoti yo‘lini tanladi. Mulkchilik munosabatlari qaror topib, jamiyat a’zolari ongida boqimandalik kayfiyati, fikriy tanballik hissi o‘rnini iqtisodiy tafakkur, tadbirkorlik, yo‘qdan bor qilish, ichki imkoniyatlarni ishga solish istagi egallashi, aql-idrokka qudratli yaratuvchi kuch sifatida qarash, chetdan madad kutmaslik tuyg‘usi shakllanishi zarur edi. Yangidavr **bilimli shaxsgagina emas, balki bilim olish yo‘llarini puxta o‘zlashtirgan, mustaqil idrok qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan ongli fuqaroga ehtiyoj** sezdi. Natijadamamlakatimiz istiqlolining ilk yillardayoq ta’limning umumiy maqsadi negiziga mustaqil ijodiy fikrlovchi hamda yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalash mo‘ljali qo‘yildi. Ta’limning umumiy maqsadi esa har bir fan o‘z maqsad va vazifalarini belgilab olishni taqozo etadiki, bu, xususan, umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturida berilgan ona tili ta’limi maqsadida o‘zining yaqqol ifodasini topdi. Ta’lim o‘quvchining ongli va faol ravishda o‘z malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishiga, ta’lim usuli, mazmuni hamda ta’lim vositalari ana shu vazifalarning aniq va puxta bajarilishiga yo‘naltirildi. Biroq yangi davr talablari asosida ta’limda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullarga ustuvorlik berilishiga qaramasdan, til qurilishi haqida ko‘p hollarda amaliy tatbiqdan yiroq, kam samarali lingvistik bilimlar berishdan iborat eski va chayir an’ana hanuz saqlanib qolmoqda.

Mubolag‘asiz ravishda aytish mumkinki, bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda deysizmi, tayanch sinflar yoki akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida deysizmi, til qurilishi bo‘yicha beriladigan bilimlar hissasiona tilidan amaliy foydalanishkompetensiyasidan ancha ustunlik qiladi. Ahvol shu darajaga yetdiki, chuqurroq e’tibor berilsa, **ona tili ta’limi maqsadi ijodiy tafakkur sohibi va til imkoniyatini egallagan shaxsni tarbiyalash emas, balki tilshunos olimni yetishtirishga o‘xshab qoldi.**

Yangi asrda jamiyatning barcha sohalarini shiddat bilan qamrab olayotgan globallashuv jarayoni dunyo miqyosida tilshunoslikning ham, til ta’limining ham zimmasiga yangidan-yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Davr tildan amaliy foydalanish samaradorligini fanning ham, ta’limning ham asosiy vazifasiga aylantirib qo‘ydi. Natijada dunyo fanidatilning ichki qurilishini tavsiflaydigan quruq nazariyabozlikdan til va shaxs mushtarakligi masalasi bilan shug‘ullanadigan **amaliy yo‘nalishlariga o‘tishto‘lqini kuch olmoqda.** Til ta’limi ham amaliy xarakter kasb etib, umuman olganda, filologiya va til o‘qitishsohasidata’lim oluvchilarining muayyan nutqiy vaziyat, sharoit va madaniy muhitda tildan oqilona, samarali foydalanish kompetensiyasini rivojlantirish va uning filologik ta’minotini vujudga keltirish masalasi bilan shug‘ullanishi **yechimini mutlaqo kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifaga aylandi.**

**Filologiya va uning turlari.** Filologiya fan sohasi sifatida til va adabiyot bilan bog‘liq nazariy, ta’limiy va amaliy masalalar bilan shug‘ullanadi. Dunyo miqyosida filologiya sohasiningbir necha turi mavjud bo‘lib, har bir filologik faoliyat turi ijtimoiy hayotdagi tegishli muammolar bilan bog‘liq o‘ziga xos maqsad va vazifalarga ega.

**Nazariy filologik faoliyattilshunoslik** va adabiyotshunoslik bo‘yichafundamental bilimlarni egallah asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish, mavjud nazariy filologik konsepsiylar va alohida lisoniy, adabiy va hodisa va jarayonlar, turli shakldagi matnlarni turli nazariy hukm va xulosalar chiqarish uchun tahlil va talqin qilish, umumlashtirish, tegishli ilmiy ma’lumotlarni to‘plash, olib borayotgan tadqiqot bo‘yicha annotatsiya, referat tayyorlash, bibliografiya tuzish, mavzu va soha bo‘yicha ilmiy munozara, himoya va muhokamalarda ishtiroy etish,

axborot va ma’ruzalar bilan chiqish qilish, ilmiy xulosalarni og‘zaki, yozma va virtual tartibda (axborot tarmoqlariga) taqdim etish kabilarni o‘z ichiga olib, bu vazifalar vatanimiz filologiya sohasining bosh nazariy yo‘nalishi doirasida birlashdihamda, asosan, amaliy tatbiq bosqichigacha bo‘lgan faoliyat hisoblanadi.

**Ta’limiy filologik faoliyat** dailmiy-tadqiqot faoliyati natijalariga tayanib, oliy, umumta’lim va kasbiy ta’lim muassasalarida til va adabiyot bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari va sinfdan tashqari ishlarni bajarish, tegishli metodika asosida ona tili va adabiyot bo‘yicha mashg‘ulotlar va sinfdan tashqari ishlar uchun o‘quv-metodik materiallar tayyorlash, filologik bilimlarni va o‘quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni ommalashtirish va tarqatish bilan shug‘ullaniladi.

Mamlakatimizdagи bu ikki filologik faoliyat turi natijalarini bemalol rivojlangan davlatlar ilmi va ta’limi samaradorligi darajasida deyish mumkin.

Shuningdek, bugungi kunda rivojlangan davlatlarda filologik faoliyatning uchinchi bir sohasi – **amaliy filologik faoliyat** turi ham shakllanib ulgurdi va jadal rivojlanmoqda. Amaliy filologik faoliyat turi bo‘yicha mutaxassis kadrlar tayyorlanmoqda, ko‘plab amaliy lingvistik tadqiqotlar bajarilmoqda. Nazarimizda, respublikamiz iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalaridagi yuksalish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez rivojlanayotganligi bizda hamamaliy filologik ta’lim va faoliyatni, bu borada istiqbolli va maqsadli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilishini rasman yo‘lga qo‘yish hamda har tomonlama rivojlantirish o‘ta dolzarb vazifalardan.

**Amaliy filologik faoliyat – ijtimoiy zarurat.** Amaliy filologik ta’limni yo‘lga qo‘yish, amaliy filologik faoliyat olib borish va bunga doir tegishli tadqiqot ishlarini amalga oshirish ehtiyoji ijtimoiy hayotimizda ancha ilgari vujudga kelgan edi. Bunga doir ayrim dalillarni keltiramiz.

**1-voqeа.** Ko‘p yillar ilgari inson huquqlari bo‘yicha Ombudsman idorasidan meno‘sha vaqtarda mudirlik qilayotgan kafedraga bir shikoyatda ko‘rsatilgan masalaga tilshunos ekspert sifatida munosabat bildirishi so‘ralgan murojaat xati kelib tushdi. Unda shikoyatchi yangi pasport olganligi, pasportning tegishli bo‘limida uning millati “boshqird” deb yozilganligi, lekin u bashkir millatiga mansub ekanligini aytib, *bashkir* so‘zining o‘zbek tilida *boshqirddeb* yozilishiga

izoh berishni so‘ragan edi. Bir qarashda rus tilidagi *bashkir* so‘zining o‘zbek tilida *boshqird* shaklida berilishini izohlash jo‘ngina tuyulsa-da, shugina muammo yechimi uchun ham ancha ter to‘kishga to‘g‘ri kelgan edi. Bunda quyidagilarga e’tibor berilishi lozim edi:

*birinchidan*, manbalardan so‘zning genezisi, etimologiyasi, boshqa tillarga o‘zlashishi, o‘zlashtirgan tilning talaffuz va imlo imkoniyat hamda xususiyatlarini o‘rganish, asoslash va muayyan xulosalarga kelish;

*ikkinchidan*, xulosalarni ilmiy yo‘sinda emas, balki rasmiy-idoraviy uslubda qisqa, aniq va tushunarli, mantiqli bayon qilish;

*uchinchidan*, xulosa berish uchun lingvistik ekspertiza bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lish.

Masalaning uchinchi jihatni men uchun qiyin bo‘lib, lingvistik ekspertiza bo‘yicha ma’lumotga ega emas edim. Natijada maxsusizlanishga to‘g‘ri keldi va dunyo miqyosida lingvistik ekspertiza tilshunoslikning muhim hayotiy tarmog‘i bo‘lgan yurislingvistikaning o‘zagi sifatida katta yutuqlarni qo‘lga kiritganini va amaliyotda sud-ekspertiza sohasining muhim tarkibiy qismiga aylanib ulgurgananini, bu borada ulkan amaliy tadqiqotlar bajarilganligi va ta’limda tegishli yo‘nalish va mutaxassisliklar uchun ko‘plab o‘quv adabiyotlari yaratilganligini ko‘rib, bu sohani mamlakatimizda ham yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish zarurligi haqidagi fikrga kelgan edim.

**2-voqeа.** Ikki kishi janjallashib qolishgan, ulardan biri ikkinchisini “eshshak” deb haqorat qilgan bo‘lib, ish sudgacha borgan,tomonlardan biri hadeb o‘zining hayvonga tenglashtirilganligida turib olgan edi. Shunda sud “eshshak” so‘zining ma’nosiga lingvistik sharh berishni so‘rab filologga murojaat qilindi. Suddamutaxassisning *eshshak* so‘zi hayvonni emas, balki (*eshaksifat*) odamni ifodalashi, hayvonga nisbatan esa bir “**sh**” tovushiga ega *eshak* so‘zi qo‘llanilishini tegishli imlo va izohli lug‘atlar, boshqa ilmiy manbalarni asos qilib ko‘rsatgan holda bergen xulosasihal qiluvchi ahamiyat kasb etgan edi.Lekin mutaxassisning lingvistik ekspertiza bilan shug‘ullanish huquqi yo‘qligi masalani chigallashtirgan edi. Zero, uning mutaxassisligi malaka talablarida qayd etilmagan edi.

**3-voqeа.** Hamkasblarimizdan biri o‘zi guvoh bo‘lgan quyidagi voqeani aytib

bergan edi. Olim ishlaydigan O‘zbek tilshunosligi kafedrasiga bir kishi kelib, o‘zini tergovchi deb tanishtiradi va bir masalada yordam berishlarini so‘raydi. Ma’lum bo‘lishicha, o‘z joniga qasd qilgan bir kishi xat qoldirgan bo‘lib, unda hayotdan o‘z xohishi bilan ketayotgani, bunda hech kimni ayblamasligi aytilgan. Tergovchiga shu xat borasida lingvistik xulosa zarur ekan. Xatni marhum o‘z qo‘li bilan yozgani aniq, biroqu o‘z hohishi bilan yozganmi, birov majburlaganmi, yozish jarayonida uning ruhiy holati qanday bo‘lgan –ana shularni oydinlashtirmoqchi ekan. Shunda hamkasbim bunday savollarga javob berish imkoniy yo‘qligi, u bilan tilshunoslik shug‘ullanmasligini aytadi. Tergovchi esa o‘zining Moskvada tahsil olganini va amaliyot chog‘ida shunga o‘xhash muammolar bilan mutaxassislar Moskva davlat universitetining filologiya fakultetiga tez-tez murojaat qilishlariga guvoh bo‘lganini, fakultet talabalariga “Sud lingvistikasi” fani maxsus o‘qitilishi, bunday kadrlarga ehtiyoj kattaligi va maoshlari ham yuqori ekanini aytadi.

**4-voqeа.** Bir vaqtlar G‘arb mamlakatlarida bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari bilan tanishishga to‘g‘ri kelganda, “Tovar yorliqlarida harf shakllarining inson psixikasiga ta’siri”, “Tashqi reklamatarda vizual urg‘u”, “Falon temperamentli shaxsnинг nutqi” kabi mavzularda doktorlik dissertatsiyalari himoya qilinganligi, ular tegishli korxonalar tomonidan ancha yaxshi moliyalanganligini bilib, bizda ham shunday ishlarni bajarish vaqt kelganligi haqidagi fikrga kelgan edim. Magistrlerlarga shu yo‘nalishdagi mavzularni rejorashtirganimda, ularkengash tomonidan tomonidan “tor”, “nazariy jihat yo‘q”, “jiddiy mavzular emas” degan ayblar bilan inkor qilingan edi. Lekin ko‘p o‘tmay inkor etuvchilar tarafida turganbir hamkasbimizning matbuotdagи jamoat transportlaridagi “LITSENZIYASIZ” yo‘lovchilarni tashish taqiqlanadi” lavhasidagi *litsenziya* so‘zi butunicha bosh harflarda berilganda “litsenziyasiz yo‘lovchi” ma’nosini anglatmasligi haqidagi chiqishi amaliy tadqiqotning yorqin namunasi edi.

Kundalik hayotda tilning amaliy qo‘llanilishi bilan bog‘liq ko‘plab ishlarni bajarishimizga to‘g‘ri kelgan. Turli hujjatlarni tayyorlash, matnlar tahriri, lug‘at va qomuslar tuzish yoki ularga munosabat bildirish va h. Bu ishlarning birortasi bo‘yicha maxsus ma’lumotimiz yo‘q va ularni bajarishda hayotiy tajribamiz asosida ish ko‘rib kelamiz. Masalan, matn tahriri bo‘yicha maxsus dasturlashgan

ma’lumotga ega bo‘lmagan an’anaviy filologlar tahrir ishlarini amalga oshiradilar, lekin ehtiyojmand kishiga bu bo‘yicha tizimli va umumiyligi mohiyatli maslahat berishda qiynalishadi. Tayyorlanayotgan filologlarimiz lug‘at va qomuslar tuzish yoki ularning elektron ko‘rinishlarini tayyorlash bo‘yicha hech qanday amaliy ma’lumotlarga ega bo‘lmagani holda (tayyorlanayotgan mavjud yo‘nalish va mutaxassisliklardan buni talab qilish ham to‘g‘ri emas) bugungi kunda kitob rastalarini son-sonog‘i yo‘q sifatsiz lug‘at va qomuslar, so‘zliklar bosib ketayotganligidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Hozir bizda istagan kishi lug‘at tuzishi va bundan istihola qilmasligi mumkin, bu lug‘atchilik amaliy filologianing peshqadam sohasi sifatida rasman mutlaqo yo‘lga qo‘yilmaganligi, oliy filologik ta’lim tarkibida lug‘atchilik ta’limi yo‘qligi bilan bog‘liq.

Ijtimoiy hayotimizda amaliy filologik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi kadrlarga kuchli ehtiyoj mavjudligi yuqorida umumiyligi tarzda aytildi. Deylik, til dalillarini ilg‘or metodlar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yig‘ish va ishlov berish, (qayta ishslash, saqlash, tuzatish, tahlil qilish, sharhslash va umumlashtirish), samarali metodika va me’yorlar asosida turli xildagi matnlarni yaratish (og‘zaki chiqish, umumiyligi ma’lumot, annotatsiya, referat, muxtasar bayon, hisobot, rasmiy ish, publitsistik, reklama matnlarini tayyorlash), korxona tashkilot va muassasalarda rasmiy idora hujjatlari bilan ishslash, turli shakl va tipdagi matnlarni qayta ishslash va ularga ishlov berish (tekshirish, tuzatish (korrektirovka, tahrir), tushuntirish, bayon qilish, sistemalashtirish, umumlashtirish, referat tuzish), sharhlar tayyorlash, ensiklopediya va lug‘atlar tuzish, lisoniy va adabiy ma’lumotnomalarni yaratish, davriynashrlarni tayyorlash, adabiy-tanqidiy jarayonga doir arxiv materiallarini tavsiflash va ularga ishlov berishda qatnashish, turli tipdagisi (asosan ilmiy va publitsistik) matn va hujjatlarni chet tillardan va chet tillarga tarjima qilish, hujjatlar, ilmiy va badiiy materiallarning chet tillardagi referat va annotatsiyalarini tuzish, ommaviy va shaxslararo ag‘zaki, yozma va virtual muloqotni, shu jumladan, madaniyatlararo, millatlararo va xalqaro lingvomadaniy aloqalarni amalga oshirish sifatiga bo‘layotgan ijtimoiy ehtiyoj maxsus amaliy filologik kompetensiyaga ega kadrlarni tayyorlashni taqozo qiladi. Amaliy filologik kompetensiya tarkibiga kiruvchi bu vazifalarni maqsadi va yo‘nalishi boshqa

bo‘lgan nazariy yokita’limiy filologik faoliyatga yo‘naltirilgan kadrlardan talab qilishixtisoshuv kuchaygan bugungi zamonda to‘g‘ri emas.

Amaliy filologik faoliyat turi tizimli amaliy filologiya bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash maqsadli ta’limini yo‘lga qo‘yish asosida shakllantiriladi. Bunda ham ta’limning uzviyligi va uzlusizligi tamoyili yetakchilik qiladi – har bir ta’lim bosqichi oldiga qo‘yilgan talablar asosida ta’lim maqsadi, mazmuni va usullari tizimi shakllantiriladi.

**Amaliy filologiya bakalavrining professional kompetensiyasi.** Amaliy filologiya bakalavridan, filologyaning barcha turi uchun mushtarak bo‘lgan umumfilologik kompetensiya bilan birga, xususiy malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi talab etiladi. Ularda amaldagi me’yor va metodlar asosida turli xil va turdagи matnlarni yaratish mahorati shakllanadi. Shuningdek, turli tipdagi matnlarni qayta ishslash, ularga ishlov berish, masalan, tuzatish, tahlil va tahrir qilish, sharhslash, annotatsiyalash, referatlashtirish, tavsiflash kabi amallar professional kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayniqsa, millatlararo integratsiya jarayoni kuchayayotgan bir sharoitda turli tipdagi, ya’ni rasmiy, ilmiy, badiiy va publitsistik matn hamda hujjatlarni boshqa tillardan ona tiliga, ona tilidan boshqa tillarga sifatli tarjima qilish professional uquv va malakani talab chiladi. Matnlarning mukammal lingvistik ekspertizasi esa sud-ekspertiza ishi sifati oshishiga ko‘maklashadi. Amaliy filologiya bakalavrining, shu bilan birga, ta’limiy, ilmiy madaniy-oqartuv tashkilotlari, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-tashkiliy idoralar, bosmaxonalar, jamoaviy va aloqa sohalariga doir turli tipdagi loyihalarni ishlab chiqish va joriy qilish kabiamaliyotlarda namoyon bo‘ladigan professional bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi davr talabidir.

Amaliy filologiya bakalavrinda professional kompetensiyani shakllantirish uchun ixtisoslik fanlari tarkibida, umumfilologik fanlar bilan birgalikda, so‘f amaliy maqsad va mazmundagi “Matn tahriri”, “Kommunikatsiya asoslari”, “Rasmiy hujjatlar tilining amaliy masalalari”, “Lingvistik ekspertiza”, “Kalligrafiyashunoslik asoslari”, “Matn ustida ishslashning filologik asoslari”, “Kasbiy faoliyatning axborot texnologiyalari”, “Kasbiy kommunikatsiyaning filologik ta’minoti”, “Amaliy leksikografiya”, “Til korpusi” kabi o‘quv kurslarining joriy etilishi maqsadga

muvofiq. Bunda, shuningdek, “Informatika” kursi, an’anadigan farqli ravishda, axborot olish va uzatishning innovatsion texnologiyalari mazmunida bo‘lmog‘i lozim. Nutq hosil qilish nazariyasi sifatidagi “Psixolingvistika” kursi amaliy xarakter kasb etishi va “Nutq psixologiyasi” shakli va mazmunida bo‘lishi zarur.

Amaliy filologiya yo‘nalishi bitiruvchilarning bozor talablariga moslashuvini inobatga olib, ularda qo‘shimcha nazariy va ta’limiy filologik kompetensiyalarni shakllantirish ham ko‘zda tutiladi.

**Amaliy filologiya magistri.** Amaliy filologiya mutaxassisligi soha bo‘yicha malakali ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlaydi va va bo‘lajak tadqiqotchilarda ilmiy izlanish kompetensiyasiga urg‘u beriladi. Shu boisdan ularning ixtisoslik bo‘yicha professional kompetensiyasi amaliy filologiyaga doir yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyot yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilish, sohadagi fundamental, innovatsion va amaliy tadqiqot ishlarini olib borish, shu xil tadqiqot ishlari metodologiyasini aniqlash, tanlash, egallash va ishlab chiqa olish, amaliy filologiyaning amaliy va nazariy masalalarini yechish uchun “ishlaydigan” ilmiy xulosa va tavsiyalar berish, axborot texnologiyalaridan unumli va samarali foydalanish, sohaga oid davr talablaridan kelib chiqayotgan muammolarning nazariy va amaliy yechimlarini belgilash, bajarayotgan tadqiqotlari mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish bilim, ko‘nikma va malakalar markaziy o‘rinni egallaydi. Amaliy muammolarning nazariy asoslarini o‘rganish, ularning muayyan sohalardaganiq yechimini yaratish uchun ilmiy-tadqiqot muassasalari, vazirlik va idoralar, ilmiy va maslahat markazlarida faoliyat olib borish, ilmiy seminar, ilmiy-texnikaviy konferensiyalarda ishtirok etish, tegishli muammolar doirasida ilmiy manbalarni yaratish kabilarda namoyon bo‘ladi. Amaliy filologiya magistri ixtisoslik kompetensiyasi esa amaliy filologiya masalalari yuzasidan, birlamchi manbalarga suyangan holda, innovatsion va fundamental tadqiqotlar olib borish, sohaning nazariy va amaliy muammolarini bilish, davr uchun dolzarb, hali ishlanmagan mavzularni aniqlay olish malakasiga ega bo‘lish, ilmiy-tadqiqotlarni bajarish va yangi ilmiy hamda amaliy natjalarni olish qobiliyatiga ega bo‘lish, zamonaviy tadqiqot metodlari va metodologiyasini, turli tadqiqot metodlari va metodologiyalarining qiyosiy tavsifini, hozirgi zamon amaliy filologiyasiga doir

nazariy qarashlarni o‘zlashtirish, yetakchi konsepsiylar, ilg‘or nazariyotchilarning asarlaridan foydalanish, yechilayotgan ilmiy muammo va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo‘lish kabi bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z ichiga oladi.

Amaliy filologiya mutaxassisligi ta’limi, bakalavriat bosqichining uzviy davomi sifatida, unda hosil qilinadigan kompetensiyani ixtisoslashgan nazariy ko‘nikma va malakalar bilan boyitadi. Shu boisdan mutaxassislik o‘quv predmetlari tarkibida “Matn nazariyasi”, “Diskursologiya”, “Kommunikatsiya nazariyasi”, “Devonxona xizmati”, “Sud lingvistikasi”, “Jahon leksikografiyasi”, “Neyrolingvistika”, “Korpus lingvistikasi”, “Rasmiy muloqot etikasining lingvistik asoslari” singari kurslarning bo‘lishi maqsadga muvofiq.

**Amaliy filologik tadqiqotlar.** Bugungi kunda tilshunoslik bo‘yicha aksariyat tadqiqotlarning umrini o‘tab bo‘lgan talab va mezonlar asosida bajarilishi, tadqiqot xulosalarining zaruriy samaradan xoliligi, “til o‘zida”, “til til uchun”, “tadqiqotlar tilshunoslik uchun” yoki g‘arbgaga taqlid ko‘rinishidagi “zamonaviy” tamoyillarning chayir illat sifatida ildiz otganligi, tilshunoslikda ijtimoiy hayotdagi yechimini kutayotgan muammolarni ko‘ra olmaslik fanning hayotdan, jonli amaliyotdan uzilib qolishiga olib keldi. Bu ayrim hollarda o‘zbek tilshunosligi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga daxldor emasdek tasavvurlar vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Holbuki, milliy taraqqiyot ma’naviy yuksalish demakdir, ma’naviy yuksalish esa til bilan baravar yuz beradi va undan ajralgan bo‘lishi mumkin emas. Amalga oshirilgan tadqiqotlarda allaqachon yechilgan muammolarning juz’iy qirralariga “dolzarblik” tusini berishdan tilshunoslikning ijtimoiy taraqqiyotga to‘siq bo‘layotgan muammolarini aniqlash, ularni kompleks hal qilishga o‘tish, davlatning fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar uchun ajratayotgan moliyaviy mablag‘laridanoqilona foydalanish maqsadga muvofiq. Bu esa amaliy filologiya bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlashni, amaliy filologik tadqiq ishlarini kuchaytirishni taqozo qiladi. Til egalarining lisoniy imkoniyatlardan pragmatik foydalanish samaradorligi masalalari bilan shug‘ulladigano‘zbekamaliy tilshunosligining milliy xarakterdagи sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, pragmalingvistika, lingvokognitologiya, lingvokulturologiya,

neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi, sud lingvistikasi kabi zamonaviy fan yo‘nalishlari rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyot talablari bilan uyg‘un.

### ***NAZORAT SAVOLLARI:***

1. O‘zbek an’naviy akademik grammaticasini sharhlang.
2. O‘zbek tili ilmiy talqinida o‘zga tillar qoliplariga tayanishning ijobiy natijalari nimalarda ko‘rinadi?
3. O‘zbek tili ilmiy talqinida o‘zga tillar qoliplariga tayanishning salbiy natijalari nimalarda ko‘rinadi?
4. O‘zbek tili formal va substansial talqinida fonetik hodisalarga munosabat.
5. O‘zbek tili formal va substansial talqinida leksik hodisalarga munosabat.
6. O‘zbek tili formal va substansial talqinida morfologik hodisalarga munosabat.
7. O‘zbek tili formal va substansial talqinida sintaktik hodisalarga munosabat.

### ***FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:***

1. Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. - М.: “Прогресс” 1989.
2. Karimov B. “Adabiyotshunoslik metodologiyasi”. - Т.: “Muharrir”, 2011.
3. Karimov B. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur. –Т. “Akademnashr”, 2014.
4. Normatov U. Ijod sehri. –Т.: “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti”, 2007.
5. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Т.: “Sharq”, 2004.
6. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. “Fan”, 2006.



#### **IV. AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI**

## 1- AMALIY MASHG‘ULOT:

### O‘ZBEK SUBSTANSIAL TILSHUNOSLIGI

#### REJA:

- 1. Sistemaning uydirmaligi yoki u haqdagi individual qarashlarning ijtimoiy stereotiplashuvi*
- 2. Sistemaning mavhumligi yoki uning talqinida ishontirish tamoyilining ustuvorligi*
- 3. Sistemaning noto‘liqligi, nomukammalligi va shartliligi*
- 4. Sistemaning barqarorligi tushunchasining shartliligi*

**Ishdan maqsad:** Sistemaning xususiyatlarini tavsiflash. Mavhum sistemaning aniq sistemadan farqli xususiyatlari. Sistemaning noto‘liqligi, nomukammalligi. Sistemada barqarorlikning shartliligi va o‘zgaruvchanlikning sub’ektiv va ob’ektiv omillari. Sistemaning ochiq/yopiqligi tushunchasining nisbiyiligi. Sistemaning faoliyatsizligi.

**Masalaning qo‘yilishi:** Tinglovchi variantda keltirilgan topshiriqlarni bajarishi va natija olishi lozim.

Ushbu amaliy ish davomida quyidagilarni **bajarish lozim**:

1. Sistema bo‘yicha savol-javob.
2. Mavhum sistema tabiat bo‘yicha bahs.
3. Mavhum sistemaning nomukammalligi bo‘yicha debat
4. Sistemala barqarorlikning shartliligi muhokamasi.
5. Sistemaning ochiq/yopiqligini tavsiflash.

**Tayanch tushunchalar:** *sistema, element, munosabat, aniq sistema, mavhum sistema, faol sistema, nofaol sistema .*

Tilshunoslikda strukturalizmning paydo bo‘lishi ayrim ilmiy doiralarda qanchalik shov-shuvlarga sabab bo‘lib, sakral tus olgan bo‘lsa-da, bu ta’limotdagiligi qator nuqsonlar unga nisbatan yetarli darajadagi ixlosni shakllantira olmadi. Shu

boisdan bugungi kunda tilshunoslikdan adabiyotshunoslikka taqlidiy ravishda ko‘chirilayotgan “struktur tahlil”lar ham fanga hech narsa bermayapti, adabiyotshunoslikda “strukturalizm strukturalizm uchun” tamoyilida ish ko‘rilib, struktur yondashuv, u asosdagi tahlillar taqlid, modaparastlikdan nariga o‘tmayapti, boshqacha aytganda, tahlil natija hamda xulosalari amaliyat uchun biror narsa beryapti deb bo‘lmaydi. Albatta, bu tadqiqotchining tafakkur darajasi, salohiyati, yo‘nalishning o‘ziga xosligi va shunga o‘xhash boshqa omillargagina bog‘liq emas. Umuman olganda, struktur tahlil, u asosdagi xulosalar ungacha aniqlangan sistemalar strukturasini tubdan o‘zgartira olmadi. Bu unga ergashish mutlaq tus olgan, muammolarni hal qilishning “sehrli tayoqchasi” sifatida qaralgan strukturalizmning quyidagi cheklanganlik holatlari bilan belgilanadi.

**1. Sistemaning uydirmaligi yoki u haqdagi individual qarashlarning ijtimoiy stereotiplashuvi.** Struktur tahlil ob’ekti bo‘lgan sistema individual (yakka shaxs) aqliy faoliyat natijasida tiklanadigan umumiylilik<sup>27</sup> bo‘lib, bunday sistemalar borliqda mavjud bo‘lmaydi. Masalan, unlilar sistemasi, ruboiy sistemasi, janrlar sistemasi, she’riy sistemalar, g‘oyalar sistemasi. Eslatib o‘tish joizki, borliqda unlilar, kelishiklar ruboilar, janrlar, she’rlar mavjud, ammo ular shu nomdagi sistema sifatida mavjud emas, masalan, ijod mahsuli sifatidagi ruboilar o‘zaro tarqoq, sochilgan, bog‘lanmagan, uzilgan holda yashaydi. Shaxs tafakkuri ularni o‘zicha bog‘laydi, birlashtiradi – natijada yana o‘sha narsa – shaxs yaratilmasi bo‘lgan sistema vujudga kelib qoladi. Agar biror kishi oldindan belgilab qo‘ymasa, boshqa kishi tomonidan bu sistema butunlay boshqacha bo‘lib chiqishi mumkin edi, shakllangan stereotiplar esa ilk axborot va taqdim etilgan sistemani boshqacha tasavvur qilishga imkon bermaydi. Masalan, o‘zbek tilidagi unlilar sistemasining miqdori va mohiyati bilan to‘ldirilgan ijtimoiy ong zo‘rlab tiqishtirilgan ma’lumotlardan boshqasini qabul qila olmaydi. Aks holda “og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchramaydigan” bu “oltita” unsurdan iborat sistema haqidagi bilimlarimiz uni inkor qiluvchi tizimdagи unsurlarning farqlanish tamoyili haqidagi qarashlar bilan, tilimizning ifoda

<sup>27</sup>Bu haqda qarang: Основные направления структурализма, - М., 1964; Засорина Л.Н. Введение в структурную лингвистику, -М., 1974; Ревзин И.И. Современная структурная лингвистика, - М., 1977.

imkoniyati bu olti unli bilan cheklanmasligi kabi bilimlar bilan boyigan bo‘lur edi. Yoxud tilimizdagи alohida so‘z turkum (taqlid, undov, modal)larini olaylik. Ular o‘zbek tili so‘z turkumlari sistemasida alohida, ajralgan elemenlar ekan, bu mavhum sistemani istalgancha talqin qilish mumkinligidan dalolat beradi. Axir, sistemaning asosiy xususiyatidan biri yaxlitlik ekan, yaxlitlik tarkibida ajralganlik, gomogenlik tarkibida geterogenlikni qanday tushunish mumkin. Qolaversa, ayrim tadqiqotchilar “alohida so‘z turkumlari” atamasiga tish tirnog‘i bilan qarshi turishadi. Ko‘rinadiki, strukturalizm talqinidagi sistema yakka shaxs o‘ylab topgan sun’iy ilmiy yaratilmaning ijtimoiy stereotiplashgan ko‘rinishidan boshqa narsa emas.

**2. Sistemaning mavhumligi yoki uning talqinida ishontirish tamoyilining ustuvorligi.** Strukturalizm ong mahsuli bo‘lgan mavhum sistemalarni tahlil ob’ekti sifatida olib, ongdan tashqaridagi aniq sistemalarni sistema sifatida tan olmaydi. Ongdan tashqaridagi muayyan sistemalar ob’ektiv borliqda mavjud bo‘ladi. Ularni sezgi a’zolari vositasida his etish (ko‘rish, o‘qish, eshitish, hidlash va b.) mumkin. Quyida biri abstrakt va biri muayyan bo‘lgan ikki sistemani qiyoslash asosida ularning farqini bilib olish mumkin:

<b>Tarkibi</b>	<b>Mavhum sistema</b>	<b>Muayyan sistema</b>
	<b>[umuman odam]</b>	<b>[muayyan shaxs]</b>
<b>Element</b>	1)tana; 2)ong; 3)ruh; 4)mijoz	1)85 kg, 170 sm qoramag‘iz tana, 2)IQ-3 darajali ong, 3)toza qalb, 4)sangvinik mijoz
<b>Munosabat</b>	mavhum bog‘lanish	tabiiy yaxlitlik

Bundan sistemalarning o‘ziga xos xususiyatlari kelib chiqadi:

<b>Mavhum sistema</b>	<b>Muayyan sistema</b>
<b>[umuman odam]</b>	<b>[muayyan shaxs]</b>
Nomoddiy	Moddiy

Ongda	Ongdan tashqarida
Elementlari geterogen, ya’ni har xil	Elementlari geterogen, ya’ni har xil
Elementlari orasida bog‘lanish munosabati mavjud	Elementlari orasida bog‘lanish munosabati mavjud

Strukturalizm, odatda, muayyan sistemani tahlil qilmaydi. Bu uning katta gunohlaridan biridir.

Sistemaning mavhumligi oldingi tezisning mohiyatini ifodalaydi. Mavhumlik shundaki, uning o‘zgartirish va unga istagancha qo‘srimcha qo‘sish mumkin bo‘ladi. Zero, “odam” sistemasi nafaqat mazkur to‘rt unsurdan iborat, balki qurovosita (asbob)lilik va rejallilik elementalarisiz ham to‘liq bo‘la olmaydi. E’tibor qilinsa, sistema mvhum bo‘lganligi sababli bu ikki unsursiz ham to‘laqonli va mukammal sistema sifatida kimdir tomonidan asoslanadi va bizning “sog‘lom” aqlimiz unga unga ishonadi-qo‘yadi. Mavhum sistema talqinida ishontirish tamoyili ustuvorlik qiladi va talqinida ko‘rsatish tamoyili ustunlik qiladigan aniq sistemadan shu jihat bilan farqlanadi. Mavhumlik noto‘liqlik va nomukammalikni keltirib chiqaradi.

#### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. O‘zbek an’naviy akademik grammaticasini sharhlang.
2. O‘zbek tili ilmiy talqinida o‘zga tillar qoliplariga tayanishning ijobiy natijalari nimalarda ko‘rinadi?
3. O‘zbek tili ilmiy talqinida o‘zga tillar qoliplariga tayanishning salbiy natijalari nimalarda ko‘rinadi?
4. O‘zbek tili formal va substansial talqinida fonetik hodisalarga munosabat.
5. O‘zbek tili formal va substansial talqinida leksik hodisalarga munosabat.
6. O‘zbek tili formal va substansial talqinida morfologik hodisalarga munosabat.
7. O‘zbek tili formal va substansial talqinida sintaktik hodisalarga munosabat.
8. O‘zbek substansial tilshunosligi mohiyatini bayon qiling
9. Lison va nutqning farqlanishi nima uchun zarur?
10. Lisonga sistema sifatida sharh bering.
11. Nutqqa sistema sifatida qaralmaganligi sabablari nimada?

12. Til stahlarining hamkorligi qanday namoyon bo‘ladi?
13. Til sathlari va nolisoniy omillar hamkorligi qaysi tadqiqotlarda ko‘zga tashlanadi?
14. Til va ta’lim subsiansial yondashuvda qanday baholanadi?

***FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:***

1. Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. - М.: “Прогресс” 1989.
2. Karimov B. “Adabiyotshunoslik metodologiyasi”. - Т.: “Muharrir”, 2011.
3. Karimov B. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur. –Т. “Akademnashr”, 2014.
4. Normatov U. Ijod sehri. –Т.: “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti”, 2007.
5. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Т.: “Sharq”, 2004.
6. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. “Fan”, 2006.

## 2-AMALIY MASHG‘ULOT :

### **O‘ZBEK AN’ANAVIY VA FORMAL TILSHUNOSLIGI TALQINIDAN CHETDA QOLGAN MUAMMOLAR**

#### REJA:

- 1. Tilning rivojlanish qonuniyatları.*
- 2. Til taraqqiyotining ichki qonuniyatları.*
- 3. Lisoniy taraqqiyot qonunları*

**Tayanch so‘z va iboralar:** partiya, Kompartiya, kommunist, raykom, sekretar, kolxoz, sovxozi, plan, rayon, oblast, majburiyat, musobaqa, kommunizm, sotsializm, biznes, raqobat, tadbirkor, qo‘shma korxona, kompyuter, fayl, display, elektron pochta, bank, firma, fermer, savdogar, grant, shartnoma

**Ishdan maqsad:** Til taraqqiyotidagi til hodisalarining o‘zgaruvchanligi haqida ko‘nikma shakllantirish. Til taraqqiyotidagi tashqi omillar, jamiyat va til, tilning ekstraliningvistik omillari, differensiya, integratsiya hodisalarni sharxlay olish, tillarning o‘zaro ta’siri, tillarning chatishuvi, til va jamiyatning o‘zaro mushtarak ekanligi haqida ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

**Masalaning qo‘yilishi:** Tinglovchi berilgan savollarga javob berishi va natija olishi lozim.

Ushbu amaliy ish davomida quyidagilarni **bajarish lozim**:

- Rivojlanish tushunchasi va til taraqqiyotini baholash.
- Til taraqqiyotining ichki qonuniyatlarini tavsiflash.
- Ob’ektivlik va takrorlanuvchanlik. Tejam. Pleonazm (ehtiyot, ta’kid) maslalari yuzasidan mashq.
- Lisoniy ramzda asimetrik dualizm qonuni. Tilda atash va ifodalash ziddiyati qonuni. O‘xshatish (analogiya) qonunini sharhlab tushuntirish.
- Barqarorlik va erkinlik (yuklanganlik va saltlik) qonuni. Jamiyat tushunchasi masalalarini tavsiflash.

- Til va jamiyat. Til – ijtimoiy hodisa sifatida. Til va madaniyatning o‘zaro uyg‘unlikda rivojlanishi. Til va tarixiy muhit. Milliy mafkura va milliy til. Milliy tilshunoslik va til ta’limi munosabati haqida fikrlarni muhokama qilish.

**Tilning rivojlanish qonuniyatları.** Tilning yashashi va rivojlanishi ikki omil – ichki imkoniyat va ijtimoiy ehtiyoj – u sharoit bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli bu ikki masala bir bo‘limda ko‘rib o‘tiladi. Dastlab tilshunoslikda mavjud bir necha tushuncha:

- 1)ichki tilshunoslik;
- 2)tashqi tilshunoslik;
- 3)tilning taraqqiyoti deganda nima tushunilishi bilan tanishish lozim.

Ichki tilshunoslik tilning ichki qurilishi, birliklari, sistemasini, uning ichki taraqqiyot qonunlarini o‘rgansa, tashqi tilshunoslik tilning jamiyat bilan aloqalarini – ijtimoiy ahamiyati va vazifasini, jamiyat a’zosi – so‘zlovchining tildan qay tarzda foydalanishi, tilning jamiyatga, jamiyatning tilga ta’siri kabilarni tadqiq etadi. Shuning uchun tilning taraqqiyot omillari ham ichki (interlingvistik) va tashqi (ekstralolingvistik) kabi ikkiga ajratiladi.

Tilning ichki qurilishi va taraqqiyoti tilshunoslikning rang-barang oqimlarida xilma-xil metodlar bilan tadqiq etilganidek, tilning ekstralolingvistik taraqqiyot xususiyatlari alohida e’tibor berib, ularning nutq xususiyatlari, so‘zlovchi va tinglovchining o‘zaro aloqa shakllari, tilning ijtimoiy mavqeい, unda xilma-xil uslublarning rivojlanishi yoki so‘nishiga ta’sirini o‘rganuvchi maxsus tilshunoslik yo‘nalishlari ham bor. Paralingvistika, sotsiolingvistika, ekstralolingvistika singari sohalar shular jumlasidan. Til va jamiyat hamisha bir-biri bilan aloqada ekan, ular hech vaqt o‘zaro ta’sirdan xoli bo‘lmaydi va tilning ham, jamiyatning ham rivojlanishi hamisha ikki – ichki va tashqi omil bilan bog‘liq.

**Rivojlanish tushunchasi.** Ob’ektiv borliqdagi har bir narsa harakatda, ya’ni o‘zgarishda. Falsafa kursidan ma’lumki, predmet yo hodisaning o‘zgarishi avvalo miqdoriy – asta-sekin ro‘y beradigan zohiriy, tashqi sezilar-sezilmas o‘zgarishlar (evolitsiya)dan boshlanadi. Bu o‘zgarishlar ma’lum bir nuqtaga yetgach, miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi – keskin burilish va yangilanishlar (revolyusion – inqilobiy o‘zgarishlar) sodir bo‘ladi – narsa-hodisa bir sifat

bosqichidan boshqa sifatga o‘tadi. Tabiat va jamiyatda hech bir narsa mutlaq emas va bu jarayon yana boshdan uzlusiz davom etadi. Mana shu dialektik qonuniyat rivojlanishni belgilab beradi. Rivojlanish shunday murakkab va uzlusiz jarayon bo‘lib, asosan sifat o‘zgarishlari asosida ma’lum bo‘ladi. Bunga hayotdan ko‘plab misol keltirish mumkin. Ko‘z oldingizda o‘sayotgan farzand kundan-kunga “miqdor”, ya’ni yosh jihatdan o‘sib boradi. Lekin unda bu o‘zgarish sezilmas darajada – har hafta, kun, soatda sodir bo‘ladi. Bu o‘zgarishlarni alohida-alohida bosqichlardagina – chaqaloq qizaloqqa, qizaloq voyaga yetgan qizga, qiz kelinchakka, kelinchak juvonga, juvon keksa ayolga, ayol buviga aylanganda, ya’ni yangi sifat bosqichlariga o‘tgandagina yorqin sezamiz. Odatda, bir sifatdan yangi sifatga o‘tish jarayoni – “sakrash” deb ataladi. Sakrash ikki xil bo‘lishi mumkin: evolyusion va revolyusion. Evolyusion rivojlanish asta-sekin, bosqichma-bosqich rivojlanishni o‘z ichiga olsa, revolyusiya, aksincha, birdaniga – portlash, keskin sakrash, inqilob tarzida sodir bo‘ladi. Jamiyatning osuda hayoti, madaniy, iqtisodiy, siyosiy o‘sishi uchun evolyusion rivojlanish maqsadga muvofiq. Xullas, dialektik rivojlanish qonuniyati shundan iborat, u tabiat, jamiyat va tafakkur yashash tarzining doimiy, maqsadli, qonuniy taraqqiyoti yo‘nalishini belgilab beradi. “U ob’ektiv dunyo rivojlanish jarayonini to‘g‘ri tushunib olish, narsa va hodisalarining sifat jihatidan o‘zgarish tarzini anglash va undan jamiyatni yanada rivojlantirishda foydalanish imkonini beradi.”<sup>28</sup> Shaxs kishilik jamiyatining bu taraqqiyot yo‘nalishini to‘g‘ri uqib, shu yo‘nalishda harakat qilsa – oqim yo‘nalishida borsa, u tarixda ijobjiy mavqe, daholar sirasidan joy olib, tarix zarvaraqlariga bitiladi. Agar shaxs va jamiyatning harakat yo‘nalishi taraqqiyot oqimiga qarshi bo‘lsa, u ma’lum bir muddat taraqqiyotga to‘sinqilik qilishi, tarixda salbiy mavqe egallashi mumkin. Lekin tarixiy taraqqiyot – oqim bu aksilharakatni ertami-kechmi, albatta, sindirib tashlaydi. Zero, tarixiy taraqqiyot qonunlari – ob’ekti – inson irodasiga bo‘ysunmaydigan haqiqat.<sup>29</sup>

**Til taraqqiyoti.** Rivojlanish – dialektik, ob’ektiv jarayon ekan, u insoniy

<sup>28</sup>O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 6-jild. - Toshkent: O‘zME, 2003. – B. 34.

<sup>29</sup>Masalan, SSSRda XX asrnning 20-60-yillarda mulkchilik, tovar ishlab chiqarish, narxni belgilash (ya’ni bozor iqtisodiyoti) ob’ektiv qonunlari zo‘ravonlik tazyiq va qatag‘onlar bilan buzildi. Uni tuzatish uchun 1960-80-yillardagi harakatlar natija bermadi va 1985-90-yillarda SSSRda hukmron iqtisodiy-siyosiy tuzumning to‘liq tanazzuliga, 1990 yilda esa jahonga dahshat solgan bu imperianing parchalanishiga olib keldi.

jamiyatning asosi, alohida quroli bo'lgan tilga ham daxldor hodisa. Demak, til taraqqiyoti – ob'ektiv va uzluksiz jarayon.

Tilning yashash, mavjudlik tarzi – uning rivojlanishi. Bu esa til bevosita bog'liq bo'lgan jamiyat hayoti, uning doimiy harakati, o'zgarishi bilan uzviy bog'liq. Jamiyat harakatdan to'xtasa, til ham rivojlanishdan to'xtaydi. Jamiyatdan uzilgan til esa o'ladi, rivojlanishdan qolib, o'lik tilga aylanadi. Bu haqda V.A.Zveginsev, jumladan, shunday yozadi: "Jamiyatsiz til rivojlanish xususiyatini yo'qotadi va sun'iylashadi. Masalan, lotin tili katolik dinining tiliga aylandi, o'rta asrlarda esa ilm-fanning xalqaro tili vazifasini bajardi. Sharq mamlakatlarida shunday mavqeni o'rta asrlarda arab tili egalladi."<sup>30</sup> Olim shu o'rinda bu masalani xettlarning qudratli hokimiyati qulagandan so'nggi nesit, luviy, palay va xet shevalari va qator tillarning yo'qolganligi singari tarixiy dalillar bilan isbotlaydi.

Til jamiyat, xususan, tafakkur bilan zikh aloqador hodisa sifatida shu jamiyat taffakkuri rivojiga bog'liq ravishda o'zgaradi. Ilm-fan, texnika va madaniyat o'zgarib, yangilanib borgan sari til ham o'zgarib, yangilanib boradi. Jamiyat turg'unlikka uchrasa, tilda ham turg'unlik hukmron bo'ladi. Buni o'zbek tili tarixi misolida ham ko'rish mumkin. XIV asrda temuriylar davrida o'zbek davlatchiligi, mumtoz ilm-fan, adabiyot va san'at o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi. Bu hodisa uning tilida ham aks etdi – Alisher Navoiy tufayli XV asr o'zbek adabiy tili (Alisher Navoiy asarlarining tili) butun madaniy turkiyzabon dunyoning mushtarak tiliga aylandi – o'nlab turkiyzabon qavmlar uni sevib o'qiydigan va hatto unda ijod etadigan bo'lishdi. Mutafakkir "Farhod va Shirin" da iftixon bilan yozadi:

*Agar bir, yo 'qsa yuz, yo 'qsa mingdur,  
Muqarrar turk ulusi xud maningdur:  
Olibmen taxti farmonimg'a oson  
Cherik tortmay Xitodin to Xuroson.  
Ko 'ngul bermish so 'zumga turk jon ham,  
Na yalg'uz turk, balki turkmon ham.*

Aksincha, XVIII-XIX asrlarda mustabit va muztabit islomiy hukmronlik davrida (so'nggi shayboniylar-ashtarxoniy-mang'itiylar hukmronligi davrida)

<sup>4</sup>Звегинцев В. А. Очерки по общему языкознанию. - М.: Наука, 1962. – С. 178-179.

xonliklarga bo‘lingan o‘zbek zaminida turg‘unlik va tanazzul hukm surdi. Adabiy til ham tushkunlikka uchradi. Shuning uchun Abulg‘oziy Bahodurxon bu tilni keng turklar ommasi uchun tushunarli bo‘lmagan, ular uchun uzoq bo‘lgan *chig‘atoy tili* deb ataydi va “turklarga turkona (ularga tushunarli ruzda) yozish” shiorini o‘rtaga tashlaydi. Tilshunoslar orasida “til – ijtimoiy taraqqiyot oynasi” hikmatining mavjudligi bejiz emas: til jamiyat taraqqiyotini o‘zida aks ettirib boradi. Manbaning ikkinchi bo‘limida keltirilgan Alisher Navoiyning “Ki har ishni qilmish odamizod, tafakkur birla bilmish odamizod” misrasi va borliq (jumladan, ijtimoiy hayot, jamiyat, uning taraqqiyot darajasi) – tafakkur – til munosabati sharhlangan edi.

Borliq rivojlanar, o‘zgarar ekan, til ham rivojlanadi, taraqqiy etadi. 15-20 yil oldin yozilgan asarlarni hozirgi kun nutqi bilan solishtirsak, tilning o‘zgarishiga amin bo‘lamiz. Masalan, 1990 yilgacha yozilgan badiiy asarlarda *partiya, Kompartiya, communist, raykom, sekretar, kolxoz, sovxozi, plan, rayon, oblast, majburiyat, musobaqa, kommunizm, sotsializm* kabi so‘zlar keng iste’mol leksika sifatida har sahifada uchrasa, hozir bu so‘zlar xronimlarga<sup>31</sup> aylangan, lekin *biznes, raqobat, tadbirkor, qoshma korxona, kompyuter, fayl, display, elektron pochta, bank, firma, fermer, savdogar, grant, shartnoma* kabi yangi so‘zlar (yoki eski so‘zlarning tamoman yangi ma’nolari)ni uchratamiz. Bu tilimizning keyingi o‘n yilliklarda rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Tilning o‘zgarishi (taraqqiyoti) pala-partish, betartib yuz beradigan hodisa emas. U ma’lum qonun va qonuniyatlar asosida sodir bo‘ladi. Qonun – bu zaruriy, moyaviy, qat’iy, jamiyat va tabiat hodisalarining takrorlanuvchi munosabati. Qonunlar – nafaqat tabiiy, balki ijtimoiy va hatto siyosiy (jamiyatni boshqarish uchun inson tomonidan o‘rnataladigan) qonunlar ham – ob’ektiv xarakterga ega – ular bizga bo‘ysunmaydi, ongimizdan tashqarida mavjud, ong va tafakkur ularni aks ettiradi, xolos – ularni yaratmaydi ham, o‘rnatmaydi ham. Lekin mohiyati uqib, ochilgan bo‘lsa, ularni boshqarish, ko‘zlangan maqsadlarda foydalanish mumkin.<sup>32</sup>

Til taraqiyotida – dastlab tilning ichki (interlingvistik) va tilning tashqi (ekstralinguistik) taraqqiyot qonunlarini, bulardan har biri ichida umumiyl va

<sup>31</sup>Eskirgan (arxaiklashgan) so‘zlardan istorizmlar (tarixiy so‘zlar) guruhining ma’lum qisqa bir davrda qo‘llanilgan turi.

<sup>32</sup>Buning eng yorqin dalili va isboti hozirgi kunda kompyuter texnologiyasidir. Bu texnologiya tilning semiotik qurilishidan onglilik bilan foydalanishga asoslanadi.

xususiy qonuniyatlarni ajratish mumkin.

**Til taraqqiyotining ichki qonuniyatları.** Tilning ichki taraqqiyot qonunlari deganda tilning ichki qurilishi, birliklarining tabiatи va ularning o‘zaro munosabatlari – tilning butun sistemasi – zotan (tabiatan, mohiyatan, immanent va ontologik ravishda) yo‘l qo‘yadigan, talab qiladigan o‘zgara olish va rivojiana olish imkoniyat va qonuniyatları tushuniladi. Tilning tashqi taraqqiyot qonunlari deganda tildagi jamiyat, nutq sharoiti, nutq ishtirokchilarining xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarish va rivojlanish qonun-qoidalari tushuniladi. Eslatib o‘tish kerakki, taraqqiyot qonunlarini ichki va tashqi turlarga ajratish o‘ta shartli, zero tilning ichki qurilish xususiyatlari, rivojlanish qonuniyatları imkon bermasa, tashqi omil tilga ta’sir eta olmaydi – til uning ichki sistemasi yo‘l qo‘yadigan o‘zgarish va yangilanishlarnigina qabul qila oladi – ichki taraqqiyot qonunlari yo‘l bermasa, tashqi taraqqiyot omili tilga ta’sir eta olmaydi. Lekin tashqi taraqqiyot qonunlari (talablari) tilning ichki taraqqiyot qonunlari bilan uyg‘un bo‘lgan davrlarda tilning rivojlanishi inqilobiy tus oladi, til tarixiy taraqqiyotida sakrash – bir sifat bosqichidan yangi sifat bosqichiga ko‘tarilish holati yuz beradi. Bu ikki omil orasida uzilish yoki ziddiyat tug‘ilgan paytlar esa til taraqqiyotida turg‘unlik va tanazzul (inqiroz, tushkunlik, fojea va halokat) davri sanaladi. U ham, albatta, inqilobiy burilish – yoki tilning o‘lishi va yoki ijtimoiij shart-sharoitning tag-tubdan yangilanishi bilan yakunlanadi. Shuning uchun til taraqqiyotida ichki va tashqi omillar, odatda, uyg‘unlikda, hamkorlikda ta’sir etadi.

Umumiy qonuniyatlar barcha tillarning – inson tilining eng umumiy belgi-xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Masalan, tilning kommunikativlik xususiyati, nutq faoliyatining lison-me’yor-nutq kabi tarkibiy qismlardan iboratligi, tilning qatlamlarga bo‘linishi, qatlamlar orasida leksik qatlamning grammatik strukturaga nisbatan o‘zgaruvchanligi, so‘z turkumlari va gap bo‘laklari kabilar haqidagi qonuniyatlar tillar uchun umumiy – ularni har bir tilda topish mumkin.

Xususiy lingvistik qonuniyatlar esa har bir konkret tilning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi va tilning o‘ziga xos fonetik tizimi, leksik sathi, grammatik qurilishi, stilistik tarkibi bilan bog‘liq. Har bir tilda umumlisoniy va xususiy taraqqiyot qonunlari o‘zaro uyg‘unlikda bo‘ladi.

***NAZORAT SAVOLLARI:***

1. Tilning yashashi va rivojlanishi qanday omillar muhim hisoblanadi?
2. Rivojlanish tushunchasi izohlang?
3. Til = lison – me’yor – nutq o‘zaro aloqalarini izohlang?
4. Jamiyat tushunchasi va ta’rifi.
5. Til – ijtimoiy hodisa sifatidatutgan o‘rni nimadan iborat?
6. Milliy mafkura, milliy til, milliy tilshunoslikning o‘zaro aloqalari haqida fikr bildiring?
7. Milliy tilshunoslik va til ta’limining mazmun mohiyati nimadan iborat?
8. “Tilsiz jamiyat mavjud bo‘lmaydi”, degan fikrni qanday izohlaysiz?
9. Differensiya va integratsiya hodisalari nima sababdan ro‘y beradi?
10. Hozirgi o‘zbek tiliga qaysi til(lar)ning tashqi ta’siri seziladi va nima uchun?
11. Tillarning rivojlanish qonuniyatlari haqida qanday xulosaga keldingiz?

***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:***

1. Нурмонов А. Лингвистик белги назарияси. – Тошкент: Фан, 2008.
2. Абдуазизов А.А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. - Тошкент: Университет, 2010.
3. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г. Нозирги ўзбек адабий тили: Дарслик. – Тошкент, 2004.
4. Намид Неъматов, Бахтиёр Менглиев. Тилшуносликнинг фалсафий масалалари. – Тошкент, 2015.
5. Ножиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010.

### 3-AMALIY MASHG‘ULOT:

## O‘ZBEK TILI VA SUN’IY INTELLEKT. O‘ZBEK TILINI MODELLASHTIRISH MUAMMOLARI

#### REJA:

- 1. Ob’ektivlik va takrorlanuvchanlik**
- 2. Pleonazm (ehtiyot, ta’kid)**
- 3. Tilning taraqqiyot qonunlari**

**Tayanch so‘z va iboralar:** UMIS, AHVO, YaHVO, – kosmonavt, kosmodrom, yadro, klip, estrada, leksema, fonema, changyutgich kabi so‘zlar paydo bo‘ldi. Shuningdek, foytun, saroybon, amir, mirob.

**Ishdan maqsad:** Tilning serqirraligi uning ko‘p qirraligi va ko‘p vazifaliligi masalalarini tahlil qila olish va ushbu masalalar yuzasidan mustaqil ilmiy xulosa qila olish.

**Masalaning qo‘yilishi:** Tinglovchi variantda keltirilgan topshiriqlarni bajarishi va natija olishi lozim.

Ushbu amaliy ish davomida quyidagilarni **bajarish lozim**:

1. Borliq hodisalarining serqirra va ko‘p vazifaliligi masalasi bo‘yicha savol-javob.
2. Xususiyat va vazifaning dialektik yaxlitligi bo‘yicha mashq.
3. Serqirralik va imkoniyat tushunchalari munosabati masalasi yuzasidan debat
4. Tilning serqirraligi va tilshunoslik bosqichlari hamda yo‘nalishlarini tavsiflash.

Tilning ichki taraqqiyot qonunlari deganda tilning ichki qurilishi, birliklarining tabiatini va ularning o‘zaro munosabatlari – tilning butun sistemasi – zotan (tabiatan, mohiyatan, immanent va ontologik ravishda) yo‘l qo‘yadigan, talab qiladigan o‘zgara olish va rivojiana olish imkoniyat va qonuniyatlari tushuniladi. Tilning tashqi taraqqiyot qonunlari deganda tildagi jamiyat, nutq sharoiti, nutq

ishtirokchilarining xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarish va rivojlanish qonun-qoidalari tushuniladi. Eslatib o‘tish kerakki, taraqqiyot qonunlarini ichki va tashqi turlarga ajratish o‘ta shartli, zero tilning ichki qurilish xususiyatlari, rivojlanish qonuniyatları imkon bermasa, tashqi omil tilga ta’sir eta olmaydi – til uning ichki sistemasi yo‘l qo‘yadigan o‘zgarish va yangilanishlarnigina qabul qila oladi – ichki taraqqiyot qonunlari yo‘l bermasa, tashqi taraqqiyot omili tilga ta’sir eta olmaydi. Lekin tashqi taraqqiyot qonunlari (talablari) tilning ichki taraqqiyot qonunlari bilan uyg‘un bo‘lgan davrlarda tilning rivojlanishi inqilobiy tus oladi, til tarixiy taraqqiyotida sakrash – bir sifat bosqichidan yangi sifat bosqichiga ko‘tarilish holati yuz beradi. Bu ikki omil orasida uzilish yoki ziddiyat tug‘ilgan paytlar esa til taraqqiyotida turg‘unlik va tanazzul (inqiroz, tushkunlik, fojea va halokat) davri sanaladi. U ham, albatta, inqilobiy burilish – yoki tilning o‘lishi va yoki ijtimoijshtart-sharoitning tag-tubdan yangilanishi bilan yakunlanadi. Shuning uchun til taraqqiyotida ichki va tashqi omillar, odatda, uyg‘unlikda, hamkorlikda ta’sir etadi.

Umumiyligida qonuniyatlar barcha tillarning – inson tilining eng umumiyligida xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Masalan, tilning kommunikativlik xususiyati, nutq faoliyatining lison-me’yor-nutq kabi tarkibiy qismlardan iboratligi, tilning qatlamlarga bo‘linishi, qatlamlar orasida leksik qatlamning grammatik strukturaga nisbatan o‘zgaruvchanligi, so‘z turkumlari va gap bo‘laklari kabilalar haqidagi qonuniyatlar tillar uchun umumiyligida – ularni har bir tilda topish mumkin.

Xususiy lingvistik qonuniyatlar esa har bir konkret tilning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi va tilning o‘ziga xos fonetik tizimi, leksik sathi, grammatik qurilishi, stilistik tarkibi bilan bog‘liq. Har bir tilda umumlisoniy va xususiy taraqqiyot qonunlari o‘zaro uyg‘unlikda bo‘ladi.

Lisoniy taraqqiyot qonunlarining ayrimlari bilan tanishib o‘tamiz.

**1. Ob’ektivlik va takrorlanuvchanlik.** Yuqorida qayd etilgan xususiyatni – tabiat va jamiyat qonunlaridek til qonuniyatlarining ham ob’ektivligini va qonuniyat sifatida takrorlanuvchanligini ta’kidlab o‘tish zarur. Ular haqiqiy va inson irodasiga bo‘ysunmas. Qonunning takrorlanuvchanligi esa til taraqqiyotining turli davrlarida, tilning turli sath birliklari taraqqiyoti xususiyatlarida takrorlanib turishida namoyon

bo'ladi. Shuning ichun diaxronik tilshunoslikda "tilning hozirgi taraqqiyot bosqichida amalda bo'lgan qonuniyatlar bevosita kuzatishda berilmagan qadimgi davrlarida ham amal qilgan bo'lishi mumkin" degan qonun ham mavjud edi.

**2. Til = lison – me'yor – nutq.** Tilning umumiy ichki taraqqiyot qonunlaridan biri tilning lison<sup>33</sup>, me'yor, nutq kabi bir-birini ham talab, ham inkor etuvchi tomonlarning dialektik butunligidan iborat bo'lishdir. Falsafiy umumiylig, mohiyat, imkoniyat va sabab (UMIS) mohiyatiga ega bo'lgan lison alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat (AHVO) mohiyatli nutq shaklida yuzaga chiqar ekan, u me'yor "elagi"dan o'tadi va uning talablarida mos shakl, mazmun va vazifa kasb etadi. Shuning o'ziga UMIS tabiatli har bir lisoniy birlikka me'yor talab va ehtiyojlariga mos ravishda cheksiz miqdordagi YaHVO shaklida voqelanish imkoniyatini beradi. Bu esa, o'z navbatida, tilga o'zgarish va rivojlanish imkoniyatini berib, bu imkoniyatni uning subutiy (mutlaq, zotiy, o'zgarmas, ontologik, immanent, eng muhim va h.) sifatlaridan biri darajasiga ko'taradi.

Tilda mavjud bo'lgan rivojlanish usullarining ko'pchiligi (jumladan, bir lisoniy qolip (qurilma, konstruksiya, model, qonuniyat, mexanizm va h.) asosida chekylanmagan miqdorda yangi-yangi sodda, qo'shma, juft va tarkibli so'zлarni, so'zshakllarni, so'z birikmalarini, har xil nutqiy qurilmalarni, gaplarni hosil qilish; nutqiy hosilalarning ideomalashish – ixtososlashish – yaxlitlashish – soddalashish – tublashish bosqichlari orqali lisoniy birliklarga o'tishi kabi) lison-me'yor-nutq munosabatlari bilan bog'liq. Buning turli tomonlarini atroflicha tadqiq va tavsif etish, jarayonning falsafiy tomonlarini ochish tilshunoslik oldida turgan muhim masalalardan.

**3.Tejam.** Bu qonuniyat juda ko'p hodisalarda namoyon bo'ladi. Ulardan ayrimini keltiramiz. Asr boshida tilimizga elektron hisoblash mashinasi – EHM (ehem) keng qo'llana boshladi. Lekin EHMning inglizcha nomi – **komputer** EHM so'zidan qisqa va talaffuz uchun qulay edi. Shuning uchun *kompyuter* so'zi *EHM* qisqartmasini siqib chiqardi.

O'zbek tilida uch bo'g'inli so'zning ikkinchi bo'g'inida tor unli bo'lsa, bu so'z

<sup>33</sup>Sovet tuzumi davrida o'zbek tilshunosligida istiqlol davri o'zbek fanida qo'llanila boshlagan va bugungi kunda yetarli darajada ommalashgan *lison* atamasi o'rniда *til* atamasi qo'llanilar edi. Qarang: Usmonov C. Umumiylig tilshunoslik. – Toshkent: O'qituvchi, 1972; Qo'chqortoev I.F. de Sossyurning lingvistik konsepsiysi. Nazariya va metod masalalari. – Toshkent: ToshDU, 1976; Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O'qituvchi, 1993.

ikki bo‘g‘inliga aylanishga intiladi. Masalan, *o‘g‘ilim>o‘g‘lim; burunim>burnim; yaqishiq>yaqshiq>yaqshi>yaxshi*. Tejam qonuni tillar uchun umumiy bo‘lgan kuchli qonuniyatlardan biri bo‘lib, u rang-barang ko‘rinishlarda voqelanadi<sup>34</sup> va ba’zan til tizimini keskin o‘zgartirib yuborishi mukin. Deylik, turkiy tillarda eng qadimgi davrlarda so‘z o‘zagidagi tovushlarning uyg‘unligi – qattiq va yumshoqligi farqlangan. Lekin V asrdan oldingi davrlarda bu farqlanish undoshlar asosida bo‘lib, to‘rt juft unli qator (qattqlik va yumshoqlik) bilan fonologik jihatdan farqlanmagan; unlilar qattiq undoshlar bilan yonma-yon kelganda qattiq, yumshoq (til oldi) undoshlar bilan yonma-yon kelganda yumshoq variantga ega bo‘lgan. Shu holatda til tizimida 36 dan ortiqroq undosh bo‘lib, ular fonologik farqlanuvchi 18 juftni tashkil etgan. Lekin unlilar soni atigi to‘rtta bo‘lib, ular qattqlik/yumshoqlik jihatdan fonologik farqlanmagan. Tejam qonuniyatiga ko‘ra, turkiy tillarda undoshlar tizimida qator fonologik farqini yo‘qotish va unlilar tizimini qator bo‘yicha farqlashga harakat boshlanadi – 18 juftni farqlashdan ko‘ra 4 juftni farqlash til uchun juda tejamli. V asrdan hozirgi kungacha bu qonuniyat bir necha bosqichni boshdan kechirdi. Qator turkiy tillarda (masalan, yoqt, qirg‘iz, xakas, qozoq, turk kabi) u yakunlangan va unlilar garmoniyasi qonuniyati hukmron bo‘lgan. Ayrim tillarda (jumladan, o‘zbek tilida) bu hodisa yakunlanmagan va unlilar uyg‘unligi qat’iy qonuniyat sifatida mutlaqlashmagan.<sup>35</sup> Buning sababi o‘zbek tilida qattqlik/yumshoqlik bilan fonologik farqqa ega bo‘lgan ikki juft undosh (*g – g‘, k – q*) fonemalarning mavjudligida, vaholanki, bu fonemalar orasidagi farqni yo‘qotgan tillar unlilar uyg‘unligi izchil qonuniyatini rivojlantirgan.

Ko‘rinadiki, tejam qonuni oddiygina ko‘p bo‘g‘inli so‘z/ko‘p tovushli so‘zni kam bo‘g‘inli/tovushliga aylantirishdan boshlab, til tizimiga katta o‘zgarishlar keltira oladigan hodisalargacha namoyon bo‘lishi mumkin.

**4. Pleonazm (ehtiyot, ta’kid).** Bu qonun uch xil ko‘rinishga ega. Birinchi ko‘rinishi ta’sirida til bir nutqiy butunlik tarkibida ayni bir grammatik ma’noni ikki va undan ortiq marta takrorlab, nutqiy butunlik tarkibiy qismlari ichidagi nisbiy butunliklarning o‘zaro aloqasini belgilashni, axborotni to‘g‘ri qabul qilishni, unga

<sup>34</sup>Қаранг: Мартине А. Принцип экономии в фонетических изменениях (Проблемы диахронической фонологии). – М.: ИИЛ, 1960. – С. 262; Нурмонов А. Принцип экономии в фонетических явлениях узбекского языка: Автореф. дисс. . . . канд. филол. наук. – Ташкент, 1973.

<sup>35</sup>Ne’matov H. O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – B. 40-45.

nutqda sodir bo‘ladigan juz’iy o‘zgarishlarga chidamlilikni ta’minlaydi. Bu masala o‘zbek tilshunosligida prof. G‘.N.Zikrillaevning “Istiqlol va adabiy til” (-Toshkent: Fan, 2004) monografiyasida tahlil etilgan.

Pleonazmning ikkinchi ko‘rinishi – lisoniy birlikda so‘nayotgan grammatic ma’noni ta’kidlash maqsadida unga yana bir ko‘rsatkich berish tavsifi N.Mahkamovning “Adabiy norma va pleonazm” (-Toshkent: Fan, 1988) monografiyasida berilgan.

Ehtiyyot qonunining uchinchi ko‘rinishi tilda har qanday mikrosistemaning markaz va qurshov giponimik munosabatlar asosida qurilishida, qurshov birliklarining soni va sifati erkinligida, bu birliklarda markaz funksiyasining juz’iy xususiyliklar bilan murakkablashishida (muayyanlashishida), markaziy birlik istalgan qurshov birligi o‘rnini bemalol bosa olishida namoyon bo‘ladi. Bu qonuniyat L.Ne’matova va Z.Yunusovalarning nomzodlik dissertatsiyalarida tavsiflangan. Masalan, o‘zbek tilida *ot* markaziy leksemasi 500 dan ortiq giponimlarni o‘z atrofida birlashtiradi. Lekin o‘zbek nutqini uqish va unda o‘z fikrini bayon qilish uchun bu so‘zlarni bilish shart emas. Shu 500 so‘zli qurshov birliklarining o‘rnini bitta *ot* leksemasi bemalol egallay oladi.

**5. Lisoniy ramzda asimetrik dualizm qonuni.** Uning mohiyati va til tizimi taraqqiyotidagi o‘rni masalasi oldingi bo‘limda tavsiflandi.

**6. Tilda atash va ifodalash ziddiyati qonuni.** Bu qonun tilning semiotik va tasviriy tizim sifatida ziddiyatli tabiatini belgilaydi. Chunki semiotik sistema qonunlariga binoan bitta mazmunni ifodalash uchun bitta shakl yetarli.<sup>36</sup> Lekin ifoda vositasi sifatida ayni bir ma’no turli bo‘yoq bilan bir necha shakl vositasida berilishi lozim: . . . *oraz – jamol – chehra – yuz – aft – bashara – turq*. . .

**7. O‘xhatish (analogiya) qonuni.** Bu qonun va uning til taraqqiyotiga ta’siri masalasi Yosh grammatiklar yo‘nalishida (Leypsig tilshunoslik maktabida, turkiyshunoslikda V.Radlov va P.Melioranskiy ishlarida) chuqur o‘rganilgan.

**8. Barqarorlik va erkinlik (yuklanganlik va saltlik) qonuni.** Bu qonun funksional lingvistikating til ramzlarida ixtiyoriylik va majburiylik, lisoniy ramzda asimetrik dualizm qonunlarining dialektik tamoyillar bilan to‘ldirilishi natijasida

<sup>36</sup>Sun’iy tillar shunday tuziladi.

o'zbek substansial (formal-funksional) tilshunosligida shakllandi va H.Ne'matov, O.Bozorov, B.Mengliev, G.Ne'matova, L.Ne'matova, Z.Yunusova kabilarning ishlarida rivojlantirildi.<sup>37</sup> Bu qonunning mohiyati shundaki, har bir lisoniy birlik o'zining serqirraligi (mohiyatining ichki ziddiyatligi, qarama-qarshiligi) asosida kamida ikki qator oppozitsiyalarda turadi. Bu oppozitsiyalardan kamida biri, albatta, privativ tabiatli bo'ladi. Natijada, masalan, A birligining C bilan B1 asosida va D bilan B2 asosida oppozitsiyalaridan “majmui asmo va sifot” kabi ochiladigan mohiyati  $A = B1 + B2$ . . . bo'ladi. Bu mohiyat o'zgaruvchanlikni ham (B20), barqarorlikni ham (B1+) o'z ichiga oladi va tilga nisbiy barqarorligini saqlagan holda muttasil rivojlanishda bo'lish imkoniyatini beradi.

Bu qonunlar umumiy lisoniy qonunlardan ayrimlaridir. Xususiy qonunlar har bir tilning o'ziga xos, uning ichki taraqqiyotini belgilaydi. Masalan, o'zbek tilida urg'u so'zning oxirgi bo'g'inida bo'ladi. Shuning uchun qariyb yetmish yil davomida tilimizda ruscha so'zlarda urg'uni turli bo'g'inxarda (rus tilidagidek) saqlashni va urg'u bilan farqlanuvchi hodisalarni (masalan, *olma – olma; tugma – tugma*. . . ) joriy etishga urinishlar hech qanday natija bermadi.

**9. Sememalarning o'z va ko'chma ma'nolarda voqealanishi.** Masalan, *Mening xolam – o'qituvchi* hamda *Xolajon, sumkangizni ko'tarishvoray* gaplariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ikki *xola* so'zi orasida farq borligini sezish qiyin emas. Birinchisida “qon-qarindoshlik”, “onamning opasi” (yo singlisi) semalari ustun bo'lsa, ikkinchi qo'llanilishda “yoshi katta”, “ayol” kabi ma'nolar mavjud.

Leksik rivojlanishning ichki qonuniyatları har bir muayyan tilda o'ziga xos, bu tilning boyib borishi, rivojlanishi uchun asosiy omil hisoblanadi.

Jamiyatga kirib kelgan narsa tilga o'z nomini olib keladi. Bu behad oddiy qonun, jamiyatda paydo bo'lgan (chetdan keltirilgan) har bir narsa o'z nomi bilan atalishini va boshqa narsalardan farqlanishni talab etadi. Har kunlik hayotimizda bu qonun voqelanishining guvohi bo'lmoqdamiz. Hatto yengil mashinaning yangi ko'rinishi (masalan, “Matiz”) tilga o'z nomini olib kiradi.

<sup>37</sup> См.: Нигматов Х. Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. – Ташкент: Фан, 1989. – С. 7; Bozorov O. O'zbek tilida darajalanish. – Toshkent: Fan, 1995; Mengliev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Qarshi, 2004; Mengliev B. Lisoniy tizim yaxlitligi va unda sathlararo munosabatlari: Filol. fan. d-ri. . . diss. avtoref. – Toshkent, 2001; 2003; Nigmatova L. O'zbek tilida privativlik (nofonologik satshlar):Filol. fan. nomz. . . diss. avtoref. – Toshkent, 2004; Yunusova Z. O'zbek tilida lug'aviy mikrosistemaning tarkibi va rivojlanishi (samoviy yoritgichlar lug'aviy guruhi asosida): Filol. fan. nomz. . . diss. avtoref. – Toshkent, 2005.

Jamiyatda iste'moldan chiqqan narsaning nomi tilda eskiradi va ma'lum maqsadlardagina qo'llaniladi. Bu oldingi qonunning aksi bo'lib, bu ham izohga hojat qoldirmaydi. Hozirgi kunda *omoch* nimani anglatganligini bolaga maxsus o'rgatish lozim.

Grammatika leksikaga nisbatan ancha turg'un til sathi hisoblanadi. Lekin unda ham davrlar o'tishi bilan jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Grammatikaga oid umumiylara taraqqiyot qonunlari sifatida, jumladan, quyidagilarni sanab o'tish mumkin.

Mustaqil so'zlardan yordamchi so'zlarning, yordamchi so'zlardan affiksoid va affikslarning rivojlanishini olaylik. Buni ingliz tilida *to be*, *to have*, nemis tilida *sein*, *haben*, bu tillardagi modal fe'llarda, o'zbek tilida fe'lning harakat tarzi analitik shakllarini hosil qiluvchi ko'makchi fe'llarda, ot ko'makchilar misollarida ko'rish mumkin.

Hozirgi o'zbek tilida *-xona*, *-kor*, *-paz*, *umum-*, *ser-* kabi so'z yasovchilar affiksoid sanaladi, o'zbek shevalarida *bora yotibman*, *bora yotibdi* analitik shakli *boropman*, *boropti* ko'rinishiga ega: ko'z oldimizda *-a yotib-* analitik shaklidan *-op-* qo'shimchali sintetik shakl rivojlanmoqda.

Til grammatik qurilishining sintetizmdan analitizmga qarab rivojlanishi qonunini ham hind-yevropa va turkiy tillar tarixi misollarida ko'plab ko'rish mumkin.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Tilning serqirraligi deganda nimani tushunasiz?
2. Tilshunoslik bosqichlari va yo'nalishlarini ayting?
3. Til va tafakkur yaxlitligi deganda nima tushuniladi?
4. Borliq xodisalarining serqirraligi deganda nimani tushunasiz?
5. Tilning ko'p vazifaliligi haqida fikr bildiring?
6. Til ramzlarida barqarorlik va o'zgaruvchanlik dialektikasi haqida fikr yuriting?

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Usmonov C. Umumiylar tilshunoslik. – Toshkent: O'qituvchi, 1972;
2. Qo'chqortoev I.F. de Sossyurning lingvistik konsepsiysi. Nazariya va metod masalalari. – Toshkent: ToshDU, 1976;

3. Ne’matov H., Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1993.
4. См: Нигматов X. Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. – Ташкент: Фан, 1989. – С. 7;
5. Bozorov O. O‘zbek tilida darajalanish. – Toshkent: Fan, 1995;
6. Mengliev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Qarshi, 2004;
7. Mengliev B. Lisoniy tizim yaxlitligi va unda sathlararo munosabatlar: Filol. fan. d-ri. . . diss. avtoref. – Toshkent, 2001; 2003;
8. Nigmatova L. O‘zbek tilida privativlik (nofonologik satqlar):Filol. fan. nomz. . . diss. avtoref. – Toshkent, 2004;
9. Yunusova Z. O‘zbek tilida lug‘aviy mikrosistemaning tarkibi va rivojlanishi (samoviy yoritgichlar lug‘aviy guruhi asosida): Filol. fan. nomz. . . diss. avtoref. – Toshkent, 2005.

## 4-AMALIY MASHG ‘ULOT: TA’LIMDA LISON, SHAXS, NUTQ MUNOSABATI

### REJA:

- 1. Til va tafakkur munosabati masalasi bo‘yicha munozara*
- 2. Til va tafakkur dialektikasiga milliy yondashuv asoslari muammosi bo‘yicha mashq*

**Ishdan maqsad:** Tilning ijtimoiy hodisalardan farqlash, til va tafakkur munosabati sharhlash, tilning biologik, irqiy, sinfiy hodisa emasligi haqida ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

**Masalaning qo‘yilishi:** Tinglovchi berilgan savollarga javob berishi va natija olishi lozim.

Ushbu amaliy ish davomida quyidagilarni bajarish lozim:

1. Til va tafakkur munosabati masalasi bo‘yicha munozara.
2. Til va tafakkur dialektikasiga milliy yondashuv asoslari mukammosi bo‘yicha mashq.
3. Alisher Navoiy qarashlarida til va tafakkur munosabati masalasi bo‘yicha debat.
4. Konsept, tushuncha, so‘z. Hukm va gap tushunchalarining yoritishini tavsiflash.

Jamiyat taraqqiyotining ma’lum bir pallasida har bir fan bo‘yicha ta’limning qaysi bosqichida nimani, nima maqsadda va qay yo‘sinda o‘qitish masalasi umummilliy muammo darajasiga ko‘tariladi. Natijada muammo yechimiga jamoatchilik diqqat-e’tibori qaratiladi, tegishli soha ilmiy salohiyati bu muammo yechimiga yo‘naltiriladi. Ta’lim maqsadi belgilanib, ta’lim mazmuni tayyorlanadi, shunga muvofiq ta’lim usuli ishlab chiqiladi.

O‘tgan asrning 90-yillariga kelib mavjud ona tili ta’limining yaroqsiz holga kelib qolganligi, uni tubdan isloh qilish lozimligi, ta’lim maqsadi, mazmuni va usulini yangilash zarurati ayon bo‘lib qolgan edi. Chunki O‘zbekiston taraqqiyotning ijtimoiy himoyaga asoslangan bozor iqtisodiyoti yo‘lini tanladi. Mulkchilik munosabatlari qaror topib, jamiyat a’zolari ongida boqimandalik

kayfiyati, fikriy tanballik hissi o‘rnini iqtisodiy tafakkur, tadbirkorlik, yo‘qdan bor qilish, ichki imkoniyatlarni ishga solish istagi egallashi, aql-idrokka qudratli yaratuvchi kuch sifatida qarash, chetdan madad kutmaslik tuyg‘usi shakllanishi zarur edi. Yangidavr **bilikli shaxsgagina emas, balki bilim olish yo‘llarini puxta o‘zlashtirgan, mustaqil idrok qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan** ongli fuqaroga ehtiyoj sezdi. Natijadamamlakatimiz istiqlolining ilk yillaridayoq ta’limning umumiy maqsadi negiziga mustaqil ijodiy fikrlovchi hamda yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalash mo‘ljali qo‘yildi. Ta’limning umumiy maqsadi esa har bir fan o‘z maqsad va vazifalarini belgilab olishni taqozo etadiki, bu, xususan, umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturida berilgan ona tili ta’limi maqsadida o‘zining yaqqol ifodasini topdi. Ta’lim o‘quvchining ongli va faol ravishda o‘z malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishiga, ta’lim usuli, mazmuni hamda ta’lim vositalari ana shu vazifalarning aniq va puxta bajarilishiga yo‘naltirildi. Biroq yangi davr talablari asosida ta’limda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullarga ustuvorlik berilishiga qaramasdan, til qurilishi haqida ko‘p hollarda amaliy tatbiqdan yiroq, kam samarali lingvistik bilimlar berishdan iborat eski va chayir an’ana hanuz saqlanib qolmoqda. Mubolag‘asiz ravishda aytish mumkinki, bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda deysizmi, tayanch sinflar yoki akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida deysizmi, til qurilishi bo‘yicha beriladigan bilimlar hissasiona tilidan amaliy foydalanishkompetensiyasidan ancha ustunlik qiladi. Ahvol shu darajaga yetdiki, chuqurroq e’tibor berilsa, **ona tili ta’limi maqsadi ijodiy tafakkur sohibi va til imkoniyatini egallagan shaxsni tarbiyalash emas, balki tilshunos olimni yetishtirishga o‘xshab qoldi.**

**1-voqeа.** Ko‘p yillar ilgari inson huquqlari bo‘yicha Ombudsman idorasidan meno‘sha vaqtlarda mudirlik qilayotgan kafedraga bir shikoyatda ko‘rsatilgan masalaga tilshunos ekspert sifatida munosabat bildirishi so‘ralgan murojaat xati kelib tushdi. Unda shikoyatchi yangi pasport olganligi, pasportning tegishli bo‘limida uning millati “boshqird” deb yozilganligi, lekin u bashkir millatiga mansub ekanligini aytib, *bashkir* so‘zining o‘zbek tilida *boshqirddeb* yozilishiga izoh berishni so‘ragan edi. Bir qarashda rus tilidagi *bashkir* so‘zining o‘zbek tilida

*boshqird* shaklida berilishini izohlash jo‘ngina tuyulsa-da, shugina muammo yechimi uchun ham ancha ter to‘kishga to‘g‘ri kelgan edi. Bunda quyidagilarga e’tibor berilishi lozim edi:

*birinchidan*, manbalardan so‘zning genezisi, etimologiyasi, boshqa tillarga o‘zlashishi, o‘zlashtirgan tilning talaffuz va imlo imkoniyat hamda xususiyatlarini o‘rganish, asoslash va muayyan xulosalarga kelish;

*ikkinchidan*, xulosalarni ilmiy yo‘sinda emas, balki rasmiy-idoraviy uslubda qisqa, aniq va tushunarli, mantiqli bayon qilish;

*uchinchidan*, xulosa berish uchun lingvistik ekspertiza bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lish.

Masalaning uchinchi jihatni men uchun qiyin bo‘lib, lingvistik ekspertiza bo‘yicha ma’lumotga ega emas edim. Natijada maxsusizlanishga to‘g‘ri keldi va dunyo miqyosida lingvistik ekspertiza tilshunoslikning muhim hayotiy tarmog‘i bo‘lgan yurislingvistikaning o‘zagi sifatida katta yutuqlarni qo‘lga kiritganini va amaliyotda sud-ekspertiza sohasining muhim tarkibiy qismiga aylanib ulgurganini, bu borada ulkan amaliy tadqiqotlar bajarilganligi va ta’limda tegishli yo‘nalish va mutaxassisliklar uchun ko‘plab o‘quv adabiyotlari yaratilganligini ko‘rib, bu sohani mamlakatimizda ham yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish zarurligi haqidagi fikrga kelgan edim.

**2-voqeа.** Ikki kishi janjallahib qolishgan, ulardan biri ikkinchisini “eshshak” deb haqorat qilgan bo‘lib, ish sudgacha borgan, tomonlardan biri hadeb o‘zining hayvonga tenglashtirilganligida turib olgan edi. Shunda sud “eshshak” so‘zining ma’nosiga lingvistik sharh berishni so‘rab filologga murojaat qilindi. Suddamutaxassisning *eshshak* so‘zi hayvonni emas, balki (*eshaksifat*) odamni ifodalashi, hayvonga nisbatan esa bir “**sh**” tovushiga ega *eshak* so‘zi qo‘llanilishini tegishli imlo va izohli lug‘atlar, boshqa ilmiy manbalarni asos qilib ko‘rsatgan holda bergen xulosasihal qiluvchi ahamiyat kasb etgan edi. Lekin mutaxassisning lingvistik ekspertiza bilan shug‘ullanish huquqi yo‘qligi masalani chigallashtirgan edi. Zero, uning mutaxassisligi malaka talablarida qayd etilmagan edi.

**3-voqeа.** Hamkasblarimizdan biri o‘zi guvoh bo‘lgan quyidagi voqeani aytib bergen edi. Olim ishlaydigan O‘zbek tilshunosligi kafedrasiga bir kishi kelib, o‘zini

tergovchi deb tanishtiradi va bir masalada yordam berishlarini so‘raydi. Ma’lum bo‘lishicha, o‘z joniga qasd qilgan bir kishi xat qoldirgan bo‘lib, unda hayotdan o‘z xohishi bilan ketayotgani, bunda hech kimni ayblamasligi aytilgan. Tergovchiga shu xat borasida lingvistik xulosa zarur ekan. Xatni marhum o‘z qo‘li bilan yozgani aniq, biroqu o‘z hohishi bilan yozganmi, birov majburlaganmi, yozish jarayonida uning ruhiy holati qanday bo‘lgan –ana shularni oydinlashtirmoqchi ekan. Shunda hamkasbim bunday savollarga javob berish imkoniy yo‘qligi, u bilan tilshunoslik shug‘ullanmasligini aytadi. Tergovchi esa o‘zining Moskvada tahsil olganini va amaliyot chog‘ida shunga o‘xhash muammolar bilan mutaxassislar Moskva davlat universitetining filologiya fakultetiga tez-tez murojaat qilishlariga guvoh bo‘lganini, fakultet talabalariga “Sud lingvistikasi” fani maxsus o‘qitilishi, bunday kadrlarga ehtiyoj kattaligi va maoshlari ham yuqori ekanini aytadi.

**4-voqeа.** Bir vaqtlar G‘arb mamlakatlarida bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari bilan tanishishga to‘g‘ri kelganda, “Tovar yorliqlarida harf shakllarining inson psixikasiga ta’siri”, “Tashqi reklamatarda vizual urg‘u”, “Falon temperamentli shaxsning nutqi” kabi mavzularda doktorlik dissertatsiyalari himoya qilinganligi, ular tegishli korxonalar tomonidan ancha yaxshi moliyalanganligini bilib, bizda ham shunday ishlarni bajarish vaqt kelganligi haqidagi fikrga kelgan edim. Magistrlarga shu yo‘nalishdagi mavzularni rejulashtirganimda, ularkengash tomonidan tomonidan “tor”, “nazariy jihat yo‘q”, “jiddiy mavzular emas” degan ayblar bilan inkor qilingan edi. Lekin ko‘p o‘tmay inkor etuvchilar tarafida turganbir hamkasbimizningmatbuotdagi jamoat transportlaridagi “LITSENZIYASIZ yo‘lovchilarni tashish taqiqlanadi” lavhasidagi *litsenziya* so‘zi butunicha bosh harflarda berilganda “litsenziyasiz yo‘lovchi” ma’nosini anglatmasligi haqidagi chiqishi amaliy tadqiqotning yorqin namunasi edi.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**


1. Dunyo adabiyotshunosligidagi yetakchi metodlar haqida ma’lumot bering.
2. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixidagi asosiy tahlil metodlari qaysilar edi?
3. Adabiyotshunoslikda kelajakda qaysi usullar ko‘proq samara berishi mumkin?

4. Adabiyotshunoslik metodologiyasi va adabiyot nazariyasi haqida fikr bildiring.
5. Badiiy asarni turli aspektlarda o‘rganish yo‘llarini ayting.
6. Metodlar tasnif bering.
7. Ta’limda deduktiv usul qanday?
8. Induktiv ta’lim haqida gapiring.
9. Grammatik maksimum nima?

***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:***

1. Usmonov C. Umumiyl tilshunoslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 1972;
2. Qo‘chqortoev I.F. de Sossyurning lingvistik konsepsiysi. Nazariya va metod masalalari. – Toshkent: ToshDU, 1976;
3. Ne’matov H., Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1993.
4. См: Нигматов Х. Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. – Ташкент: Фан, 1989. – С. 7;
5. Bozorov O. O‘zbek tilida darajalanish. – Toshkent: Fan, 1995;
6. Mengliev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Qarshi, 2004;

## V. KEYSLAR BANKI



## KEYSLAR BANKI

**Keyslar uchun “keys-stady” metodi asos sanaladi.** “Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” — aniq vaziyat, hodisa, “stadi” — o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

**Modul bo‘yicha quyidagi keyslarni yechish maqsadga muvofiq sanaladi:**

**1-keys.** Qaysi so‘zlar umuman “ajdod” va “avlod” ma’nolarini anglatmaydi?


**2-keys.** So‘zning uzual va okkazional ma’nolari o‘rtasida yuzaga keladigan zidlanish qanday enantiosemiyani namoyon etadi?

**3-keys.** So‘z semantik strukturasidagi ma’nolarning borliqdagi narsa-hodisa, belgi va harakat-holatni qarama-qarshi tomondan atashi yoki qarama-qarshi tomondan baholashiga ko‘ra qanday enantiosemiya farqlanadi?

**4-keys.** Badiiy asar tahlilini amalga oshirilayotgan tahlilning maqsadiga ko‘ra necha turi bor?

**5-keys.** Konstruktivistik pedagogikaning: “Dunyodagi birorta pedagog birorta o‘quvchini o‘qita olmaydi”, - degan xulosalari asoslimi?

## VI. GLOSSARIY



## VII. GLOSSARIY


Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Analogiya	O‘xshashligi, prototipi tanlanadigan fikriy operatsiya.	Similarity, prototype, and an intellectual process
Aniqlashtirish	Abstraktlashtirish-ga teskari jarayon, yaxlit, o‘zaro bog‘liq, ko‘p tomonlama obyektning topilishini nazarda tutadi.	The reverse process of abstracting involves the establishment of a multilateral, interdependent, multilateral entity.
Deduksiya	Fikrlashning umumiy qonuniyatlardan xususiy faktlarga tomon rivojlanishini nazarda tutadigan fikriy operatsiya.	An intellectual process that encompasses the development of thinking from general principles to specific facts.
Faraz	Gipoteza (qadimgi grek tilidan - asos, taxmin) — oldindan o‘rganilgan faktlar, hodisalar, jarayonlarning muayyan majmuiga asoslangan, ularni izohlash uchun ilgari suriladigan va tasdiqlanishi yoki inkor etilishi lozim bo‘ladigan nazariy taxmin.	Hypothesis (from the ancient Greek language - the basis, the assumption) - based on a set of previously learned facts, events, processes and their interpretation theoretical assumption that must be propagated or denied or denied.
Ilmiy yo‘nalish	Ilmiy yo‘nalish deganda tadqiqot o‘tkazish sohasidagi fan,	Scientific direction is a set of science, science or academic problems in the

	fanlar yoki ilmiy muammolar majmui tushuniladi.	field of research.
Induksiya	Xususiy faktlarni umumlashtirish mantiqiga asoslangan fikriy operatsiya	The logic-based intellectual exercise of private facts
Kuzatish	Eng ko‘p axborotli tadqiqot uslubi bo‘lib, u bo‘lgan va o‘rganilayotgan jarayonlar va hodisalarini chetdan turib ko‘rishga imkon beradi.	The most informative research method that allows you to see and analyze the processes and phenomena that you are researching.
Metodologiya	Bu ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining ilmiy tamoyillari va usullari tizimi haqidagi ta’limot.	This is a teaching about the system of scientific principles and methods of scientific research activity.
Modellashtirish	Tadqiqotchilikning modelning qurilishini nazarda tutadigan nazariy uslubi.	Theoretical style of research involving the construction of a model.
Sintez	Fikriy operatsiya, uning jarayonida aniqlangan elementlar va faktlardan yaxlit manzara qayta tiklanadi.	Intellectual landscape, elements and facts discovered in its process will be restored.
Suhbat	Empirik uslub bo‘lib, javob beruvchi bilan shaxsiy aloqani nazarda tutadi.	It’s an experimental method, which implies a personal relationship with the respondent.
Tadqiqot dasturi	Bu aniq mavzu ustidagi bo‘lg‘usi ishning mohiyati va tarkibiy qismlari haqidagi aniq	This is a clear idea of the essence and components of the future

	tasavvurdir.	work on a specific topic
	Ilmiy bilishning umumiy jarayoni sohasida mazkur mavzuni o'rghanish zaruratini izohlashni bildiradi.	Explains the necessity of studying the subject in the field of general scientific knowledge.
Tadqiqot maqsadi	Bu tadqiqotchi o'z ishini yakunlashda erishishni xohlagan pirovard natijadir. Faraz asosida ifodalanadi.	This is the final outcome that the researcher wants to achieve in completing his work. It is based on hypothesis.
Tadqiqot vazifasi	Bu ilgari surilgan farazga muvofiq maqsadga erishish uchun yo'llar va vositalarning tanlanishidir.	This is the choice of ways and means to achieve the goal pursued according to the hypothesis it proposes.
Tajriba	Umumiy empirik tadqiqot uslubi bo'lib, u boshqariladigan sharoitda o'r ganilayotgan obyektlar ustidan qat'iy nazorat yuritilishiga asoslanadi.	It's a general experimental method of research based on strict control over the objects studied under controlled conditions.
Tasniflash	O'r ganiladigan obyektlar, faktlarni o'r ganishning nazariy uslubi; hodisalarni bir-biriga nisbatan tartibga solishga asoslanadi.	Learning objects, theoretical approach to the study of facts; to regulate events in one another.
Umumlashtirish	Muhim fikriy operatsiyalardan biri bo'lib, uning natijasida obyektlar va ular munosabatlarining nisbatan barqaror xususiyatlari ajratiladi va	It is one of the most important intellectual operations that results in the relatively stable features of objects and their relationships.

	qayd qilinadi.	
--	----------------	--

## VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI



## **VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 507 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Нияти улугъ халқнинг иши ҳам улугъ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – 400 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2020. – 400 б.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

6. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2018.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февраль “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 4947-сонли Фармони.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрел “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли Қарори.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрь “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5544-сонли Фармони.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 май “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5729-сонли Фармони.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 август “Олий

таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида”ги ПФ-5789-сонли Фармони.

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқенини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5850-сон Фармони.
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрь “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони.
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрь “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-6097-сонли Фармони.
15. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 23 сентябрь “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 797-сонли Қарори.

### **III. Maxsus adabiyotlar:**

16. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: “Mumtoz so‘z”, 2017. – 176 б.
17. Маҳмудов Н. Зиддият ва жуфт сўзлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2014. – № 5. – Б. 3-9.
18. Маҳмудов Н. Зиддият ва маъно тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2014. – № 3. – Б. 18-25.
19. Неъматов Н., Менглиев Б. Тилшуносликнинг фалсафий масалалари. – Тошкент, 2015.
20. Игнатова Н.Ю. Образование в цифровую эпоху: монография. М-во образования и науки РФ. – Нижний Тагил: НТИ (филиал) УрФУ, 2017. – 128 с.

21. Дадабоев Ҳ. Ўзбек тилшунослигининг назарий-методологик муаммолари. – Тошкент, 2004.
22. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. – Андижон, 2006.
23. Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. Тил қурилишини тизим сифатида ўрганиш масалалари. – Тошкент: Университет, 2007.
24. Бушуй Т. Язык в истории развития человеческой мысли. – Ташкент: Фан, 2011
25. Бушуй Т., Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. – Тошкент: Фан, 2007.
26. Степанов Ю.С. Методы и принципы современной лингвистики. – М., 2001
27. Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент, 2011.
28. Нурмонов А. Лингвистик белги назарияси. – Тошкент: Фан, 2008.
29. Абдуазизов А.А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. - Тошкент: Университет, 2010.
30. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г. Ҳозирги ўзбек адабий тили: Дарслик. – Тошкент, 2004.
31. Ҳамид Неъматов, Бахтиёр Менглиев. Тилшуносликнинг фалсафий масалалари. – Тошкент, 2015.
32. Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010.

#### **IV. Elektron ta’lim resurslari**

33. <http://lex.uz>
34. <http://ziyonet.uz>
35. <http://natlib.uz>
36. www.bimm.uz
37. www.literature.uz
38. www.kutubxona.uz
39. <http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism>

40. <http://www.utpa.edu/faculty/mglazer/Theory/structuralism.htm>
41. [http://www.eng.fju.edu.tw/Literary\\_Criticism/structuralism](http://www.eng.fju.edu.tw/Literary_Criticism/structuralism)

## VIII. TAQRIZLAR



Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi prof. B.Mengliyev tomonidan tuzilgan "O'zbek tilshunosligining nazariy va amaliy muammolari" nomli fan dasturi va o'quv-uslubiy majmuaga

### T A Q R I Z

O'zbek tilshunosligining nazariy va amaliy muammolarini tadqiq etilishi tilshunoslikda dolzARB masalalaridan biri sifatida ko'plab muammoli o'rInlarning yechimiga imkon berdi. Bu o'rinda tilning yaxlit bir butun tizim sifatidagi xususiyatini, til birliklari tavsifi va tasnifi, til birliklari o'rtasidagi munosabatlarni yoritish, nazariy tilshunoslik masalalarini hal qilishda qo'llanadigan metodologiya va metodlar haqida mukammal bilim berishdan iborat.

Til birliklarini antropotsentrisk paradigma asosida tadqiq etish milliy ong va tafakkurning ifodasi bo'lgan tilimizning jamiyatning eng muhim subyekti bo'lgan shaxs bilan aloqador jihatlarini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Falsafiy adabiyotlarda fahm, fahmiy tushunchasi juda ko'p hollarda turli-tuman atamalar bilan beriladi. Chunonchi, empirik, sensual, empiriokritik, praktik, eksperimental kabi baynalminal, chustvennoye, opitnoye, vneshnoye kabi ruscha, hissiy, fahmiy, zohiriyy, tashqi, tajribaviy kabi o'zbekcha atamalar shular jumlasidan. O'zbek va rus tillaridagi ilmiy (xoh falsafiy, xoh lingvistik) adabiyotlarda baynalminal atamalar ham keng va erkin qo'llanilgan. Bu atamalarning barchasi bir turdag'i bilish va uning mahsuli – bilimni ifodalaydi. Atamalarning har biri fahmiy o'rganishning ma'lum bir qirrasiga alohida e'tibor berilganligi "O'zbek tilshunosligining nazariy va amaliy muammolari" fani dasturi va o'quv-uslubiy majmuada belgilangan masalalarning dolzarbligini ko'rsatadi.

Ushbu fan dasturi hamda o'quv-uslubiy majmuada O'zbek tilshunosligining nazariy va amaliy muammolarining formal mantiq metodologiyasi, dialektik metodologiya, sinergetik metodologiya yo'naliishlari bo'yicha tinglovchilar bilishi va o'zlashtirishi lozim bo'lgan nazariy bilimlar majmui aks etgan. Shu bilan birga, nazariy bilimlarni amaliyatga tatbiqi yuzasidan topshiriqlar tizimi bayon etilgan.

Fan dasturi hamda o'quv-uslubiy majmuada fanni o'tishda ko'llaniladigan zamонавиу pedagogik texnologiyalar, jumladan, "FSMU", "Blits-surov", "Tushunchalar tahlili", "Keys-stadii" kabilar ham taqdim etilgan. Mazkur pedagogik texnologiyalar ta'lim sifatini oshirishda, nazariy bilimlarni chuqr o'zlashtirishda yordam berishi shubhasiz.

O'quv-uslubiy majmuda berilgan nazariy va amaliy masalalar tahlili asosida

shuni alohida qayd etish mumkinki, ushbu ish O'zbek tilshunosligining nazariy va amaliy muammolarining formal mantiq metodologiyasi, dialektik metodologiya, sinergetik metodologiya yo'nalishlari bo'yicha ma'lumot beruvchi yaxlit O'quv-uslubiy qo'llanma vazifasini o'taydi. O'quv-uslubiy majmuadan ta'lim jarayonida keng foydalanish mumkin.

Xullas, B.Mengliyev tomonidan tuzilgan "O'zbek tilshunosligining nazariy va amaliy muammolari" nomli fan dasturi, o'quv-uslubiy majmua zamonaviy tilshunoslik xamda o'qitishning ilg'or texnologiyalari talablariga to'liq javob beradi, uni bemalol nashrga tavsiya etish mumkin.

**S.Muxammedova**



**TOSHDO'TAU HUZURIDAGI PKQTMO TARMOQ MARKAZIDA  
O'QITILADIGAN  
“O'ZBEK TILI FILOLOGIYASI:O'ZBEK TILSHUNOSLIGI”  
YO'NALISHI KURSI O'QUV DASTURIGA  
TAQRIZ**

**“O'zbek tili filologiyasi:o'zbek tilshunosligi”** yo'nalishi o'z maqsad va vazifalariga ega, albatta. Fanlararo integratsiya, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'qitish va bilim olishda turli metod hamda metodologiyalarni qo'llash – bu davr talabi sanaladi. “O'zbek tilshunosligining nazariy va amaliy muammolari”, “Antropotsentrik tilshunoslik yo'nalishlari”, “Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari:assotsiativ tilshunoslik”, “Semantikaning dolzarb muammolari”, “Til texnologiyasi”, “Lingvokulturologiya” kabi fanlarning dasturga kiritilgani maqsadga muvofiq ekanini ta'kidlash zarur.

Dasturda berilgan mavzular ta'lrim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo'lib, til birliklarini antropotsentrik paradigma asosida tadqiq etish milliy ong va tafakkurning ifodasi bo'lgan tilimizning jamiyatning eng muhim subyekti bo'lgan shaxs bilan aloqador jihatlarini o'rganishga, ta'lrim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili, avtomatik tahlil qilish mezonlari va tamoyillari, tillararo munosabatlar tahlili, tabiiy til qonuniyatlarining algoritmik mezonlarini bilishlari, lingvistik bilimlar bazasi, mashina tarjimasida tizimlashtirish masalasi, lingvistik texnologiyalar, sintaktik parsing, kompyuter leksikografiyasi, morfologiyasi, morfologik teglash, korpus lingvistikasi, matnni avtomatik tahrir qilish, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, lisoniy qobiliyati, lisoniy xotirasi imkoniyatlari, leksik birliklar zahirasi, matn yaratishi mexanizmi, matnni idrok etishi qobiliyati, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, til umumiy rivojining, xususan, ma'no taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchlaridan eng qudratlisi dialektik ziddiyat, qarama-qarshiliklarini tahlil qilish, ziddiyat, qarama-qarshilik bilan bir qatorda til va nutq birliklarida xilma-xillik, murakkablik, ko'ptalqinlilik kabi ma'noviy siljishlar, meyordan chekinishlar, ta'lrim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lrim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, pedagogik texnologiyalarini amaliyotga keng qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Dasturda har bir modulning qisqacha tavsifi, amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, malakaviy attestatsiya talablari,

shuningidek, tinglovchilarni eng muhim adabiyotlar bilan tanishtirish uchun yangi ilmiy-nazariy adabiyotlar taqdim etilgan.

Amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilar o‘quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o‘quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog‘liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajarishga yo‘naltirilgani katta ahamiyatga ega.

Xullas, mazkur dasurni ta’lim jarayoniga tatbiq etish maqsadga muvofiq, deb hisoblayman.

**Filologiya fanlari doktori**

**S.Normamatov**





T.C.  
İSTANBUL ÜNİVERSİTESİ REKTÖRLÜĞÜ  
Dil Merkezi Başkanlığı



14.09.2020

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi "O'zbek tili filologiyasi: o'zbek tilshunosligi" yo'nalishi kursi o'quv dasturiga

#### TAQRIZ

O'zbek tilshunos olimlarining sohaga oid fundamental ilmiy tadqiqotlaridan biz xorijiy mutaxassislar ham istifoda qilamiz, o'mi kelganda ta'lim jarayoniga tabbiq etishga harakat qilamiz. Chunonchi o'zbek tilshunoslik maktabi jahondagi nufusli maktablar qatorida tilga olinishga loyiqidir. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazida "O'zbek tili filologiyasi: o'zbek tilshunosligi" kursining o'qitimishi diqqatga sazovordir. Dastur doirasida tinglovchilarga taqdirm etilayotgan 3 modul asosidagi mavzular ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari, pedagogning kreativ komponentligini rivojlantirish, provardida samarali ta'lim berish usullarini qamrab olgan. Dasturning "Pedagogning professional faoliyatidagi innovatsiyalar" deb nomlangan 1-modulida oly ta'lim muassasalari o'qituvchisining professionalligi, uning boshqaruv mahorati, texnikasi, uslublari, shuningdek, o'qituvchining kasbiy professionalligini oshirish omillariga diqqat qaratilgan. Modul so'ngida tinglovchi onlayn darslarni tashkin etish, kuzatish va tahlil qilish metodikasini o'zlashtirib oladi. 2-modul "Pedagogning axborot va kommunikativ komponentligini rivojlantirish" deb nomlangan. Ushbu modul 2 qismni o'z ichiga olib, 1-qismda raqamli texnologiyalar va ularning didaktik imkoniyatlari, "elektron universitet" va uning xususiyatlari, ta'lim jarayonlarida yangi texnologiyalardan foydalanish kabi mavzularning o'qitimishi ko'zda tutilgan. "Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili" nomli 2-qismda esa tinglovchilarining sohaga oid faol so'zlarni yod olishlari, o'z ilmiy yo'nalishi bo'yicha erkin so'zlab berish va gazetalardagi sohaga oid maqolani o'qib tushunish ko'nikmasiga ega bo'lishiga e'tibor berilgan. Ma'lumki, kursdagi tinglovchi mutaxassislik fanlariga doir qancha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi uning ilmiy va pedagogik faoliyatining shunchalar muvoffaqiyatli va samaradorligini oshirishdagi muhim omildir. Binobarin mazkur o'quv dasturining 3-modulida 6 qismdan iborat sohaga doir mazkur mavzularning keltirilishi maqsadga muvofiqdir. O'zbek tilshunosligining yutuq va muammolari, muammolar yechimiga doir tavsiyalar, ona tili o'qitish metodikasi ta'limida til, shaxs, nutq munosabati, badiiy matnni antoposentrik tahlili, assotsiyativ tilshunoslik kabi mavzular ushbu moduldagi dolzarb mavzulardandir. Til va tafakkur munosabatlari, til rivojini ta'minlovchi omillar, tillararo ta'sirlashuv, qarindosh va noqarindosh tillarda ma'nodoshlik, shuningdek, kompyuter leksikologiyasi masalalariga ham 3-modulda alohida o'rinn ajratilgan. Lingvokulturologiya tilshunoslikdagi nisbatan yangi fan sohasidir. 3-modulda ushbu fanning obyekti va predmeti, maqsad va vazifalari, fanga doir terminlar va ularning mohiyati o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya sohasidagi ilmiy-nazariy tadqiqotlar va kelajakda yechimini kutayotgan vazifalarga keng o'rinn berilgani asosli va mantiqlidir. Dasturning 4-qismi malakaviy attetsatsiya yo'l-yo'riqlari, bu boradagi ko'rsatma va tavsiyalarga ajratilgan. Dasturda ta'kidlanishicha, mustaqil malaka oshirish paytida pedagoglar pedagogik amaliyotdan o'tadilar. Pedagogik amaliyot davrida o'qituvchi asosiy ish joyi bo'yicha ma'lum kafedraning tajribali ustozlaridan ikkita dars kuzatadilar va tahlil qiladilar hamda kafedra a'zolari ishtirokida bitta ochiq dars o'tib beradilar. Ochiq dars tahlili hamda pedagog tomonidan kuzatilgan dars xulosalari kafedra yig'ilishida muhokama qilinadi va bayonnomha bilan rasmiylashtiriladi. "O'zbek tili filologiyasi: o'zbek tilshunosligi" dasturida to'rt yo'nalishdagi jami 37 adabiyotlar ro'yxati shakllantirilgan. Bu adabiyotlar sohaga tegishli zarur manbalar bo'lib, mazkur o'quv kursining maqsad-vazifalariga to'la muvofiq keladi. Yuqorida gilarni inobatga olib ushbu dasturni ta'lim jarayoniga tayyor dastur deb hisoblaymiz.

Emek USHENMEZ,

*filologiya fanlari doktori, İstanbul universiteti professori*